


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI MA‘NAVIY
MEROSINING GUMANISTIK XARAKTERI (VIII-XVIII ASRLAR)”**

moduli bo‘yicha

O‘QUV –USLUBIY MAJMUA

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

Tuzuvchi: f.f.n., prof. D.A.Pulatova
katta o‘qituvchi J.B.Sulaymonov

Taqrizchilar: Falsafa fanlari doktori, dotsent Izzetova Emine
Mustafayevna
Falsafa fanlari doktori, professor Rozmatova Gulnoz
Mirahrarovna

O‘quv -uslubiy majmua O‘zbekiston milliy universiteti Kengashining qarori
bilan nashrga tavsiya qilingan (2021 yil dekabrda № -sonli
baènnomasi)

MUNDARIJA:

<u>I.</u>	<u>ISHCHI DASTUR</u>	3
<u>II.</u>	<u>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI</u>	14
<u>III.</u>	<u>NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI OSHIBKA! ZAKLADKA NE OPREDELENA.</u>	
<u>IV.</u>	<u>AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI</u>	63
<u>V.</u>	<u>KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI</u>	102.
<u>VI.</u>	<u>GLOSSARIY</u>	103
<u>VII.</u>	<u>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</u>	120

I. ISHCHI

DASTUR KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va

kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Markaziy Osiyoda islom falsafasining shakllanishi va gumanistik g'oyalar rivojlanishining tarixiy ma'naviy asoslari, VIII-XVIII asrlar asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishini, o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari va oqimlarini, Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarning faoliyati va ma'naviy merosini, ularning gumanistik xarakterini hamda jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rnini haqida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshirish.

Modulning vazifalari:

- Markaziy Osiyoda islom falsafasining shakllanishi va gumanistik g'oyalar rivojlanishining tarixiy ma'naviy asoslari;
- O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari va oqimlari;
- XVI-XVIII asrlarda Movaraunnaxrda falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy va tasavvufiy g'oyalarning rivojlanishi;
- Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarning faoliyati va ma'naviy merosini, ularning gumanistik xarakterini hamda jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rni haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarning faoliyati va ma'naviy merosini, ularning gumanistik xarakterini hamda jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rnini *bilishi* kerak;
- globallashuv sharoitida Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy, ma'naviy, falsafiy merosida o'z aksini topgan ahloqiy

qadriyatlarining mohiyati va ahamiyatiga oid bilimlardan tinglovchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirishda foydalanish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim;

- mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan mutaxassislik fanlari bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.
- buyuk faylasuflar, shoir va ma'rifatparvarlarning ijodiy merosida aks etgan ijtimoiy-falsafiy fikrlarni, ularning gumanistik xarakterining ahamiyatli jihatlarini mavzuga doir video roliklar, taqdimotlar, tarixiy filmlar orqali ko'rsata bilish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Markaziy Osiyo mutafakkirlari ma'naviy merosining gumanistik xarakteri (VIII-XVIII asrlar)” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Yaqin, O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji”, “Sharq falsafasi tarixining asosiy davrlari va yo'nalishlari” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan .

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar Markaziy Osiyo mutafakkirlari ma'naviy merosining gumanistik xarakteriga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi
		jumladan

			Nazariy	Amaliy mashg'ul	Ko'chma mashg'ul
1.	Markaziy Osiyoda islom falsafasining shakllanishi va gumanistik g'oyalar rivojlanishining tarixiy ma'naviy asoslari	6	2	4	
2.	O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasi	4	2	2	
3	Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab buyuk faylasuflar, shoir va ma'rifatparvarlarning ijodiy merosida aks etgan ijtimoiy-falsafiy fikrlar, ularning gumanistik xarakteri	6	2	2	2
4	XVI-XVIII asrlarda Movaraunnahrda falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy va tasavvufiy g'oyalarning rivoji	4	2	2	
5	Mirza Abdulqodir Bedil (1644-1721) falsafasining gumanistik xarakteri.	2	2		
	Jami:	22	10	10	2

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Markaziy Osiyoda islom falsafasining shakllanishi va gumanistik g'oyalar rivojlanishining tarixiy ma'naviy asoslari

1. Yangi aflotuncha yo'nalishning paydo bo'lishi
 2. Abu Nasr Forobiyning borliq haqidagi ta'limoti, bilish nazariyasi va mantig'i, jamiyat va axloq haqida.
 3. Ibn Sinoning hayot yo'li, borliq haqidagi qarashlari va fanlar tasnifi, bilish nazariyasi va mantig'i, ijtimoiy-siyosiy qarashlari
 4. Abu Abdulloh Xorazmiyning hayoti va faoliyati.
 5. "Mafotih ul-ulum" asarining o'rganilishi.
 6. Abu Abdulloh Xorazmiy fanlar tasnifi haqida.
- Abu Rayhon Beruniyning hayoti, merosi, bilish nazariyasi va uning ijtimoiy qarashlari.

2-mavzu. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasi

1. Tasavvuf ta'limotining mohiyati va nazariy tizimi.
2. Yusuf Hamadoniy faoliyati.
3. Xoja Ahmad Yassaviy qarashlari.
4. Najmiddin Kubro ta'limoti.

5. Xojagon tariqati va Bahouddin Naqshband.

3- mavzu. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko‘plab buyuk faylasuflar, shoir va ma’rifatparvarlarning ijodiy merosida aks etgan ijtimoiy-falsafiy fikrlar, ularning gumanistik xarakteri

1. Abdurahmon Jomiy hayoti va faoliyati.
2. Abdurahmon Jomiyning tasavvufga munosabati.
3. Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari.

4-mavzu. XVI-XVIII asrlarda Movaraunnahrda falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy va tasavvufiy g‘oyalarning rivoji

1. XVI-XVIII asrlar ijtimoiy-falsafiy fikrining umumiy xususiyatlari va ijtimoiy-siyosiy ahvol.
2. Yusuf Qorabog‘iy va Muhammad Sharif Buxoriy dunyoqarashi.
3. Boborahim Mashrab ijodiy merosida diniy va tasavvufiy g‘oyalar.

5-mavzu. Mirza Abdulqodir Bedil (1644-1721) falsafasining gumanistik xarakteri..

1. Mirza Bedilning borliq haqidagi ta’limoti.
2. Bedilning bilish nazariyasi.
3. Bedilning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Markaziy Osiyoda islom falsafasining shakllanishi va gumanistik g‘oyalar rivojlanishining tarixiy ma’naviy asoslari. (4 soat).

2-amaliy mashg‘ulot. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining yirik namoyondalari va oqimlari. (2 soat).

3-amaliy mashg‘ulot. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko‘plab buyuk faylasuflar, shoir va ma’rifatparvarlarning ijodiy merosida aks etgan ijtimoiy-falsafiy fikrlar, ularning gumanistik xarakteri. (2 soat).

4-amaliy mashg‘ulot. XVI-XVIII asrlarda Movaraunnaxrda falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy va tasavvufiy g‘oyalarning rivojlanishi. (2 soat).

KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI

Ko‘chma mashg‘ulot. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko‘plab buyuk faylasuflar, shoir va ma’rifatparvarlarning ijodiy merosida aks etgan ijtimoiy-falsafiy fikrlar, ularning gumanistik xarakteri

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“Keys-stadi” metodi

“**Keys-stadi**”— inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assisment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assisment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Тест

Янгилик — бу:

А) Хабар

В) Маълумот



Қиёсий таҳлил

Экология ва ландшафт, қурилиш, саноат экологияни қиёсий таҳлил қилинг.



Тушунча таҳлили

Шафарсозлик ва экологик архитектурани изоҳланг...



Амалий қўникма

Иккиламчи ресурслардан фойдаланишнинг экологик асосларини аниқланг

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga

birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.



1-MAVZU: MARKAZIY OSIYODA ISLOM FALSAFASINING SHAKLLANISHI VA GUMANISTIK G‘OYALAR RIVOJLANISHINING TARIXIY MA’NAVIY ASOSLARI

Reja:

1. Yangi aflotuncha yo‘nalishning paydo bo‘lishi
2. Abu Nasr Forobiyning borliq haqidagi ta’limoti, bilish nazariyasi va mantig‘i, jamiyat va axloq haqida.
3. Ibn Sinoning hayot yo‘li, borliq haqidagi qarashlari va fanlar tasnifi, bilish nazariyasi va mantig‘i, ijtimoiy-siyosiy qarashlari
4. Abu Abdulloh Xorazmiyning hayoti va faoliyati.
5. “Mafotih ul-ulum” asarining o‘rganilishi.
6. Abu Abdulloh Xorazmiy fanlar tasnifi haqida.
7. Abu Rayhon Beruniyning hayoti, merosi, bilish nazariyasi va uning ijtimoiy qarashlari.

Tayanch tushunchalar: Yangi aflotuncha qarashlar, Forobiy, din, falsafa, haqiqatning ikki jihati, “Din falsafaning misollaridir”, “birinchi ibtido”, nazariy hikmat, aql, aql bil quvva, faol aql, xayr (yaxshilik), sharr (yomonlik), bilishning quroli: nutq, tasavvur, his, “bu jahon”, “u jahon”, Fozil shahar, vahiy, tasavvuriy quvvat, nazariy aql, qiyos, razolat, “yetuklik”, “barkamollik”, ruh salomatligi, badan salomatligi, baxt-saodat, kamolot, fazilat, Ibn Sino, “Shayx ur-rais”, nazariy falsafa – metafizika (oliy fan), matematika (o‘rta fan), tabiat haqidagi fan-tabiatshunoslik (quyi fan), amaliy falsafa, siyosat, huquq, uy ishlarini boshqarish – iqtisod, axloq, tibbiyot, astrologiya, fiziognomika, kimyo, “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Kitob al- ishorat va tanbehot”, “Donishnoma”, “Hikmati-mashriqiyn”, xilqati ilohiy, falakul aflok, faol aql, birinchi aql, ruh, surat, yerdagi farishtalar, “Risolat at-tayr”, “Hay ibn Yaqzon”, “Ishroqiy manbalar”, Abu Abdulloh Xorazmiy, Xuroson, Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Bakr ar-Roziy, “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kalitlari”), Van Floten, I.Y.Krachkovskiy, V.V.Bartold, K.Brokelman, E.Videman, D.Sarton, M.M.Xayrullayev, U.Karimov, G.P.Matviyevskaya, H.Hasanov, M.Ziyovuddinova, arab ilmlari”, “arab bo‘lmagan ilmlar”, kalom, sarf va nahv, she‘r va aruz, tarix, falsafa, mantiq, tib, arifmetika, astronomiya, handasa, mexanika, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Geodeziya”, “Qonuni Mas’udiy”, “Mineralogiya”, “Dorivor o‘simliklar haqida kitob” (“Saydana”), aql va xotira – “Allohning

tuhfasi”, kuzatish, ko‘rish, tajribalar o‘tkazish, mantiqiy umumlashmalar chiqarish, ma’lumotlarni to‘plash, yozma yodgorliklarni o‘rganish, manbalarga tanqidiy qarash, haqiqatni aniqlash, narsalarni bir- biriga taqqoslash, yozuvlarni o‘rganish, Temuriylar davri, Sa‘duddin ibn Umar Taftazoniy, falsafa, mantiq, kalom, Temur, G‘ijduvon, Jom, Turkiston, Hirot, “Tahzib al-mantiq val-kalom” (“Mantiq va kalomga sayqal berish”), sabab, oqibat, his-tuyg‘u, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Jurjon, mantiqshunos, “At-ta‘rifot” (“Ta‘riflar”), “Usuli mantiqiya” (“Mantiq usuli”), qiyos (sillogizm), isteqro (induksiya – bo‘lakdan butunga tomon hukm yuritish) va hads (analogiya - o‘xshatish).

Yangi aflatuncha yo‘nalishning paydo bo‘lishi

Yangi aflatuncha tamoyillar Kindiy, Roziy, Forobiy va Ibn Sino falsafiy qarashlarida namoyon bo‘lgan. Kindiy tafakkurida ko‘proq Arastu unsurlari ustunlik qilsa, Abu Bakr Zakariyo Roziyda Aflatun qarashlari kuchliroq edi (1- ilova).

Yangi aflatuncha aqidalarning munazzam birinchi sharhi arab tilida eng yirik islom faylasufi va mantiqshunosi Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon Forobiy asarlarida berilgan. O‘rta asrlarda lotin tilida ijod qilganlar Forobiyni Abu Nasr, deb ataganlar.

Abu Nasr Forobiy hijriy 260 (873) yilda Aris daryosi Sirdaryoga quyiladigan joyda Shosh – hozirgi Toshkentdan 250 km shimoliy-g‘arbida joylashgan Forob (O‘ror), degan joyda tug‘ilgan. U Forobda, Shosh, Buxoro va Samarqandda ta‘lim oldi. Bag‘dodda ilmiy izlanishlarini davom ettirib, umrining oxirgi yillarida Halabda, so‘ngra Damashqda yashadi. Manbalar guvohligicha, Forobiy mantiq ilmini xristian dinidagi olim Yuhanno ibn Haylondan o‘rgangan bo‘lsa ham, tez orada o‘z zamonasidagi barcha musulmon olimlaridan bu sohada o‘zib ketgan. Forobiy Bag‘dodda Yuhanno ibn Haylondan tashqari Matto ibn Yunusdan ham ta‘lim olgan va undan barcha ilmlar sohasida o‘zib ketgan. Misrga qilgan safaridan keyin Suriya shimolidagi Halabga qaytgan Forobiy, biroz muddatdan keyin Damashqda 950 yili 80 yoshida vafot etgan.

Bag‘dod o‘sha vaqtda mantiq ilmining markaziga aylangan edi. Birinchi tazkiranavislardan biri bo‘lgan Soed Andaluziy o‘zining “Taboqot ul- umam” asarida Forobiyning Aflatun va Arastu asarlarini mohirona sharh qilganligini qayd etadi¹. Forobiy Aflatunni “mashhur hakim”, “ilohiy Aflatun”, deb atagan.

Forobiy nazaricha, mantiqdan tabiat falsafasiga yetib kelish, mantiqdan axloqqa yetib kelishdek, tabiiydir. U o‘zining “Ixsoye ulum” (“Ilmlarning kelib chiqishi”) asarida barcha ilmlarni quyidagicha sakkiz nom ostida tasnif qiladi: ilmu lug‘at (filologiya), mantiqiyot (logika), riyoziyot

¹ Qarang: .1919. بيروت، – طبعات المم. // صاعد بن صاعد اندلسي. Taboqot ul-umam. –Bayrut. 1912. –B.53. (arab tilida)

(matematika), tabiiyot (tabiatshunoslik), ilohiyot, siyosiyot (siyosatshunoslik), fiqh (islom huquqi) va kalom².

Abu Nasr Forobiyning musiqa nazariyasiga bag'ishlangan quyidagi asarlari mavjud: "Musiqa kitobi", "Ohanglar tasnifi haqida kitob", "Musiqa haqida so'z", "Ohangga qo'shimcha qilingan so'z".

Forobiyning buyuk xizmatlaridan biri hamma zamonlarda, barcha aholi tabaqalari orzu qilgan ideal jamiyat haqidagi o'ylari, u haqida yozgan asarlaridir.

Forobiy bu borada bir necha asarlar muallifidir. Uning "Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob", "Siyosat al-madaniya" ("Shaharlar ustidan siyosat yurgizish") va boshqa asarlari bo'lgan. Bularda Forobiy olijanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida o'z fikr-mulohazalarini bayon qilgan. Ana shu asarning ikki nushasi Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar jamg'armasida saqlanmoqda.

Undan tashqari, shu institut jamg'armasida Forobiyning o'n sakkizta qo'lyozma kitoblari ham saqlanmoqda. Bular orasida "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Masalalar bulog'i", "Jism va aksidensiyalarning boshlanishi", "Aql ma'nolari haqida risola", "Yahyo an-Nahviyning Arastuga bildirilgan raddiyasiga qarshi yozilgan raddiya", "Arastuning "Metafizika" asari maqsadlari haqida" kabi asarlari mavjud.

Forobiy din va falsafa haqida

Forobiy Sharqda birinchi bo'lib Arastu izidan borgan arab faylasufi Abu Yusuf Ishoq al-Kindiy (801-866) qarashlariga qarshi o'laroq, din va falsafani haqiqatga yetishishning ikki mustaqil usuli, deb hisobladi (2- ilova). Ularni bir-biridan ajratib bo'lmasligini ta'kidlab o'tdi. Forobiyning nazarida diniy haqiqatlar falsafiy misollardan iborat edi. Boshqacha ibora bilan aytganda, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jihatlaridir. Falsafa daliliy hukmlarning qoidalariga tayanadi, din esa, o'sha hukmlar va qoidalarning xitobiy shaklidir. Uning bunday qarashidan, falsafa dindan oldin vujudga kelgan degan xulosa kelib chiqadi³.

Din va falsafaning yagona birligi haqidagi uning mulohazalariga qaramasdan, keyinchalik Forobiy falsafani dindan afzalroq va ustunroq qo'yanligiga diqqat-e'tiborni qarata boshladilar. Ammo Forobiy "Din falsafaning misollaridir" degan vaqtda qayd etib o'tgan ediki, payg'ambar xalq tilida so'zlashga majbur, chunki omma daliliy hukmlarni tushunmagan-

B.129-130. ² Qarang: .۱۹۱۹. قاهرة، احصاء العلوم. فارابی، ابو نصر. // Forobiy, Abu Nasr. Ixsoye ulum. –Qohira. 1949. –

// رضا داوری اردکانی. فارابی مؤسس فلسفه اسلامی، پژوهشگاه علوم انسانی و مطالعات فرهنگی. تهران، ۱۱۷۹. ص. ³

.۱۹۹ Qarang: Rizo Dovariy Ardakoni. Forobiy islom falsafasining asoschisi. Ilmiy-tekshirish va madaniy tadqiqotlar muassasasi. –Tehron, hijriy 1377/1998. –B.116. (fors tilida)

ligi sababli daliliy haqiqatlarni xitobiy shaklda bayon etishdan o'zga chora yo'q, aks holda payg'ambar ham faylasufdir, deb hisoblagan⁴.

Forobiyning fikriga ko'ra, avomning diniy qarashlari uning falsafiy xulosalariga doim ham mos tushavermaydi va buning zaruriyati ham yo'q. Shuning uchun u o'z fikrlarini bevosita avomga moslashtirmagan edi. U avom meni tushunadi, deb ham o'ylamagan va, aksincha, bundan xavotir ham olganki, uningcha avomning falsafaga aralashishi, uni buzadi⁵.

Shu jihatdan kelib chiqib, u ko'pgina fikrlarini turli ishoralar bilan majhulroq tarzda yozar, sodda va ochiqchasiga bildirilgan mulohazalarga esa, kamdan-kam hollarda yo'l qo'yar edi. Ayni paytda u o'zining eng sodda fikrlarini ham kelajakda tafsirga sazovor, deb bilishlaridan umidvor bo'lgan. Uning umidvorligi bejiz emas edi. Zero, undan keyingi ma'rifat ahli va faylasuflarning barchasi uning asl maqsadini tushunishga diqqat-e'tibor bilan kirishdilar va allomaning eng sodda gaplarini ham o'zlaricha tafsir qilib, yanada maqbul shaklga keltirdilar. Bunga misol tariqasida shayxur-ra'is Abu Ali ibn Sinoning "Shifo" asaridagi payg'ambarlik haqidagi bahsni ko'rsatish mumkin⁶.

Qadimgi yunon falsafasida dinni chekkaga surib qo'yish hollari bo'lgan edi. O'rta asrlar Ovro'po falsafasi esa, ko'proq, din bilan yaxshi munosabatda bo'ldi va ko'pchilik xristian faylasuflari muqaddas sanalgan ruhoniylar safidan joy olib, cherkovning mashhur arboblari hisoblandilar. Islom olamida esa, faylasuflar bunday shuhrat va obro'ga ega bo'la olmadilar, aksincha, gohida shariat peshvolari tomonidan malomatga qoldilar. Albatta, falsafa Yunonis- tonda yuksak rivoj topgan bo'lib, buni o'rta asrdagi yoki yangi zamon faylasuflari ham inkor etmaydilar. Ammo, har bir davrning falsafasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun islomiy falsafaning xususiyatlarini yunon falsafasi xususiyatlariga tenglashtirish to'g'ri emas, ya'ni islom falsafasi asos va usulini yunon falsafasining asosi va usulidan qidirib bo'lmaydi.

Forobiy falsafasining inkor etib bo'lmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe bo'lgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qo'ydi. Falsafalar o'rtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmay, din bilan falsafani ham ayrim bir qismga joyladi. Uning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din o'rtasida hech qanday tafovut yo'q⁷. Bunday qarash o'z davrida nihoyat darajada muvaffaqiyat qozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi.

⁴ Qarang: O'sha joyda.

⁵ Qarang: O'sha joyda.

⁶ Qarang: Rizo Dovariy Ardakoniy. Forobiy islom falsafasining asoschisi. Ilmiy-tekshirish va madaniy tadqiqotlar muassasasi. –Tehron, hijriy 1377/1998. –B.116. (fors tilida)

⁷ Qarang: O'sha joyda. 133-bet.

Shuning uchun ham, XIV asrda yashagan Ibn Xaldun islomiy faylasuflarni falsafani diniy masalalar bilan aralashtirib yuborishda va Arastu kabi qadimgi faylasuflardan uzoqlashib ketishda aybladi⁸.

Forobiyning borliq haqidagi ta'limoti

Forobiyning fikricha, borliq xudodir va faqat u gina mohiyatlarga vujud bag'ishlaydi. Forobiy falsafa tarixida birinchi bo'lib mavjudotlarni ikki qismga: aqliy vujudga va mohiyatga, mohiyatlarni esa, to'qqiz javhar va oraz (aksidensiya) tushunchasiga taqsim qiladi. Vaholanki, Arastuning o'nta kategoriyasi, vujud ma'quloti bo'lib, mohiyat tushunchasi emas. Binobarin, bunday taqsimlash tarzi ahamiyatsiz va shunchaki bir ish emas. Uni hikmat asoslariga kiritilgan juz'iy o'zgartirishgina deb emas, balki islom falsafasidagi asosiy masalalarga qo'yilgan yechimlar rejasi, deb qabul qilmoq kerak. Shunga asosan endi haqiqat va sababiyat tushunchalari mutlaqo boshqacha ma'no kasb etadi. Forobiy aytganidek, haq xudodir va haqiqatning boshqa ma'nolari uning asarlarida xuddi shu ma'noda qo'llaniladi. Zero, barcha mavjudotlar ilmi ilohiyda mavjud bo'lib, nimaiki ilohiy qazoda bor bo'lgan bo'lsa, qadar darajasiga tushib qolgan, deydi u⁹. Xuddi shuningdek, haqni azaliy, deganda, alloma aynan mana shu ma'noga asosiy e'tiborni qaratadi. Bunga qo'shimcha sifatida yana shuni aytish mumkinki, sababiyat ham uning asarlarida boshqacha ko'rinish va talqinga ega bo'lib, ko'proq faollik ma'nosini kasb etadi. Bu ma'nolarning hech birini yunon faylasuflari asarlaridan topa olmaymiz. Agar diqqat bilan kuzatsak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, islom falsafasida yunon falsafasiga xos bo'lmagan biror yangi masala o'rta qo'yilsa, bu faqat diniy mulohazadan kelib chiqibgina shunday qilingan, deyish mutlaqo noto'g'ridir. Chunki, aksariyat hollarda bunday masalalar yangi usulning zaruriyati tufayligina yangicha tarzda qo'yilgan, xolos. Shuning uchun ham Forobiy ni ma'lum ma'noda islom falsafasining muassisi, ya'ni asoschisi, deb bilmoq kerak.

Forobiy "Al-jamye bayne royi hakimini" "Ikki hakim qarashlari o'rtasidagi jamlanma"¹⁰ kitobining muqaddimasida ushbu mulohazalarini qayd etadi: "Ko'rdimki, zamona ahli olamning ibtidosi va uning paydo bo'lishi, shuningdek, yaratilganlik va azaliylik masalalarida bir-birlari bilan nizo qiladilar, xohladimki, ushbu nizolarni bartaraf qilsam"¹¹.

Forobiy bu nizolarni qanday qilib bartaraf etdi?-degan savol tug'iladi. Haqiqat shundan iboratki, u Aflotun qarashlarini ham, Arastu fikrlarini ham isbot qilib o'tirmadi, balki ularning har ikkisi qarashlarini o'z falsafasi asosida tafsir qildi. Uning bu tafsiri faqat

⁸ Qarang: O'sha joyda. 134-bet.

⁹ Qarang: Rizo Dovariy Ardakoni. Forobiy – muassis falsafaye islomi. 123-124-betlar (fors tilida)

– 1960 (arab tilida) ¹⁰ Qarang: .۱۱۹، بيروت، – الجمع بين الرأي الحكيمين. // Farabi, Abu Nasr. Ikki hakim qarashlari o'rtasidagi jamlanma. Bayrut.

¹¹ Rizo Dovariy Ardakoni. Forobiy – islom falsafasi muassisi. 133-bet (fors tilida)

ilohiy bilim bilangina chegaralanmaydi, balki falsafaning barcha tarkibiy qismlarini ham qamrab oladi.

Forobiy fikricha, nazariy ma’rifat “Birinchii ibtido”ni tushunish asosi bo’lib, unga binoan barcha mavjudotlar, Undan va uning uchun vujudga kelgandirlar”. Forobiy falsafa va hikmatni madaniy jamiyatni boshqarish uchun shart deb bildi va jiddu-jahd bilan moddiy olamdan chiqib, yuqori darajadagi olamga qadam qo’yish, deb tavsifladi.

Forobiy fikricha, nazariy hikmat, ya’ni xudovandni tanish ilmi uzoqdagi sabab bo’lsa, ilmning o’z zoti, ya’ni borliq dunyodagi voqealarning sabab va oqibat aloqalarini bilish yaqindagi sabablardandir. Uning yozishicha, “hikmat afzal mavjudotlar haqidagi afzal ilmdir”¹².

Forobiy aqidasi ko’ra, moddadan uzoqlashish Plotin uslubidagi ruhning badandan uzoqlashishi ma’nosida emas, balki jismoniy zaruriyat va moddiyotdan aqliy amallar sari izlanish natijasida borliqning eng oliy mavzusi bo’lgan birinchi sababga aqlan yaqinlashishdir. Moddadan poklanish tushunchasi Forobiy falsafasida shunday ma’noga egadirki, unda inson o’z zehni shunday sayqallashtirishi kerakki, bundan keyin uni hech qanday moddiy narsa o’ziga jalb qila olmasligi lozim va uning barcha zarracha va qismlari yuqoridagi olam tomon to’planib, doiraviy shakldagi harakat bilan bir-biridan ajraluvchi mavjudotlarni bosib o’tib, qudratli vujud nuqtasi bo’lgan birinchi sabab tomon yuzlanishi zarur.

Forobiy “aql bilquvva” va faol aqlni moddadan holi ravishda idrok etmagan. U moddaning foniy bo’lishi bilan yo’qoladi, -deb hisoblaydi. Faqat foydalanilgan aqlgina tushunchalarni faol aqlning fayzi tufayli bevosita va moddadan beniyoz holda qo’lga kiritib, uni idrok eta oladi. Bu shuning uchun ham yuz beradiki, uning taalluqli joyi moddadan holi bo’lgan mavjudlik bo’lganligidan faol aql bilan birlashgandan so’ng faqat shu aqlgina yashab qolib, qiyomat kunining lazzat yoki alam, mukofot yoki uqubatlarning mazasini totib ko’radi. Bunday nuqtai nazarni ta’kidlash, shuni isbotlaydiki, Forobiy Aflotunga qarshi o’laroq, hech bir nafsoniy qusurlarni, jumladan, shahvoniy, g’azabli fe’l va xatti-harakatlarni, hatto hasad, berahmlilik, baxillik va karomatli ishqni ham yaxshi ham, yomon ham hisoblamaydi. Uning fikricha, bu aytilganlarni baxt-saodat yoki badbaxtlikdagi o’rni va maqomiga qarab, xayr (yaxshilik) yoki sharr (yomonlik) holatiga aylantirish mumkin¹³.

Forobiyning bilish nazariyasi

Forobiy fikricha, bilishning quroli: nutq, tasavvur va hisdan iborat. Narsalar to’g’risidagi bilim nutq quvvati orqali, tasavvur va his-tuyg’u vositasida hosil bo’ladi. Har vaqt bilim hosil qilishga iroda ko’rsatilsa, uning idroki nutq quvvatining sha’nidir. Nutq vositasida kelib chiqqan ilm o’z e’tibori bilan his-tuyg’u uyg’otuvchi ishlarni bayon etadi. Demak, ilm

1- –B.188. (fors tilida) ¹² Qarang: .۷۱۱۹، تهران، – تمدن اسالمی. // Zabihullo Safo. Islom madaniyatida aqliy ilmlar tarixi. –Tehron, 1923, jild,

¹³ Qarang: Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. –T.: Yozuvchi. 2002, –B.39.

hissiy quvvat natijasida kelib chiqadi (3-ilova). Ilm mavzusining tasavvurga taalluqligi, tasavvur esa, o'z navbatida orzu tug'dirishi va his-tuyg'uga boshqacha tasavvurlarning kirib kelishi nutq quvvatining hosilalaridir. Shunga binoan tasavvuriy ma'rifatning mavzusi eng yuqori zotlarning vujud bosqichlaridan tortib to mavjud bo'lmagan yolg'on narsalarni ham o'z ichiga oladi. Ikkinchi tomondan avvaldan vujudga kelgan narsalar ikki xil:

- 1) his-tuyg'u bilan bilinadigan narsalar;
- 2) isbot va dalil orqali bilinadigan narsalar¹⁴.

Tasavvuriy ma'rifat borliqdagi barcha mavjudotlarga taalluqli bo'lganligidan tasavvur orqali hosil qilingan ilm ham xuddi dalil va isbot vositasida hosil qilingan mavjudotlar kabi bilib olinishi, ya'ni his-tuyg'u uyg'otadigan bilimlarni ham tasavvuriy ma'rifat jumlasidan, deb hisoblash mumkin.

Tasavvuriy quvvat nutq quvvatining "o'rinbosaridir". Aql va tasavvur faol aql fayzi vositasida shahar raisiga sof va xolis, shu bilan birga ajoyib ma'rifat majmuasini taqdim etadiki, u bu orqali osmoniy belgilarni ko'radi va tushuna oladi. Natijada Fozil shahar raisi bu ko'rganlarini yerga tushirib, shahar hayotiga tadbiiq etishga kirishadi¹⁵.

Nazariy aql shunday kuchki, unga qiyos ham, isyon ham va xato ham aralasha olmaydi. U insonga va uning to'la faoliyatiga xos bo'lgan narsa bo'lib, ruhning badandan ajralgandagi shunday holatidirki, ruh o'zining yashashi, tayanishi va faoliyati uchun moddaga boshqa muhtoj bo'lmay qoladi. Shuningdek, u his-tuyg'u va tasavvurdan ham beniyoz bo'lib, ularsiz ham "birinchi ibtido"ning zotini tushunishga erishadi. YA'ni, fozil shaharning birinchi raisi qiyos, misol va o'zining jismoniy kuchining aralashisiz ham, xudovandu taborak va taoloni xolis ravishda tasavvur va "mushohada" qila olishi mumkin.

Forobiy jamiyat va axloq haqida

Abu Nasr Forobiyning axloq nazariyasiga qadimgi yunon mutafakkirlari sezilarli ta'sir o'tkazganlar. Forobiy yunon mutafakkirlarining jamiyat va ijtimoiy axloq to'g'risidagi ta'limotlarini islomiy nuqtai nazardan qayta ishlagan.

Forobiy fikricha, inson olti bosqichda yaratilgan vujudlarning eng pastki bosqichida bo'lsa ham, tug'ma qobiliyati va quvvati bilan faol aql yordamida o'zini baland martabali mumtoz vujudga aylantira oladi. U mavjudotlar silsilasi bosqichlaridagi shunday yagona bir jinsdirki, uni o'z kuchiga ko'ra, harakatdagi borliq deyish mumkin. Baxt-saodat bunday yuksak "ko'tarilish", ya'ni mumtozlik tarkibiga kirmaydi. Baxt-saodat

¹⁴ Qarang: Rizo Dovariy Ardakoniy. Forobiy – islom falsafasi muassisi. –B.117.

¹⁵ Qarang: Forobiy. Fazilat. Baxt-saodat va kamolot. –T.: Yozuvchi. 2002. –B.25-26.

tushunchasi “faol aqlga eng yaqin turgan narsadir”¹⁶, va uning ma’no-mohiyati faol aql bilan qo‘shiluvda yashiringandir¹⁷.

Shunday qilib, fazilat va baxt-saodat o‘rtasidagi sabab va oqibat nisbati dalilidan Forobiy shunday natija chiqaradiki, baxt-saodat fazilatga tashqaridan yopishtirilgan yoki yuklangan amal bo‘lmasdan, balki uning o‘z jinsidan va zotning umumiyligidan chiqqan sifatiy holatdir.

Forobiy inson mohiyatini tarbiyalashni uzoq muddat davom etadigan yaxshi amal, deb bildi. Uning fikricha, har qanday yaxshi axloq, agar zehnda takroran joylana bersa, uning natijasida inson ongining quvvati va fazilati orta boradi.

Madaniy jamiyatning sifati mohiyatan iroda va ixtiyorda bo‘lganligidan jamiyat boshlig‘ining vazifasi ushbu irodani xayr (yaxshilik) tomon yo‘nal- tirishdir.

Forobiy fikricha, siyosat tabobat sifatidagi narsa bo‘lib, jarrohlik yo‘li bilan bo‘lsa ham davolanishi zarur bo‘lgan fuqarolarning dardiga malham qo‘yishdir. Tabibning maqsadi bemorning dardini davolash bo‘lganidek, fozil siyosatning ham oxirgi maqsadi jarohatlarga malham qo‘yish, singan suyaklarni payvandlash singari aholining farovonligini ko‘tarish orqali uning ruhini va salomatligini yaxshilashdir.

Forobiy axloqiy fazilatlarni ruh uchun badan salomatligidek narsa, deb tushungan. Demak, sihat-salomatlikni tiklash uchun inson tabibga ehtiyoj sezganidek, bemor insonning ruhi uchun ham tabib zarurdirki, uni holatini davolay olsin. Shundan kelib chiqadiki, qonuniy hukumat raisining bo‘lishi jamiyat uchun isbot qilingan zaruriyatdir.

Forobiyning fozil shahar to‘g‘risidagi o‘z nazariyasini taklif qilishdan maqsadi, barcha insonlarga baxt-saodat va kamolotga erishish yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iborat edi.

Ibn Sinoning hayot yo‘li

(980-1037)

Agar Forobiy islomiy yangi aflatunchilik falsafasining asoschisi va uning G‘arbdagi oxirgi namoyandasi Proklidan keyingi eng buyuk faylasuf bo‘lsa, bu falsafani ham Sharqda, ham G‘arbda himoya qilgan shaxs Abu Ali Husayn ibn Sinodir. XIII asrda lotin tilida qalam tebratgan mualliflar uni Avitsenna, deb atashgan. U islomda yangi aflatuncha falsafani yuqori darajaga ko‘targan edi. XII va XIII asrning mashhur olimlaridan bo‘lgan “Millal va nihal” (“Millatlar va mazhablar”) muallifi Shahrisoniy (vaf. 1153 y.), mutakallim Faxriddin Roziy (vaf. 1209 y.) va Nasriddin Tusiy (vaf. 1273 y.)lar Ibn Sino asarlariga sharh va tafsirlar yozishgan.

Ibn Sino islomiy falsafa madaniyatini boyitib ham arab, ham fors tillarida asarlar yozgan. Uning “Donishnoma”si fors tilida yozilgan birinchi mashhur falsafiy asardir.

¹⁶ Qarang: Forobiy. Risolat fi al-aql (“Aql haqida risola”), –Bayrut, 1939. –B.31. (arab tilida)

¹⁷ Qarang: Forobiy. Falsafatu Aristotelis va ajzoi falsafata va marotib ajzoiho (“Arastu falsafasi va falsafaning qism va bosqichlari”). Muxsin Mahdi tahriri ostida “Matnlar silsilasi”. –Bayrut, 1-jild, 1961. –B.128. (arab tilida).

Ibn Sinoning eng katta falsafiy asari “Kitob ash-shifo” bo‘lib, islomiy va yunoniy ilmlardan tortib, mantiq va riyoziyotni ham o‘z ichiga olgan. Uning boshqa yirik asari “Kitob al-ishorat va tanbihot” talabalar orasida “Kitob ash-shifo” dan ko‘ra, katta e‘tiborga sazovor bo‘lgan edi. Ushbu kitob uning umrining oxirlarida yozilganligi tufayli, mustaqil fikrlar bayonidir.

Ibn Sino tafakkuri shakllanishida ikki omil muhim o‘rin tutgan: birinchisi “Ixtvon as-safo” falsafiy anjumanining risolalari, ikkinchisi Abu Nasr Forobiy asarlari. XII asr tarixchisi Bayhaqiyning yozishicha, Ibn Sino otasi kabi “Ixtvon as-safo” risolalarini qayta-qayta o‘qir edi¹⁸. U bir necha irfoniy risolalar yozib, ularni “Sharq falsafasi” yoki “ishroq” deb atagan.

Ibn Sino Forobiy kabi Arastu-Ptolemey dunyoqarashlariga asoslangan yangi afлотuncha qarashlar tizimini vujudga keltirgan. U dunyoning ilohiy sudur bosqichlaridan kelib chiqqanligini isbotlashga urinadi. Ibn Sino o‘zining “Kitob ash-shifo” asarini mantiq ilmning qisqacha bayonidan boshlab, unga Arastu, yangi afлотuncha va ravoqiylar qarashlarini qo‘shgan.

Ibn Sinoning harakat, sokinlik, zamon, makon, bo‘shliq, cheksiz va cheklanganlik haqidagi fikrlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Ibn Sino “ilohiy ilm”ni “birinchi falsafa” yoki “hikmati mutlaqa”, deb ataydi. Ibn Sinoning xudovand va uning haqidagi, ilm to‘g‘risidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Uning fikricha, vujud haqidagi tushunchani faqat aqlgina bila oladi.

Ibn Sino 980 yili Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tavallud topdi. Otasi Balxdan, Sitora ismli onasi Buxorodan edi. Ibn Sino yoshligidan uyda har xil ustozlardan ta‘lim oldi, maktabda o‘qidi. U o‘z davri ilmlari – matematika, mantiq, astronomiya, fiqh, fizika, falsafa asoslari va xususan tibbiyot ilmi bilan jiddiy shug‘ullandi. 999 yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan bosib olindi.

Ibn Sino 1002 yili Xorazm saroyiga keladi. U yerda o‘z davrining yetuk olimlari Abu Rayhon Beruniy va Hammor kabilar bilan muloqotda bo‘ladi. Mahmud G‘aznaviy Xorazmga yaqinlashgach, Ibn Sino undan qochib, Eronning turli shaharlari – Nishopur, Rey, Jurjon, Isfaxon o‘rtasida sarson bo‘lib yurishga majbur bo‘ladi. Umrining so‘nggi yillarida Hamadonda saroy tabibi va vazirlik lavozimlarida xizmat qiladi va shu yerda 1037 yil 18 iyunda 57 yoshida vafot etadi.

Ibn Sino asarlaridan 190 ga yaqini falsafa, mantiq, psixologiya, axloqshunoslik va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan. Bizgacha uning asarlaridan faqat yuztasi yetib kelgan.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uch katta bo‘limdan tashkil topgan – metafizika, fizika, logika-mantiqda o‘z aksini topgan bo‘lib, metafizika – ilohiyot, vujud va mavjudot, dunyoning boshlanishi, tuzilishi, tarkibi

40- (arab tilida) ¹⁸ Qarang: ابو الحسن، منتخب سوال الحکمة، نسخة خطی بودلیان. // Bayhaqiy, Abul Hasan. Suvonul hikma. sahifa.

haqidagi masalalarni talqin etadi; fizika-tabiathunoslik masalalari, jism, moddani o'rganish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga oladi; mantiq to'g'ri fikrlash san'ati, aqliy bilish shakllarini o'rganadi.

Borliq haqidagi qarashlari va fanlar tasnifi

Vujud, mavjudot tarkibi, ilmlar tasnifi Ibn Sinoning borliq, mavjudot haqidagi ontologik ta'limotini Forobiy ta'limotining davomi, rivoji deb ta'riflash mumkin.

Ibn Sino vujudni ikkiga: zaruriy vujud-vojib ul-vujud va mumkin ul- vujud – vujudi mumkinga ajratadi. Zaruriy vujud hamma mavjud narsalarning boshlang'ichi – birinchi sababi – ya'ni Allohdir, undan kelib chiquvchi boshqa borliq narsalar vujudi mumkindir¹⁹.

Birinchi yagona vujuddan kelib chiquvchi vujudlar, mavjud borliqning turli tuman shakllari, boshlang'ich yagona vujudning ifodalanishidir. Asta- sekin kelib chiquvchi borliq shakllari, ya'ni so'nggi vujudlar sabab-oqibat munosabati shaklida o'zaro bog'liqdir. Birinchi vujudning xislatlari undan kelib chiquvchi barcha vujudlarga o'tib boradi. Vujud haqidagi fikrlar, mavjudot shakllarining o'zaro bog'lanishi, emanatsiya Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining metafizika bo'limida har tomonlama bayon etilgan.

Ibn Sino vujudi mumkinni javhar (substansiya) va oraz (aksidensiya)ga ajratadi. Javhar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, u sodda va murakkabdir. Sodda javhar boshlang'ich unsurlar – olov, havo, suv, yerdan iborat, shuningdek, modda va shaklning birligidan tashkil topib tabiat, o'simlik, hayvonot, inson shaklida mavjuddir²⁰.

Falsafa fanini Ibn Sino ikki katta bo'limga ajratadi:

1) Nazariy falsafa – metafizika (oliy fan), matematika (o'rta fan) hamda tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik (pastki fan)dan iboratdir.

2) Amaliy falsafa – siyosat, huquq, uy ishlarini o'rganish – iqtisod va axloqshunoslik, ya'ni etikadan tashkil topadi (1-ilova).

Ibn Sinoning ilmlar tasnifi, ta'rifi va tarkibi haqidagi fikrlari o'rta asrda falsafaning rivoji, uning tabiatshunoslik va boshqa ilmlar bilan uzviy aloqasini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Bilish nazariyasi va mantig'i

Ibn Sinoning bilish nazariyasi (gnoseologiya) haqidagi ta'limoti xususan hissiy bilish, sezgilar, sezgi organlari haqidagi fikrlari uning “Tib qonunlari” asarida inson fiziologiyasi va psixologiyasi asosida talqin etiladi. Ibn Sino sezgini tashqi va ichki sezgilarga ajratadi. Tashqi sezgi insonni tashqi olam bilan bog'laydi, ular beshta – ko'rish,

¹⁹ Qarang: M. M. Xayrullayev. Abu Ali ibn Sinoning ilmiy-falsafiy va ijtimoiy qarashlari. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. –T.: O'zbekiston, 1995. –B.63.

²⁰ Qarang: Materiali po istorii progressivnoy obshestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane. –T., 1976. –S.351.

eshitish, ta'm-maza bilish; hid va teri sezgisi. Bular insonning ma'lum organlari – teri, ko'z, og'iz, burun, quloq bilan uzviy bog'liq.

Ichki sezgilar – bu umumiy, chunonchi, tahlil etuvchi, ifodalovchi, eslab qoluvchi (xotira), tasavvur etuvchi sezgilardir. Bu ichki sezgilar tashqi sezgilar asosida shakllanib, tashqaridan olingan ayrim sezgilarni umumlashtirish, uni qabul etish, xotirada saqlash va so'ng tasavvur etish uchun xizmat qiladilar.

Tibbiyotni chuqur o'rganish asosida Ibn Sino miyani barcha sezgilardan boruvchi nervlar markazi, umuman inson nerv sistemasining markazi ekanligi haqidagi ta'limotni olg'a suradi²¹.

Mavjudotning mohiyatini bilish inson joni, tafakkurining dunyoviy aql bilan qo'shilishi asosida vujudga keladi, ya'ni dunyoviy aql inson aqlining faolligini bilishdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi.

Inson bilimlarining hammasi ham tashqi sezgilar yordamida qo'lga kiritilmaydi, boshlang'ich sezgi orqali bilib bo'lmaydigan aksiomalar, aqidalarni inson tafakkuri dunyoviy aqldan oladi. YA'ni dunyoviy aql inson aqlining to'la va barkamol bo'lishi uchun imkon yaratadi. Dunyoviy aql insonda aqliy kuch yoki muhokama, mulohaza quvvatlarining shakllanishida ishtirok etadi. Bu quvvat esa, insonga xos bo'lgan mantiqiy tafakkur vujudga kelishida hal qiluvchi maqomga ega bo'ladi.

Ibn Sinoning mantiq sohasidagi ta'limoti uning qator asarlarida "Kitob ash-shifo", "Kitob an-najot", "Kitob ishorat va tanbihot", "Donishnoma" kabilarda keng bayon etilgan.

O'z davrining eng yirik falsafiy qomusi bo'lgan arab tilidagi "Kitob ash-shifo"ning boshlang'ich 9 kitobi to'laligicha mantiq ilmi masalalariga bag'ishlangan. Ibn Sinoning "Donishnoma"asarida mantiq ilmining asosiy tuzilishi, qismlari, tafakkurning shakllari, usullari, qoidalari, mantiqiy xatolarning ifodalanishi kabilarda tasvirlab berilgan.

Mantiq ilmi Ibn Sino talqinida 9 qismdan tashkil topadi:

1) Al-madhal – mantiqqa kirish, uning asosiy vazifalari, bilishda tutgan o'rni, qismlari kabi masalalarni o'z ichiga oladi;

2) Al-ma'qulot – bu tafakkurning boshlang'ich asosiy tushunchalari, ularning nutq orqali ifodalanishi kabi masalalar.

3) Al-ibora – hukm, uning turlari, ifodalanishi kabilarda.

4) Al-qiyos – deduktiv, sillogistik xulosa chiqarish, uning shakllari, qoidalari kabi masalalar;

5) Al-burhon – isbotlash, uning mohiyati, vazifasi, turlari, qoidalari va boshqa masalalar;

6) Al-jadal – dialektik hukmlar nomini olgan murakkab hukmlar, shartli bo'linuvchi savol-javob hukmlari kabilarda;

7) As-safsata – noto'g'ri hukmlar, boshqalarni aldash, yolg'onni isbotlashga qaratilgan sofizm, paralogizmlar haqida;

²¹ Qarang: Materiali po istorii progressivnoy obshestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane (O'zbekistonda ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan materiallar), –B.351.

8) Al-xitoba – ritorika, notiqlik san’ati qoidalari, uning tarkibiy qismlari kabi masalalar;

9) Ash-she’r – she’riy hukmlar. She’r yozish san’ati, uning vazifalari va boshqalar (2-ilova).

Ibn Sino uchun mantiq:

- to’g’ri fikr yuritishning, xatolardan saqlanishning qoidasini o’rgatadi;
- ma’lum bilimlardan noma’lum bilimlarga o’tish yo’lini ko’rsatadi;
- mantiqning fikrlashga munosabati grammatikaning nutqqa, she’r nazariyasining she’riyatga bo’lgan munosabatiga o’xshashdir, amaliy tafakkur har doim mantiqqa muhtoj, chunki mantiq yordamida u mukammallashadi, yetuklikka erishadi.

Mantiq ilm-fan bilan shug’ullanuvchi har qanday inson uchun eng zaruriy ilmlardan hisoblanadi va uni o’rganish haqiqatni to’g’ri bilish va aniqlashning muhim vositasi, qurolidir.

Ibn Sino mantiq fanining vazifalari, tafakkurda tutgan o’rni va ahamiyati, tafakkur bilan til, mantiq bilan grammatika munosabatlari, tafakkurning to’g’riligini belgilovchi barcha qoidalar va ularning tuzilishi, xatolarning turlari, fikrda insonni ataylab adashtirish va aldashning shakllari haqida keng va izchil ma’lumotlar beradi.

Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari

Ibn Sino o’zining “Ishorat va tanbihot” asarida shunday ta’kidlaydi: “Inson o’z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo’libgina, ularni qondira olishi mumkin”²². Buning uchun barcha jamoa a’zolarini birlashtirib turuvchi huquqiy qonunlar zarur bo’ladi. Jamoaning barcha a’zolari foydali mehnat bilan shug’ullanmoqlari zarur. U insonlarning jamiyatdagi o’rni va vazifalariga qarab 3 guruhga ajratadi:

a) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug’ullanuvchilar;

b) bevosita xom ashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg’ul bo’lganlar;

v) davlatni qo’riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta’minlovchi harbiylar.

Jamiyatning bu guruhlari o’zaro bir-birlariga bog’liq va har doim muloqotda bo’ladilar, bir-birlarisiz yashay olmaydilar.

Ibn Sino o’zining “Rislatu tadbiri manzil” asarida shunday yozadi: “Odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o’zaro farqlari, inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sababidir”²³.

– (arab tilida) ²² . ۱۱-۱۹۱۹. قاهرة، – التنبيهات و الشارات و السينات. // Ibn Sino. Al-ishorat va-l tanbihot. –Qohira. 1957-1960. B.54.

²³ Qarang: B. E. Raxovskiy. Filosofskoye naslediyе Ibn Sini (Ibn Sinoning falsafiy merosi). //Voprosi filosofii. – №5. –M., 1955.

Ibn Sino yana boshqa bir asarida shunday yozadi: “O‘zaro bog‘liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan xoli etadilar. Buning uchun insonlar o‘rtasida o‘zaro kelishuv zarur bo‘lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o‘rnatiladi. Qonunshunos esa, bu qoidalarga bajarilishi shart bo‘lgan majburiyat tusini beradi. Shuningdek, u yomon ishlarni qiluvchilarni ham, yaxshi ishlarni ro‘yobga chiqaruvchilarga ham baho berishi zarur. Buning uchun oliy qonunshunos va qozini tan olish zarurki, insonlar o‘z faoliyatlarida ularning hukmlaridan foydalansinlar”²⁴.

Demak, har qanday jamiyat, davlat ma‘lum adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida idora etilishi, adolatsizlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak. Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari shakllanishida islomdagi demokratik oqimlar o‘z ta‘sirini o‘tqazgan.

Ibn Sino ilohiyoti

Nazariy va amaliy jihatdan Ibn Sinoning eng mashhur asari “Kitob ash- shifo” bo‘lib, lotin sxolastikasining ulamolari uning ba‘zi qismlarinigina tushunib yetdilar. Bu asar uch katta qismdan, ya‘ni mantiq, tibbiyot va ilohiyotdan iborat edi. Ibn Sinoning maqsadi hammaga manzur bo‘ladigan “Mashriq hikmati”ni yaratish edi. Barcha nazariyalarning asosida ilm yotadi. Tashqi ko‘rinishdan umumiy nazariya aqldan kelib chiqadi. Aql esa, ilohiy olamdan, farishta vositasida yetkaziladi. Bu dalilga ko‘ra, farishtani bilish jahonni bilish asosi hamda undagi inson o‘rnini belgilash ham ilm vazifasiga kiradi.

Xuddi Forobiy falsafasida bo‘lganidek, borliq aql tafakkuridan kelib chiqqani kabi, dunyoni bilish hodisalarni mushohada etish va vijdoniy malaka hosil qilish turiga aylanadi. Birinchi aql o‘z mabdosiga (kelib chiqish) diqqat-e‘tibor berib, unda fikran to‘xtaydi va birinchi aql aql vujudini zaruriyatga aylantiradi. Shuningdek, birinchi aql o‘z vujudining sarf bo‘lish imkoniga diqqat-e‘tibor berib, shunday xulosaga keladiki, uning gumonicha, u o‘z mabdosidan tashqariga chiqib ketgan. Birinchi fikriy to‘xtashdan ikkinchi aql, ikkinchi fikriy to‘xtashdan birinchi falak (falakul aflok)ning harakatidagi ruhi, uchinchi fikriy to‘xtashdan tanlangan jism va bu birinchi falakdan yuqori turuvchi unsur va shu tartibda birinchi aqldan pastda turuvchi (zulmat va yo‘qlik) kelib chiqadi²⁵. Borliqni barpo qiluvchi bu uch fikriy to‘xtash boshqa aqllarda ham takror bo‘laveradiki, natijada ikki bosqichdan iborat tartibda takomillashib boradi. Diniy aqllar va samoviy ruhlar silsilasi jismiy quvvatga ega emaslar, ammo sof xalloqona kuchga egadirlar, ya‘ni ular his-tuyg‘udan mahrum bo‘lib, ularning shavqu- zavqi o‘zlari kelib chiqqan aqlga ergashadilar. Aql falaklarning har birida ularga xos bo‘lgan harakatni keltirib chiqaradi. Shunga ko‘ra, har bir

²⁴ O‘sha joyda.

²⁵ Qarang: Mojed Faxriy. Sayre falsafa dar jahoni islom. –B.174.

harakatning kelib chiqishiga sabab bo'lgan koinotdagi inqiloblar shavqu zavqning oqibati bo'lib, hech qachon yo'q bo'lmaydilar.

Kuchga ega bo'lmagan o'ninchi aql o'z navbatida yagona aql va yagona ruhni ijod qiladi. Aytish mumkinki, o'ninchi aql bilan birgalikda kelib chiqadigan insoniy ruh "surat", ko'p narsaga bo'linish imkoniyatiga ega bo'lgan holda paydo bo'ladi. Vaholanki, uning zulmatli tuzilishidan oy ostidagi modda vujudga keladi. Ana shu o'ninchi aqlni faol aql, deb ataydilar. Bu aqldan bizning ruhimiz kelib chiqqan bo'lib, uning yog'dusi ilmiy siymoda unga qaytib kelishi mumkin bo'lgan ruhni topadiki, u unga qo'shimcha bo'ladi. Insoniy aql ma'qulni his etiladigan narsadan ajrata olish vazifasiga ega emas. Har ilm va aytilgan gap, sodir bo'lgan narsa va yog'du farishtadandir. Shuning uchun, insoniy aql kuch-quvvat jihatdan o'zida farishta tabiatiga egadir. Ikki tomonlama vaziyat, ya'ni amaliy va nazariy aql vositasida ikki hil "surat"ga ega bo'lgan insoniy aql "yerdagi farishtalar", deb ataladi²⁶. Ruhlar taqdirining siri bundan boshqa narsa emas. Nazariy aql to'rt taraflama holat vositasida farishta aqli bilan yoki faol aql bilan qo'shiladiki, uni muqaddas aql, deb ataydilar. Muqaddas aql o'zining eng oliy bosqichida o'sha mumtoz payg'ambarlik aqlidir.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, faol aql masalasida avvaldanoq Arastu sharhchilari orasida ixtilof chiqqan edi. Ibn Sino Abu Nasr Forobiyga ergashib, Timey va Akvinalik Tomasga qarshi o'laroq, insoniy aqldan tashqarida bo'lgan ajratuvchi aqlni qabul qiladi. Ammo uni xudo tushunchasi bilan birdek hisoblamaydi.

Abu Abdulloh Xorazmiyning hayoti va faoliyati

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf Xorazmiy ijodi kam o'rganilgan mutafakkirdir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o'tgan. U Xuroson shaharlarida ham ta'lim olgan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan al-Utbiy huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan davrida cho'qqisiga chiqqan. Shu vazifasi tufayli u "al-kitob al-Xorazmiy" nomi bilan tanilgan²⁷. Abu Abdulloh o'z xizmat vazifasi yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turgan va u yerdagi ko'pgina olimlar bilan hamsuhbat bo'lgan. Ilmga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997 yilda vafot etgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan mantiqiy tafakkur namoyandalari Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Bakr ar-Roziy ta'siri ostida shakllangan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha faqat yagona asari – "Mafotih al-ulum" ("Ilmlar kalitlari") yetib kelgan. "Mafotih al-ulum"ning qo'lyozma nushalari chet ellardadir. Yaqin-yaqingacha uning to'rt nushasi bor, deb hisoblanar edi. Ana shu to'rt nushadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida 7528, 23429 va 2524 raqamlari, hamda Berlin kutubxonasida 1051 raqami

²⁶ O'sha joyda. –B. 174-175.

²⁷ Qarang: O.M.Bahodirov. Abu Abdulloh al-Xorazmiy. Ma'naviyat yulduzlari. –B.82.

ostida saqlanadi. Amerikalik olim K. Bosvort XX asrning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nusahasini Turkiya kutubxonasida borligini aniqlagan. Barcha olti nusha Istanbul shahridagi kutubxonalardadir.

“Mafotih ul-ulum” asarining o‘rganilishi

“Mafotih al-ulum”ni birinchi bo‘lib o‘rgangan va 1895 yilda nashr etgan olim – gollandiyalik sharqshunos Van Flotendir. Shuningdek, I.Y.Krachkovskiy, V.V.Bartold, K.Brokelman, E.Videman, D.Sarton, M.M.Xayrullayev, U.Karimov, G.P.Matviyevskaya, H.Hasanov, M.Ziyovuddinova²⁸, A.Sharipovlar ham asrning turli tomonlarini tadqiq etganlar. “Mafotih al-ulum” o‘ziga xos qomusiy asar bo‘lib, o‘sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Olim barcha fanlarni ikkiga – “arab ilmlari” va “arab bo‘lmagan ilmlar”ga ajratadi (1-ilova).

Uning birinchi an‘anaviy “arab ilmlari” qismi o‘n bir bobdan iborat fiqh, yetti bobdan iborat kalom, o‘n ikki bobdan iborat grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yuritish, besh bobdan iborat she‘r va aruz hamda to‘qqiz bobdan iborat tarixdan tashkil topgan.

Ikkinchi qismiga esa, “arab bo‘lmagan” quyidagi ilmlar kiritilgan:

Ular – uch bobdan iborat falsafa, to‘qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tibb, besh bobdan iborat arifmetika, to‘rt bobdan iborat handasa, shuningdek, to‘rt bobdan iborat ilm an-nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyo.

Shunday qilib, asar ikki qismdan iborat bo‘lib, unda o‘n besh ilm (predmet) to‘qson uch bobda bayon etilgan.

Abu Abdulloh Xorazmiy fanlar tasnifi haqida

Abu Abdulloh al-Xorazmiy ilmlar tasnifining shakli quyidagicha:

I. Shariat va u bilan bog‘liq “arab” ilmlari.

1. Fiqh, ya‘ni musulmon huquqshunosligi.
2. Kalom, ya‘ni dinning mantiqiy asoslari.
3. Grammatika.
4. Ish yuritish.
5. She‘riyat va aruz.
6. Tarix.

II. “Arab bo‘lmagan” ilmlar (yunon va boshqa xalqlar)

1. Nazariy falsafa:
 - a) quyi ilmlar hisoblangan tabiatshunoslik – tibbiyot (tibb), samoviy hodisalar – meteorologiya, mineralogiya, alkimyo, mexanika;
 - b) o‘rta ilmlar hisoblangan riyoziyot (grammatika, handasa, ilm an-nujum, musiqa);
 - v) oliy ilm hisoblangan ilohiyot, ya‘ni metafizika; g) mantiq.

²⁸ Qarang: M.Ziyovuddinova. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika. –T., 2001.

2. Amaliy falsafa:

- a) axloq – etika (ta’lim-tarbiya, odamni boshqarish); b) manzil tadbirlari (uy xo’jaligini boshqarish);
- v) siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish) (2-ilova).

An’anaviy arab ilmlari. Shu ilmlardan biri, fiqhda muallif islom huquqshunosligining asosi bo’lgan va islom huquqi posbonining doimiy dasturi Qur’on, payg’ambar so’zlari, hikmatli gaplari va hayotlarini eks ettiruvchi sunnat, hadis va uning xillari; ijmo’ – islom jamoasining yakdillik bilan qabul qilgan qarori, shariat qonun-qoidalariga amal qilishni, ya’ni tahorat qilish, namoz o’qish, azon aytish, ro’za tutish, zakot to’lash ustida to’xtab o’tgan.

Ikkinchi bo’lim kalomda mazhablarning yettiga bo’lib bayon etilishi, ayniqsa, mu’taziliylar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga ega. Unda islomgacha bo’lgan davrdagi Eron va Yamandagi diniy e’tiqodlar, Hindistonda tarqalgan ba’zi dualistik oqimlar hamda zardushtiylik bayon etilgan. Bu ma’lumotlar Yaqin va O’rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi xalqlarning dinlari tarixini o’rganishda g’oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Ish yurgizish bo’limi davlat devoni, soliq turlari va olinishi, soliq yig’uvchilarning vazifalari, askarlar ro’yxati, ularning kiyim-kechagi va to’lanadigan maoshlari, kanal xillari, suv uskunalari, ikki daryo (Sirdaryo va Amudaryo) oralig’idagi sug’orish tizimlari haqidagi ma’lumotlarni yoritib berganligi bilan muhim edi.

Asarning tarix bo’limida afsonaviy podshohlardan boshlab, tartib bilan turli davr va mamlakat hukmronlari; Ummaviylar va Abbosiylar xalifaligi, islomgacha bo’lgan davrdagi Yaman tarixi, Rum va Yunon tarixi haqida mufassal ma’lumotlar keltirilgan.

“Arab bo’lmagan” ilmlar qatorida birinchi bo’lib falsafa qayd etilib, unda ushbu ilm atamalarining sharhi bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi yoritilgan.

Arastuning mantiqqa oid kitoblari sharhi Xorazmiy asarining mantiq bo’limida o’z aksini topgan. Unda muallif Yaqin va O’rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi ushbu ilm haqidagi ma’lumotlar, oldinga surilgan ajoyib g’oyalardan foydalanib, ularni yanada boyitgan.

Asarning tabiiy ilmlarga oid bo’limlari o’rta asr Sharqida ilmiy yuksalish darajasini o’rganish nuqtai nazaridan nihoyatda ma’lumotlarga boydir. Tibga oid bo’limda kasalliklar, sodda va murakkab dorilar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu bo’limda o’sha davr tabobatida ma’lum bo’lgan va keng tarqalgan mijoz hamda qon tomiri urishiga qarab kasallikni aniqlash to’g’risidagi nozik tavsiflar berilgan.

Riyoziyot bo’limida o’rta asr Sharqidagi matematik ilmlar holati bayon etilgan. Al-Xorazmiy matematik tushunchani aqlning ixtiyoriy ijodi emas, balki obyektiv olamning ma’lum tomonlarini, ashyolar o’rtasidagi munosabatlarning in’ikosi, deb talqin etgan.

Astronomiya bo’limida uning vazifasi bilan birga tarixiga oid masalalar ham ko’rib o’tilgan. Xorazmiy o’z tasnifida musiqani riyoziyot

ilmlariga qo'shadi va unda musiqaviy asboblari, tovushlarning o'zaro mutanosibligi, tartibi, sozi (lad) tavsiflanadi va oxirida ritm haqidagi ta'limot ko'rib chiqiladi.

Mexanika bo'limida, og'ir yuklarni joy-joyiga qo'yish va dalalarni sug'orish maqsadida ishlatiladigan qurilmalar, ya'ni sodda mashinalar, ularning tuzilishi va vazifalari ustida to'xtab o'tadi. Umuman, asarda Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z davri tabiiy va riyoziyot ilmlarini yaxshi bilgan, ularni nazariy falsafaga kiritish bilan bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va ta'kidlash, ikkinchi tomondan, falsafani boyitishga intilgan. Al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asari o'rta asr madaniyati va ma'naviyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi²⁹.

Abu Rayhon Beruniyning hayoti va merosi

(973-1048)

Markaziy Osiyo va butun Yaqin va O'rta Sharqda tabiiy-ilmiy bilimlar va falsafiy tafakkur taraqqiyotiga Abu Nasr Forobiydan keyin Ibn Sino bilan bir davrda Abu Rayhon Ahmad Beruniy katta ta'sir ko'rsatdi.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy ishlarining serqirraligi, fikriy parvozinig yuksakligi bilan kishini hayratda qoldiradigan buyuk dahodir. U bir yuz ellikdan ortiq asar yozgan o'rta asrning ulug' allomasi (ensiklopedisti)dir.

Abu Rayhon Beruniy hijriy 362 (mil. 973) yilning 2-zulhijja oyida Xorazmning ilk markazi Kat (Qiyot) shahri atrofida dunyoga keldi. U o'z tug'ilgan maskanida yaxshi ta'lim oldi, ilk yoshligidan ilmiy ishlarga berilib ketdi. O'sha paytda Xorazmda yuz bergan siyosiy tanglik sababli o'z vatanini tark etdi, taxminan, 998 yildan to 1004 yillar mobaynida Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy chekkasidagi Jo'rjon (Gurgon)da yashadi. Shu yillari o'zining yirik asari – "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobini yaratdi. Bu kitobning rus tiliga qilingan tarjimasini 1957 yili va o'zbek tilidagi tarjimasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyotida alohida-alohida kitob bo'lib, bosilib chiqdi.

1005 yili Beruniy Xorazmga qaytib keldi va Xorazmshoh Abu Abbos Ma'mun (1009-1017) saroyida hurmatli martabani egalladi. 1017 yili Mahmud G'aznaviy (998-1030) Xorazmni o'ziga bo'ysundirgach, Beruniy boshqa olimlar qatori poytaxt G'aznaga olib ketildi va umrining oxirigacha o'sha yerda yashadi³⁰.

G'aznada Beruniy ilmiy ishlarga berilib ketdi. Sulton qo'shinlari bilan birga u bir necha bor Hindistonda ham bo'ldi. Shu paytlarda bu o'lkani atroflicha o'rganishga kirishdi, natijada, 1030 yili Hindiston haqida ajoyib asar – "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi" (qisqacha "Mo'lanhind" – "Hindiston")ni³¹ yaratdi (Bu asar 1963 yilda rus tilida "Fan" nashriyotida nashr etildi).

²⁹ Qarang: M. M. Xayrullayev i A. D. Sharipov. Abdallax Xorezmi. V kn.: Materiali po istorii progressivnoy obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane. –T.: Fan, 1976. –S. 93.

³⁰ Qarang: A. Sharipov. Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari. –T.: Fan, 1972.

³¹ Qarang: Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. –T.: Fan, 1965.

Bundan oldinroq, 1025 yili esa, “Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning chegaralarini aniqlash” (qisqacha “Geodeziya”)³² asarini yozib tugatgan edi.

Mahmudning vorisi sulton Mas’udga (1030-1041) Beruniy o‘zining matematika va astronomiyaga oid eng yirik asari – “Qonuni Mas’udiy”ni bag‘ishladi. Undan keyingi sulton Mavdud (1041-1048) davrida Beruniy mineralogiyaga oid asari – “Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami” (qisqacha “Mineralogiya”)³³ni, umrining oxirida esa, “Dorivor o‘simliklar haqida kitob” (qisqacha “Saydana”)³⁴ asarini yozdi.

Beruniy hijriy 440 yilning 2-rajabida (mil. 1048 yil, 11 dekabr) G‘aznada vafot etdi.

Beruniy o‘z davrida tajribaviy bilimlarni puxta egallagan olimlardan bo‘lib, bu uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining muayyan tomonlarini aniqlovchi muhim omillardan hisoblangan.

Abu Rayhon Beruniy borliq haqida

Beruniy borliq dunyo yaratilganmi yoki yo‘qmi, degan savollarga dunyo yaratilgan, deb javob beradi (1-ilova). Uning qarashlarida namoyon bo‘lgan ikki qarama-qarshi g‘oyalar, ya‘ni bir tomondan, dunyoning yaratilganligini inkor eta olmaslik, ikkinchi tomondan esa, tabiatni mustaqil, deb bilish, Beruniyning tabiatshunos sifatida dunyoni va tabiatni tushunishda ma’lum darajada deistik (xudo dunyoni yaratib qo‘yib, boshqa uning ishlariga aralashmaydi) yo‘nalishga moyilligini ko‘rsatadi. Xudo dunyoni butunligicha yaratadi va unga azaldan ma’lum qonunlarni beradi. Ana shu qonunlar tufayli tabiiy kuch, ya‘ni tabiat harakat qiladi. Lekin keyinchalik Beruniy hatto deizm qobig‘ining torligini sezadi va moddiy dunyoning abadiy mavjudligini tan olishni zarurligini his etadi. Bu fikrning isbotini u Qur‘ondan ham topadi. O‘sha davrdagi tabiatshunoslik fanida erishilgan yutuqlar uni Arastuning tabiat falsafasiga tanqidiy yondoshishga, shuningdek, uning zaif tomonlarini farqiga borishga olib kelgan. Bu uning Ibn Sino bilan yozishmasida o‘z ifodasini topgan. Ularning bu yozishmalari asosan Arastuning “Fazo haqida” va “Fizika” asarlari bo‘yicha olib borilgan.

Bu yozishmada Ibn Sino Arastuning tabiat falsafasini himoya qilgan. Beruniy esa, Ibn Sinoga e‘tiroz bildirgan. Ularning bahsi asosan Arastu tabiat falsafasining muhim masalalaridan biri – jismlarning cheksiz bo‘linishi bo‘yicha bo‘lgan. Bu borada Beruniyning Ibn Sinoga qarshi chiqqanligini ko‘rgan ayrim mualliflar, uni Demokrit atomizmining tarafdori, degan xulosaga kelganlar. Lekin Beruniy bu masalaga birmuncha jiddiyroq qaragan. U bo‘linish muammosini hal etishda shunday yo‘lni topishga harakat qiladiki, ikki ta‘limot – atomistik va cheksiz bo‘linishning o‘ziga xos qarama-qarshiliklarini va cheklanishlarini bartaraf etishga intiladi.

³² Qarang: Abu Rayhon Beruniy. GeodeziY. –T.: Fan, 1966 (rus tilida)

³³ Abu Rayhon Beruniy. MineralogiY. –T.: Fan, 1967.

³⁴ Abu Rayhon Beruniy. Dorivor o‘simliklar haqida kitob (Saydana). –T.: Fan, 1968.

Beruniy atomistik nazariyasini Demokrit atomistik nazariyasidan farqi shundaki, Abu Rayhon bo'shliqni inkor etsa, Demokrit bo'shliq – dunyoning zaruriy ajralmas qismi, deb hisoblaydi.

Beruniy Arastuni tanqid qilishda dastavval tajribaga murojaat etadi. Uning bu yo'li Arastuning kuzatuvchilik usuliga qarshi qaratilgan edi. Shunday qilib, Beruniy jismlarning cheksiz bo'linuvchanligini tan olish va bo'linmas zarrachalar to'g'risidagi atomistik ta'limotning cheklanganligini ko'rsatishga intiladiyu, biroq bu muammoni to'liq hal qila olmaydi. Shunga qaramay, masalaning bunday qo'yilishining o'zi ham mutafakkirning katta yutug'i bo'lgan.

Beruniy barcha unsurlar, shuningdek, og'irroq unsurlarning boshqa unsurlardan oldin markazga intilishi to'g'risida gapirib, “Hamma unsurlar markazga qarab intiladi, lekin vazminroqlari boshqa unsurlardan o'zib ketadi”³⁵, deb ta'kidlaydi. Beruniy “Hindiston” asarida unsurlarning Yerga oddiy intilishi to'g'risida emas, balki barcha og'irliklarning Yer markaziga tortilishi haqida fikr yuritadi. Beruniyning Ibn Sinoga bildirgan e'tirozlarida muhitning og'irligini e'tirof etishi bu fazo jismlari bilan Yer o'rtasidagi tortilish kuchlari borligini tan oladigan fikrga yaqinlashganligini ko'rsatadi.

Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risidagi tahmini uning falsafiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Beruniy boshqa dunyo haqida fikr yuritarkan, boshqa moddiy dunyo ehtimol bizning dunyomiz singari tabiiy xususiyatga ega bo'lib, “harakat yo'nalishlari esa, bizning dunyomizdagi harakat yo'nalishlaridan farq qiladi”, deydi³⁶.

Abu Rayhon Beruniyning bilish nazariyasi

Buyuk tabiatshunos Beruniy o'zining salaflari, xususan, Ahmad Farg'oniy va Muhammad Xorazmiy ishlab chiqqan bilishning ilmiy usulini rivojlantirib, yanada chuqurlashtirdi. Uning aytishicha, “Kuzatishning ko'pligi ko'rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi”. Beruniy o'zining o'gitida: “Biliming shundayki, u yalang'och bo'lsang ham o'zingda qoladi, uni hammomga kirganingdagi xo'llik ham yo'qota olmaydi”, -deydi. Beruniy inson xotirasini “Allohning tuhfasini”, deb hisoblaydi. U “tirishqoqlik va ko'p shug'ullanish bilan ham xotirani mustahkamlash mumkin”³⁷, -deydi.

Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda tajribaga tayanuvchi fanlarning asoschilaridan bo'lgan Beruniy tabiat hodisalarini bilishdagi nazariy- mantiqiy xulosa, qiyoslashning ahamiyatini benihoya katta ekanligini uqtirib o'tadi. Beruniy tarixiy hodisa va voqealar haqiqatini bilishga taalluqli hamma masalalarni har taraflama o'rganish zarurligini ko'rsatadi va bu bilan noto'g'ri yo'lga tushib qolishdan ehtiyot bo'lishga chaqiradi. U shunday yozadi:

³⁵ Sharipov A. Malozvestniye stranitsi perepiski mejdu Beruni i Ibn Sinoy.//Obshestvenniye nauki v Uzbekistane, – № 5. 1965, –S.39.

³⁶ O'sha joyda.

³⁷ O'sha joyda.

“Xabar ko‘z bilan ko‘rgandek bo‘lmaydi, degan kishining so‘zi juda to‘g‘ri. Chunki ko‘rish ko‘ringan narsaning o‘zi bor paytida va o‘z joyida turganida qarovchi ko‘zining uni uchratishdan iboratdir. Xabarga yolg‘on- yashiqlar qo‘shilmaganda, u ko‘rishga nisbatan ortiqroq o‘rinda turgan bo‘lar edi. Chunki ko‘rish va qarash shu payt, shu on bilan cheklanadi. Xabar esa, narsaning ko‘ringan payti va vaqtdan ilgari o‘tgan va keyin keladigan hollaridan darak beradi; ana shuning uchun xabar mavjud narsalardan ham, kelajak narsalardan ham darak beraveradi. Yozish xabar turlarining biri bo‘lib, uni boshqa turlardan ko‘ra, afzalroq hisoblash mumkin; qalamning mangu yodgorliklari bo‘lmaganda, xalqlarning tarixini qanday bilar edik?!

So‘ngra, odatda bo‘lgan hol haqida berilgan xabar bir xil emas, balki (farqsiz) rost va yolg‘on bo‘lishi mumkin”³⁸.

Beruniy yolg‘on xabarlarining muayyan va umumiy ildizlarini ochib tashlaydi. U bularni ma‘lum guruh kishilarining manfaatlarini qarama- qarshiligida ko‘radi. Uningcha, chinakam jasorat, qahramonlik so‘zdami yo amaldami, har ikki holatda ham yolg‘onga qarshi kurashda o‘limni ham pisand qilmaslikda namoyon bo‘ladi. “Yolg‘onchilikdan chetlanib, rostgo‘ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg‘onchining o‘zi ham sevib maqtaydi. Axir, o‘z zararingizga bo‘lsa ham, rost gapiring deyilganku”³⁹, deb yozadi u.

Kuzatish, ko‘rish, tajribalar qilish, mantiqiy umumlashmalar chiqarish, ma‘lumotlarni to‘plash, xalq og‘zaki ijodi, yozma yodgorliklarni o‘rganish, barcha xabar, manbalarga tanqidiy qarash haqiqatni aniqlash uchun ularni bir-biri bilan taqqoslab ko‘rish, til qurilishini, yozuvlarni o‘rganish – bular hammasi o‘rta asrning buyuk qomuschisi Abu Rayhon Beruniy ilmiy usulining asosini tashkil etadi.

Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy qarashlari

Abu Rayhon Beruniy tomonidan “Sabablarning sababi” – inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo‘yilishi diqqatga sazovor. “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir”⁴⁰.

Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqida aqlga asoslanish nuqtai nazarida turganini ko‘ramiz. Olamning mavjudligi masalasiga kelganda Beruniy “ehtimol u bir necha ming million yillardan beri mavjud bo‘lgandir”⁴¹, degan taxminlarni aytadi.

Beruniy fikricha, inson hayvondan aqli bilan farq qiladi. Lekin mutafakkir insonning hayvondan tubdan farq qiladigan bu xususiyati qanday paydo bo‘lganligini tushuntirganda, xudoga murojaat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan deydi. U insonning jismoniy tuzilishi va butun hayotini aniqlashda jo‘g‘rofiy omilning roli haqida ajoyib fikrlarni aytadi: “... (odamlar) tuzilishining rang, surat, tabiat va

³⁸ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild, –T.: Fan, 1965, 25-bet.

³⁹ O‘sha joyda.

⁴⁰ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild, –T.: Fan, 1968, 50-bet.

⁴¹ O‘sha joyda.

axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yer (odam yashaydigan joy)larning turlichaligidan hamdir”⁴².

Beruniy fikricha, aql, mehnat, erkin tanlash insonning hayotini va ijtimoiy holatini belgilaydi. U inson boshqa odamlarning baxt-saodati haqida doim o‘ylashi kerak deydi va shunday yozadi: “Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir”⁴³. Bu fikrni davom ettirib, insonning qadr-qimmatini o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanishidan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Zero, inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishadi. Binobarin, u “insonlarning maqsad va niyatlari har xil bo‘lgach, san’at va hunar ham turlicha bo‘la boshlaydi”⁴⁴-deydi. Bu esa, mehnatning taqsimlanishiga olib keladi, degan fikrni olg‘a suradi.

Beruniy pulning kelib chiqishini dastavval mehnat taqsimoti bilan bog‘liq, deb bildi⁴⁵. Uning fikricha, insonlar o‘rtasida oltin va kumush sifatida pulning muomalada bo‘lishi maxsus qimmatga ega emas, chunki ular insonning hech qanday ehtiyojini qondira olmaydi. Faqat ayirboshlash tufayli pullar qimmatga ega bo‘ladi. Jamiyatda pul faqat o‘lchov sifatida, umumiy ekvivalentning asosiy vazifasi hisoblanadi. Lekin bu ularning tabiati hamda ma’lum tabiiy qonun asosida bo‘lmay, balki shartli kelishuv tufayli sodir bo‘lgan. Chunki ularning ikkisi ham (oltin va kumush) dastavval o‘z mazmuni bilan insonni na to‘ydiradi, na chanqog‘ini qondiradi, na zo‘rlik yoki zulm xavfidan qutqara oladi. Pulning noto‘g‘ri ishlatilishi tufayli yovuzlik keltiruvchi boylik yuzaga keladi. O‘z navbatida bu majburiy mehnatni keltirib chiqaradi. Beruniy fikricha, pul tufayli faqat turli tovarlar ayirbosh qilinmay, balki begona kuch ham yollanadi. “Biri ikkinchisini yollaydi, ya’ni bir kishi ikkinchisiga adolatli shartnoma tufayli doimo ishlashi kerak, buning evaziga u mukofotlanadi”⁴⁶. Yollanma mehnatni tushunishda Beruniy yanada ilgari ketib, unda faqat odil shartnomani ko‘ribgina qolmaydi, balki har qanday majburiy mehnatga qarshi chiqib, quyidagilarni yozadi: “Zo‘rlik va yollash orqali amalga oshadigan majburiy mehnat doim to‘g‘ri emas”⁴⁷.

Beruniy podsholar “erkin bo‘ysunishni” qo‘rquv va zo‘ravonlik yo‘li bilan majburiy bo‘ysundirishga aylantirganliklarini qayd etadi. Podsholik mansa- bi merosga aylanganini ko‘rgan Beruniy, insonning jamiyatda tutgan o‘rni naslning qadimiyligi, avlod-ajdodlarning xizmatlari bilan belgilanishiga qarshi chiqadi va kimki, o‘zining marhum qarindosh-urug‘i va buvalari orqali mansabga erishaman desa, o‘zi marhumdir, lekin marhum avlodlari barhayotdir, deydi.

⁴² O‘sha joyda. –B.236.

⁴³ Al-Beruni. GeodeziY. –B.83.

⁴⁴ Al-Beruni. GeodeziY. –B.83.

⁴⁵ Qarang: Al-Beruniy. Mineralogiya, 12-bet.

⁴⁶ O‘sha joyda. –B.12.

⁴⁷ O‘sha joyda.

Beruniy jamiyatni boshqarish masalasiga to'xtab "idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdan iboratdir"⁴⁸- deydi. Beruniyning fikricha, tabiatan boshqarishga moyil bo'lgan hokim o'z fikri va qarorlarida qat'iy bo'lishi, o'z ishlarini amalga oshirishda faylasuflarning qonunlariga, Iskandar Zulqarnayn Arastuning falsafiy donishmandligiga amal qilganidek, bo'ysunishi; shohning o'zi ham "yaratuvchanlik ongiga" ega bo'lishi, ko'proq dehqonlar haqida qayg'urishi kerak. "Zero, podshohlik dehqonchiliksiz yashay olmaydi"⁴⁹.

Beruniy mamlakat ravnaqini fan ravnaqida ko'rdi. Ilm-fan sahovatli xizmatni o'tashi mumkin, deb hisobladi. U shunday yozadi: "Mening butun fikri-yodim, qalbim-bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo'ldim. Buni men o'zim uchun katta baxt, deb hisoblayman"⁵⁰.

Beruniy fikricha, insonning oliy baxti bilishda, chunki u aqlga ega. Baxt ana shu nuqtai nazardan tushunilsagina jamiyatga tinchlik va farovonlik keltiradi. Insonning oliy fazilati esa, boshqalar haqida, ayniqsa, kambag'allar haqida g'amxo'rlik qilishdan iboratdir. Uning Hindistonda olib borgan keng ilmiy tadqiqot ishlari xalqlar o'rtasidagi do'stlik, o'zaro hamkorlik va madaniy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan edi. Beruniy madaniy hamkorlik va ilm-ma'rifatning keng tarqalishiga katta e'tibor berdi.

Shunday qilib, Beruniyning jamiyat va inson haqidagi qarashlari asosida chuqur insonparvarlik yotadi⁵¹.

2-MAVZU: O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA KENG TARQALGAN TASAVVUF FALSAFASI

Reja:

6. Tasavvuf ta'limotining mohiyati va nazariy tizimi.
7. Yusuf Hamadoniy faoliyati.
8. Xoja Ahmad Yassaviy qarashlari.
9. Najmiddin Kubro ta'limoti.
10. Xojagon tariqati va Bahouddin Naqshband.

Tayanch tushunchalari: *Tasavvuf, zuhd, sufiy, mutasavvif, solik, hinduviylik, buddaviylik, tarkidunyochilik, qazo va qadar, habb (ilohiy ishq), Vosil ibn Ato, Hasan Basriy, Junayid, Boyazid Bistomiy, Mahosibiy, «al-fano tavhid» (tavhidda fanoga aylanish), «Vahdat ul-vujud», «anal-haq»,*

⁴⁸ O'sha joyda.

⁴⁹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild, -T.: Fan, 1968, 74-bet.

⁵⁰ Abu Rayhon Beruniy. Izbranniye proizvedeniY. T. 2, 1963, -S. 23.

⁵¹ Qarang: A. Sharipov. Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari. -T.: Fan, 1972.

«aynul-jam'», «sukra», «sahv», vajdiy (irratsional), «xushyorlik» (ratsional), Yusuf Hamadoniy, yassaviya, xojagoniya, ilm-an-nazar (ratsionalizm), Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, tavba, uzlat, qanoat, sabr, Bahouddin Naqshband, xush dar dam, safar dar vatan, nazar dar qadam, xilvat dar anjuman.

Tasavvuf ta'limotining mohiyati va nazariy tizimi

Tasavvuf ilk islom davrida paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning ildizlarini xristianlik, hinduviylik va buddaviylikdagi ruhan cheksizlikka intilib, u bilan birlashib ketish hamda xilma-xillikdan holi bo'lgan oldingi yagonalik holatiga qaytish ma'nosida kelishligi ajablanarli emas (1- ilova).

Islom davridagi zuhdning, ya'ni molu-dunyoga hirs qo'ymaslikning eng yirik vakili Hasan Basriy (vaf. 110/738) bo'lib, islom tarixidagi eng muhim burilish davrida yashadi. Arab dunyosidagi hokimiyatning yangi turi bo'lgan xalifalik masalasidagi tortishuvlar natijasida vujudga kelgan sharoit va uchinchi xalifa Usmonning 656 yilda qatl etilishi oqibatida musulmonlar jamoasi ikki guruhga bo'linib ketdi. Bu narsa ummaviylar bilan Ali tarafdorlari bo'lgan shialar o'rtasidagi nizoni keltirib chiqardi. Bu voqeaning mafkuraviy negizi sifatida bir asrga cho'zilgan siyosiy va kalomiy bahslar kelib chiqdi. Siyosiy kurashga asos sifatida kalomiy bahslarning katta gunoh, qazo va qadar, kishining o'z ixtiyori haqidagi masalalar kelib chiqdi. Bu harakatning peshqadami sifatida Hasan Basriyning shogirdlaridan biri Vosil ibn Ato kurash sahnasiga chiqdi.

Hasan Basriyning diniy hayotdan olgan xulosasi zohidona bo'lib, parhezkorlik, faqirlik, noz-ne'matlardan nafratlanish, uning birinchi fikriy unsurlaridan iborat edi. U tavsiya etgan hayot tarzi fikrlash, nafsni hisobga olish, xudoning xohishiga mutlaqan taslim bo'lishdan iborat ediki, natijada ichki rizolik holati kelib chiqar edi. Bunday holatda ilohiy yo'llanma bilan insoniy iroda o'rtasida muvozanat butunlay o'rtadan ko'tariladi.

So'fiyona faoliyat keyinchalik Basradan 762 yilda Mansur tomonidan barpo etilgan va xalifalikning siyosiy va diniy poytaxti deb e'lon qilingan Bag'dodga ko'chdi. Bag'dodning eng yirik so'fiylari qatorida Ma'ruf Karxiy (vaf. 199/815), Mansur ibn Alisher (vaf. 224/839), Bishr ibn Xofiy (vaf. 227/842) va Ibn Abi ad-Dunyo (vaf. 281/894)larni ko'rsatib o'tish mumkin. Bag'dod so'fiylarining eng mashhurlari Mahosibiy (vaf. 243/857) va Junayid (vaf. 297/910) edilar. Mahosibiy Basrada tug'ilgan bo'lib, keyinchalik Bag'dodga kelgan edi. Ko'p o'tmay u bu yerda hanbaliylar bilan to'qnashib qoladi, chunki u o'zining diniy bahslarida kalom ilmining usullaridan foydalanar edi. Mahosibiyning tasavvufiy aqidasi ikki asosga tayanar edi: birinchisi «Mahosibai nafs», ya'ni «nafsni hisobga olish», shuning uchun laqabi Mahosibiy bo'ldi; ikkinchisi xudo «mahub»i yo'lida har qanday og'ir balo-qazolarga ham chidashga tayyor bo'lish. U o'zini

haqiqiy parhezkorlikning meyorini deb bilsa, azob tortishga (balo-qazolarga chidash) tayyor turishni, buyuk fazilat sanalgan «sabr»dan bahramand bo'lishning nishonasi, deb biladi. Mahosibiy ibodat farzlarining qimmatini inkor etmagan holda, imonning ikki jihatlariga tayanadi. Imon har vaqt bo'ysunish va ixlos ruhi bilan aralashgandagina, ma'naviy holatda o'sha inson samimiyligiga aylanadi.

Abul Qosim Junayid tasavvuf an'anasida birinchilardan bo'lib bu sohaga qadam qo'ygan eng yirik pirlardan biri hisoblanadi. Mahosibiy, Saqtiy (vaf. 256/870) va Abu Xafs Haddod (vaf. 259/873) Junayidning ustozlari edilar. Agar u o'rtacha mo'tadillikda ish olib borgan bo'lsa ham, o'zini xudoga qo'shib ketgan deb his qiluvchi so'fiylardan bo'lgan Boyazid Bistomiyni (vaf. 260/874) hurmat qilardi. Junayid tasavvufning keyingi davridagi yoyilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. U xudoning yagonaligi va har narsaga qodirligidan, unga cheksiz muhabbat va chuqur his-tuyg'u orqali hayajonli tadbirlar bilan murojaat qilib, uning visoliga yetishni tashviq qildi. Uning bu tashviqidan ilhomlangan Halloj (vaf. 309/922) o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Junayidning bevosita va bilvosita shogirdlari orasida xudo bilan qo'shib ketish darajasidagi oshiq Hallojdan tashqari, sunnatga og'ishmay rioya etuvchi pirlar, kalom ilmining yirik namoyandalari va tasavvuf shayxlaridan bir nechasini topish mumkin. Hatto G'azzoliydek shaxs ham uni o'zining eng yirik ma'naviy ustozini sifatida tanlagan edi.

Ilohiy ishq bodasidan mast bo'lgan beparvo so'fiylar ichida o'zini tuta olmay vahdat havoyisi bo'lib qolganlardan ikki kishi, ayniqsa mashhurdir. Bular Bistomiy va Hallojlardir. Ibn Sino bilan do'stlik munosabatlarida bo'lgan Abu Said Abul Xayr (vaf. 440/1049) va Shibliyga (vaf. 334/943) o'xshaganlar ikki asrdan keyin ularning yo'lidan borib, o'z turmush tarzlarida shattoh tasavvufiy namunalarini oshkora ko'rsatib, qabul qilingan urf-odatlar chegarasidan chiqib, devonavor hunarlar ko'rsatdilar.

Boyazid Bistomiy (vaf. 261/875) Xurosonning g'arbidagi Bistomda tug'iladi va musulmonchilikni yaqinda qabul qilgan Abu Ali Sindiy tarbiyasida tasavvufga kiradi. U «al-fano tavhid» (tavhidda fanoga aylanish) aylanish ta'limotini Bistomiyga o'rgatadi. Bistomiy yuqorida aytilgan so'fiylarga qaraganda ham o'z jonini ongli ravishda qiyinchiliklarga solib, bir yo'la insoniy qolipdan chiqib (pok va shaffof) xudo bilan yuzma-yuz bo'lmoqchi bo'ladi.

Junayid Mansur Hallojga sufiylik xirqasini kiygizgan va 25 yil davomida ma'naviy murshidlik qilgan edi. Ammo Junayid Hallojning haddan oshuvchilik tamoyili borligidan xavfsirar edi. Rivoyatlarga ko'ra, Hallojning o'zbilarmonligi va takaburligi tufayli, ular bir-birlaridan aloqani uzishgan.

Garchi Hallojning rasmiy ayblanishi uning «anal haq» («men xudoman»), deyishi va mo‘minlarning shariat farzlarini bajarishda o‘z ixtiyorlaricha erkin ish tutishi mumkinligini aytgani sababli bo‘lsa ham, ammo uning iskanjasiga solinib, keyinchalik qatl etilishining asosiy omili siyosiy to‘polon chiqarganligida edi. Sudda unga xudo nomidan birinchi shaxs sifatida ilgarigi gaplarini eslatganlarida, o‘zini himoya qilib, bunday so‘fiyona ta‘limotdagi «aynul jam’» holatiga to‘laligicha to‘g‘ri kelishini aytgan. Bunday holatda so‘fiy xudo qo‘lidagi asbobdan o‘zga narsa emas. Bu yerda shuni qayd etmoq zarurki, ko‘pchilik orasida yoyilgan fikrga qarshi o‘laroq, Halloj «anal haq» deganligi uchungina sud qilinmagan. Ehtimol, bunday tasavvur shundan kelib chiqqan bo‘lsa kerakki, Halloj «anal haq» deyishga boshlagan vaqtda Junayid bashorat qilib, bunday fikr uning boshiga yetadi, degan edi. Har holda sud muhokamasi ja- rayonida Hallojning «anal haq»deyishida ayblamaganlar⁵². Shunday bo‘lsa ham, uni ayblovchilar, ayniqsa, xalifaning vaziri Homid uning «aynul jam’» holatini bayon qilishdagi kalomiy tafsirlariga qulog‘ini ding tutib, xalifaning Hallojni darra bilan urish va so‘ngra boshini tanasidan judo qilish haqidagi farmoniga qaramasdan, o‘ta hasadchiligi tufayli uni darra bilan urishga, badanini qiyma-qiyma qilishga, dorga osishga, bo‘ynini kesishga, keyin esa, jasadini yondirib, kulini Dajla daryosiga tashlashga buyruq berdi. Bunday jazolash butun islom dini tarixi davomida yuz bermagan edi. Hammani taajjubga soladigan Hallojning ta‘limoti va uning o‘limi shuni ko‘rsatadiki, tasavvufdan qanchalik xavfli xulosalar, shu bilan birgalikda diniy rasm-rusumlar va imon ma‘rifati qoliplaridan chiqishlar yuz berib turadi. Binobarin, tasavvufning islom dini tafakkuri tarixidagi o‘chmas qadriyati shundaki, quruq ixlos qolipidagi aqidaga jozibakorlik va shodlik tuyg‘usini bag‘ishlaydi va istalgan maqsadga yetishish yo‘llarini hal qilib berishga da’vo qiladi.

Junayid tasavvuf mohiyati, hikmatlarini ommalashtirish xavfli, deb hisobladi. Zero, avom nozik ma‘nolarni anglashdan ojiz, noto‘g‘ri talqinlar paydo bo‘ladi va imon-e‘tiqodga putur yetadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Junayid Mansurni osish to‘g‘risida tayyorlangan fatvoga o‘zi ham qo‘l qo‘ygan. Junayid Bag‘dodiyning aytishicha, haqiqiy baqo «sahv» xushyorlikka qaytish- dan keyin boshlanadi. «Sukra»dagi odam bamisoli dengizga sho‘ng‘ib, g‘arq bo‘lgan kishi bo‘lsa, «sahv»ga qaytgan dengizga sho‘ng‘ib, gavhar donalarini olib chiqqan g‘avvosdir.

Shunday qilib, Boyazid Bistomiy tasavvuf tarixida vajdiy (irratsional), intuitiv bilish nazariyasining asoschisi hisoblansa, Abul Qosim Junayid Bag‘dodiy esa, ilm va aqlga suyanadigan «xushyorlik» (ratsional) bilish nazariyasiga asos soldi va tasavvuf ta‘limotini ilmiy- nazariy qarashlar bilan boyitishga ulkan hissa qo‘shdi. Zamondoshlari Junayidni behudaga «aql haykali», deb aytmaganlar.

⁵² Qarang: Komil Mustafo al-Shaybiy. Al-Halloj devonining sharhi. – Bayrut-Bag‘dod. 1394/1974, –B.58. (arab tilida).

Agar tasavvuf tarixini koʻzdan kechirsak, bu ikki konsepsiya koʻp asrlar davomida yashab kelganligi va tasavvufning vujudga kelishiga sabab boʻlganligini koʻramiz. Yana shunisi ham borki, har ikki oqimni birlashtirishga uringanlar ham boʻlib turgan.

Insonda aql bilan tushuntirib boʻlmaydigan holatlar boʻlishini fan isbotlamoqda, ulugʻ kashfiyotlar aynan shu «behudalik» holatida qoʻlga kiradi. Orifona tasavvuf barcha ilmlarni qamrab oladigan hikmat, falsafani ham qoʻshadigan tasavvufdir. Oshiqona tasavvuf ishqiy kechinmalar, ishqiy-zavqiy irfonni birinchi oʻringa qoʻyib, muhokama yuritadigan, toʻgʻrirogʻi muhokama-tafakkurdan koʻra, his-hayajon, muhabbat shavq-zavqi toshqinini afzal koʻradigan tasavvufdir. Malomatiya va qalandariya oqimlari ham mohiyatan oshiqona tasavvufning shahobchasidir.

Yoshlarda boʻladigan muhabbat shavqi va zavqi avvalo bu dunyoga nisbatan boʻlishi kerak. Hozirgi zamonamizda fan va texnika taraqqiyoti shunday imkoniyatlarni yaratganki, u butun bashariyatning asriy orzusi boʻlgan toʻla baxt-soadatni yer yuzining oʻzida yaratib berishga qodir. Ana shunday zamin oʻtmishda boʻlmaganligi uchun orzularga yetishishning chorasi sifatida turli tasavvuf tariqatlari kelib chiqqan. Ularni oʻrganar ekanmiz, zamonamiz qadriga koʻproq yetamiz.

Yusuf Hamadoniy faoliyati (1048-1140)

Movarounnahr diniy-irfoniy taʼlimotining asoschilaridan biri Yusuf Hamadoniydir. U Movarounnahr va Xurosonda oʻz tasavvuf maktabiga asos soldi. Uning hayot tarzi halol yashashni targʻib qilishga qaratilgan edi. Yusuf Hamadoniy Buxoroda va keyinchalik Marvda tashkil etgan tasavvufiy toʻgaraklarida paygʻambarimizning «faqirlik faxrimdir» degan qudsiy kalimalarini oʻzining hayotiy shiori, deb bilib, uni shogirdlariga singdira boshladi. Hamadoniy tasavvuf maktabidan kelgusida Turkistonda ommalashib ketgan «yassaviya» va «xojagoniya» tariqat asoschilari yetishib chiqdi. Yusuf Hamadoniy Marv va Buxorda xonaqo va madrasa qurdirib, koʻplab turkiy zabon va forsiygoʻy shogirdlar tayyorladi. Buxorodagi shogirdlari orasidan Hasan Andoqiy, Abdullo Baraqiy, Ahmad Yassaviy va Abduxoliq Gʻijduvoniy alohida ajralib turardi. Keyinroq bu toʻrt isteʼdodli shogird Hamadoniy maktabini muvaffaqiyat bilan davom ettirdilar⁵³.

«Yassaviya», «Naqshbandiya» tariqatlari Hamadoniy taʼlimoti asosida shakllandi.

Hazrati Yusuf Hamadoniyning toʻliq ismi Abu YAʼqub Yusuf bin Ayyub bin al-Husayn bin Vahora al-Hamadoniy boʻlib, 1048 yilda Hamadon (Eron) yaqinidagi Buzanjird qishlogʻida tavallud topgan. Yusuf Hamadoniy 17

⁵³ Qarang: Oʻzbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akademik Xayrullayev M.M. tahriri ostida. –T.: Oʻzbekiston, 1995. –B.103- 104.

yasharli yigit paytida ilm istab, XI asrdagi xalifalikning poytaxti – Bag‘dodga keladi va u yerdagi mashhur «Nizomiya» madrasasida o‘qiydi. U o‘z davrining atoqli donishmandlari bo‘lgan Abu Ishoq ash-Sheroziy, Abu Ishoq an-Nazzoriy, Xatib al-Bag‘dodiy, Abu Ja‘far bin Muslim, Abu Husayn al-Muhtadiy kabi olimlardan fiqh, hadis, tasavvuf va ma‘naviyatning boshqa sohalaridan chuqur ta‘lim oladi. Keyinchalik xaloyiq orasida hadislar to‘plash maqsadida Isfahon, Balx, Hirot, Marv, Buxoro va Samarqand shaharlariga bir necha bor safar qiladi. Hamadoniy Bag‘dodda yashagan kezlari as-Sam‘oniy, Ahmad al-G‘azzoliy (mashhur mutasavvif Abu Homid al-G‘azzoliyning akasi)lardan tasavvufga oid ilmlarni o‘rgangan, ularning va‘z-nasihatlarini tinglagan. As-Sam‘oniy qo‘lidan hirqapo‘sh (ya‘ni mustaqil ravishda tasavvufga jalb qiladigan murshid) bo‘lgan. Yusuf Hamadoniy umrining ikkinchi yarmini ko‘proq Hirot, Marv, Samarqand va Buxoro shaharlarida o‘tkazadi.

Ham «yassaviya», ham «naqshbandiya» (Xojagon) tariqatlarining ma‘naviy otasi bo‘lmish Yusuf Hamadoniy ta‘limotiga ko‘ra, o‘zining tamom fikri-zikrini Alloh-taoloning visoliga yetishishga bag‘ishlagan, bunday ezgu va najib yo‘lda poklik, to‘g‘rilik, halollik, o‘z qo‘l kuchi va peshona teri, halol mehnati bilan kun kechiradigan, buning uchun hormay-tolmay mujodala va muboriza qiluvchi, har tomonlama kamolotga erishgan insonlargina ahli tasavvuf, deb atalishi mumkin.

Yusuf Hamadoniy dastavval ilm-an-nazar (ratsionalizm) sohasida katta mutaxassis bo‘lib yetishsa-da, tez orada o‘sha ilmdan voz kechib, haqiqiy xudojo‘ylik yo‘liga kiradi, o‘zi xudo vasliga yetmoq uchun say-harakat qiladi, o‘z kamolotini oshiradi, boshqalarni ham mana shu yo‘lga da‘vat etadi va bu sohada ko‘plab shogirdlar tarbiyalaydi.

90 yoshdan oshgan mo‘ysafid donishmand Shayx Yusuf Hamadoniy Bomiyon (hozirgi Afg‘oniston) shahrida olamdan ko‘z yumadi. Uning jasadini shogirdlaridan Ibn Anjar (ustozi vasiyatiga ko‘ra) Marvga olib kelib, dafn etadi⁵⁴.

⁵⁴ Qarang: Faxruddin Ali as-Safiy. Rashahot ayn-ul-hayot. O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozma asarlar xazinasi. Inv. –№ 3593. LitografiY. Laknau. 1890. –B.6-7. (fors tilida).

Xoja Ahmad Yassaviy qarashlari (1041-1167)

XII Asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir. U 1041 yilda Sayramda, Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelgan. Uning vafot etgan vaqti ko'pgina qo'lyozma manbalarda hijriy 562 (1166/67) yil deb yozilgan. Ahmad yoshligida onasidan, so'ng otasidan ajraladi. Uni bobosi Arslonbob tarbiyalab voyaga yetkazadi. Ahmad dastlabki ta'limotini Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfinjobiydan oladi. So'ngra bobosi Arslonbob ko'rsatmasi bilan Buxoroga borib Yusuf Hamadoniyan ta'lim oladi. Ahmad Yassaviyning o'zi

«Ustoz Yusuf Hamadoniyaning huzuriga 23 yoshida borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo'lg'onligini» aytadi⁵⁵. U yerda tasavvufdan ta'lim olib, so'ng o'z yurti Turkistonga qaytadi, tasavvuf ta'limotini targ'ib etib, shogird, muridlar tayyorlay boshlaydi.

Alisher Navoiy iborasi bilan aytganda, «Turkiston mulkinging ulug' Shayx-ul-mashoyixi» Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy juda ko'p mutasavvuf donishmandlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ma'lumki, «Yassaviya» tariqatidan keyin Markaziy Osiyoda ikki yirik tariqat paydo bo'ladi: «Naqshbandiya» (Xojagon) va «Bektoshiya».

XVI asrda yashagan yirik tasavvuf namoyandasi bo'lgan Mahdumi A'zam o'zining «Risolate ilmiya» («Ilmiy risola») asarida ta'kidlashicha, Yassaviya tariqatining shiori «Niyating xudoda, qo'ling ishda bo'lsin» iborasi edi. Keyinchalik ko'ramizki, bu iboraning forscha tarjimai bo'lgan

«*Dil ba Yoru, dast ba kor*» Naqshbandiya tariqatining asosiy shoriga aylangan.

«Yassaviya» tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo'lmish «Hikmat»da mufassal bayon etilgan. XII asrdagi turkiyzabon she'riyatining ajoyib namunasi bo'lgan, keyingi davrlardagi turkiy adabiyotga katta ta'sir ko'rsatgan «Hikmat» asarida «Yassaviya» ta'limotidagi poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z qo'l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo'lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillash- tirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Bag'dodda 922 yilning 22 mart kuni shayxlar va mutaassib ulamolar tomonidan xudosizlikda ayblanib dorga osilgan, so'ngra qo'l-oyoqlari kesilib, tanasi kuydirilib, daryoga tashlangan mashhur mutasavvuf Mansur Halloj (858-922)ni Yassaviy bir talay she'rlarida chuqur hurmat bilan tilga oladi, dovyurak va jasur mutasavvufga katta rag'bat ko'rsatadi:

*«Bilmadilar mullolar «Anal-haq»ning ma'nosin, Qol
ahliga hol ilmin Haq ko'rmadi munosib.*

⁵⁵ Qarang: Usmonov O. Ahmad Yassaviy. //Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. –B.135-136.

*Rivoyatlar bitildi, holin ani bilmadi,
Mansurdek avliyoni qo'ydilar dorga osib.
Shariatdur, deb olimlar buyurdilar, Kofir
Mansur o'lmadi, deb kuyurdilar. Axgar qilib
kulin ko'kka sovurdilar,
Tog'u tuzlar «Anal-haq», deb turar ermish»⁵⁶.*

Yassaviy ham o'zining piri buzrukvor shayx Yusuf Hamadoniya o'xshab mol-dunyo to'plashga mutlaqo qiziqmaganini, kambag'alparvar va g'aribparvar bo'lib yashaganligini uning ba'zi bir hikmatlaridan ham bilsa bo'ladi. Mol-dunyoga, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni Yassaviy qattiq tanqid qiladi:

*Beshak biling bu dunyo barcha xalqdan o'taro,
Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro,
Oto, ono, qarindosh qayon ketdi, fikr qil, To'rt
oyoqlik cho'bin ot bir kun sango yetaro.*

Darhaqiqat, Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyodagi ilk tasavvufiy tariqat – «Yassaviya»ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma'naviy tarixida keng ma'lum bo'lgan, mutasavvif, insonparvar shoir hisoblanadi.

⁵⁶ Qarang: Usmonov O. Ahmad Yassaviy. //Ma'naviyat yulduzlari. –B.135-136.

Najmiddin Kubro ta'limoti
(1145-1221)

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodir.

Ahmad ibn Umar Abul-jannob Najmiddin Kubro 540 hijriy yilda Xorazmning Xivak shahrida dunyoga keladi.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur «Lug'atnoma»sida keltirilishicha, «u kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tuganmas zakovatlarini tufayli har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, g'olib chiqar edilar»⁵⁷.

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi so'nggi hayoti o'ta og'ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. Bu davrda Turon o'lkasidagi Xorazm, Shosh, Buxoro va Samarqand hukmdorlarining noahilligi, tang nazarligi tufayli mo'g'ullarning Turkistonga qilayotgan hamlalari kuchayib, Chingizxon lashkarboshilari Movarounnahrdagi yirik shaharlarni birin-ketin beayov bosib olishga muvaffaq bo'lganlar. 1221 yilning jumad ul-avval (iyul) oyida Chingizxon lashkarboshilaridan biri Xulaguxon o'zining yosh o'g'li, tumonat lashkari bilan Urganch qal'asini o'rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og'ir sharoitda azob chekayotgan bir asnoda munkillab qolgan, yetmishdan oshgan Najmiddin Kubro xalq orasidan lashkar to'plab, qo'lida qurol bilan qal'ani bir necha kun davomida dushman hamlalaridan saqlab turadi.

Najmiddin Kubro yuksak obro'ga ega bo'lsa ham, kamtarona hayot kechirgan. Ammo u kishining ba'zi muridlari mamlakat miqyosida shunchalik nufuzga ega bo'lganlarki, hatto Faxriddin Roziy kabi faylasuf va sulton Muhammad Xorazmshoh ham ularning raqobatidan xavotirlanganlar. Masalan, «Sulton ul-ulamo» laqabiga ega bo'lgan Jaloliddin Rumiyning otasi Bahovuddin Valad Balx shahrining uch yuzga yaqin faylasuf olimlari bilan bahs yurgizgan va ularni yunon falsafasi bilan ortiqcha shug'ullanishda ayblagan. Najmiddin Kubroning boshqa bir shogirdi, o'z navbatida shayx Farididdin Attorning murshidi bo'lgan xorazmlik Majiddin Bag'dodiy hokimiyatdagi ishlarni tanqid qilgani uchun qatl qilingan. Lekin uning minglab shogirdlari bo'lgan. Ba'zida sulton Muhammad Xorazmshohning o'zi ham shayxlarning huzuriga kelib, ularni ziyorat qilib turgan.

Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jangga kirib, shahid bo'lgan. Jangdan keyin, u kishining

⁵⁷ Ali Akbar Dehxudo. Lug'atnoma. 104-jild. –Tehron universiteti nashri. 1965, – B.365 (fors tilida).

jasadini darhol topisha olmagan. Chunki ul zot qiyma-qiyma qilib tashlangan edilar. Shahid bo‘lganliklari haqidagi ma’lumotni hijriy 710 (1311) yilda yozilgan Rashiddin Fazlillohning «Jomeat ul-tavorix» («Tarixlar to‘plami») asarida uchratamiz.

Chingizxon shayx Najmiddin Kubroning mashhurliklarini eshitgan bo‘lganligidan Xorazmga hujum qilish oldidan, u kishiga chopar yuborib, «men Xorazmni qatliom qilmoqchiman, shuning uchun Sizdek ulug‘vor shaxsni u yerdan ketib, bizga qo‘shilishingizni so‘rayman», degan. Ammo shayx unga javoban: «Men yetmish yil umrim davomida xorazmliklar bilan turmushning achchiq-chuchugini birga tortganman. Endi ular boshiga balo-qazolar yog‘ilayotgan paytda gochsam, muruvvatdan bo‘lmaydi»⁵⁸, degan. Hijriy 733 (1334) yilda Xorazmga safar qilgan mashhur arab sayyohi Ibn Battuta Urganch shahridan chiqqan berishdagi zoviyada Najmiddin Kubroning maqbarasi va boshqa ulug‘larning mozorini ko‘rganligini yozadi⁵⁹.

Najmiddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozganki, ular juda ko‘p tazkiralarda uchraydi. U o‘z qarashlarini arab tilida yozgan bir qator risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiylari «Favo‘ix al-Jamol va favoix al-jalol», «Al-Usul al-ashara», «Risolat al-xo‘if al-xa‘im min laumon al-la‘im» va boshqalardir.

Ma’lumki, Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida o‘z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning aqidasisiga ko‘ra, inson o‘z mohiyati e’tibori bilan mikrokosm, ya’ni kichik olamni tashkil etadiki, u makrokosm, ya’ni katta dunyo bo‘lgan koinotdagi barcha narsalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ammo ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o‘ziga xos maqomlarda joylashganligidan, haqiqat yo‘lini qidiruvchilar bunday yuksakliklarga ko‘tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo‘lishi uchun, ya’ni kamolotga erishishi uchun, ma’lum riyozatli yo‘llarni o‘tishlari zarur. Buning uchun esa, har bir kishi o‘n asosga tayanmog‘i kerak (3-ilova):

1. *Tavba* – o‘z xohishi bilan Haq taologa hech bir ko‘rsatmasiz yuzlanishdir.

2. *Zuhd fi-dunyo* – bu dunyoda ham, uning tashqarisida ham, nimaiki lazzat tomon boshlasa, undan tiyilishdir.

3. *Tavakkal* – xudoga ishonch jihatidan bu turmushdagi barcha ikir-chikirlardan voz kechishdir.

4. *Qanoat* – hayot kechirishni ta’minlaydigan oz narsa bilangina qanoatlanishdir.

⁵⁸ Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviye ma’naviy: Muqaddima. Qobul. 1982. – B.8. (fors tilida).

⁵⁹ Qarang: Ibragimov N. Ibn Battuta i yego puteshestviya po Sredney Azii. – M.: Nauka. 1988. –S.74.

5. *Uzlat* – tanholikla o‘tirib, ruhni mustahkamlash, odamlar bilan muomalani to‘xtatish: gaplashmaslik, eshitmaslik, qaramaslik va turli fe‘l- atvordan aloqani uzishdir.

6. *Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr)* – o‘z xohishicha Xudoning ismini fikrida yod qilib turish va butun qalbni u bilan to‘ldirish.

7. *Tavajjuh* – butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo‘yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir.

8. *Sabr* – o‘z ixtiyori bilan nafs doirasidan mashaqqatlar chekib bo‘lsa ham, o‘zini olib qochishdir.

9. *Muroqaba* (tafakkurga g‘arq bo‘lish) – erishilgan darajada mushohada yuritish, qalbni arziyas his-tuyg‘ulardan xoli qilib, tozalash va xotirjamlikka erishish.

10. *Rizo* – shaxsning nafs erkinligidan chiqib, Xudo xushnudligiga kirishi va azaldan nimaga ishongan bo‘lsa, o‘shani bo‘yniga olishdir.

Najmiddin Kubro shahid bo‘lgandan so‘ng, uning ta‘limotini shogirdlari davom ettirib, Markaziy Osiyo Kubraviya maktabini vujudga keltirdilar. Bu birodarlik firqasi a‘zolarini birlashtirgan narsa rasmiy tashkilot emas, balki ta‘limotning ruhi va maqsadi edi.

Kubraviya maktabi bir qator mustaqil shahobchalar vujudga kelishiga sabab bo‘ldiki, ular musulmon dunyosi Sharqida keng tarmoq otdi. Bu tarmoq kelib chiqish manbaini Kubroning boshqa bir shogirdi bo‘lgan Majiddin Bag‘dodiy (Bag‘dodak Xorazmdagi qishloq bo‘lib, undan chiqqan Majiddin 1219 yilda qatl etilgan) asos solgan tariqatdan, deb hisoblar edilar. Bular quyidagilar:

Firdavsiya – Sayfiddin Bahorziy shogirdining xalifasi bo‘lgan, 1300 yillarda vafot etgan Najibiddin Muhammad tomonidan tashkil topgan va Hindistonda (Dehli, Bihar) tarqalgan;

Nuriya – 1317 yilda vafot etgan Abdurahmon al-Isfaroiniy tomonidan asos solingan bo‘lib, Kubraviyaning Bag‘dod shahobchasi hisoblanadi;

Rukniya – o‘z kelib chiqishini 1261-1336 yillarda yashagan Rukniddin Alo‘addavla as-Simnoniydan olgan birodarlik tariqati;

Hamadoniya oliya – Kashmirda islomni yoyishda faol ish ko‘rsatgan Sayyid Ali binni Shahobiddin Hamadoniy (1314-1385) asos solgan, rukniyadan ajrab chiqqan birodarlik tariqati bo‘lib, Kubraviya tariqati silsilasining boshqa shahobchalariga qaraganda eng mashhurdir;

Ig‘tishoshiya – hamadoniya oliyaning Xuroson shahobchasi bo‘lib, Ishoq al-Xuttaloni (1423 yilda o‘ldirilgan) tomonidan asos solingan. Uning ikki shogirdi esa, ikki mustaqil shia tariqatiga asos solishgan;

Zahabiya – asoschisi XV asr o‘rtalarida vafot etgan Abdulloh Barzishobdiy Mashhadiy;

Nurbaxshiya – asoschisi Nurbaxsh (1392-1464) laqabli Sayyid Muhammad binni Muhammad.

Yuqorida aytilganlar shundan guvohlik beradiki, Najmiddin Kubro ta'limoti butun musulmon Sharqi mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, hozirda ham uning ko'rinishlarini uchratish mumkin.

Kubroviyada quyidagi o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlanadi:

Najmiddin Kubro «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» hadisi sharifiga amal qilgan. U diniy, ilohiy, laduniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlarni ham o'rganishga erishdi. Diniylikni dunyoviylik bilan bog'lashga harakat qilish ushbu tariqatning asosiy xususiyatidir.

Xojagon tariqati va Bahouddin Naqshband

Mu'tazila ta'limoti Markaziy Osiyoda diniy-falsafiy ta'limotlarni vujudga kelishi uchun g'oyaviy zamin tayyorladi. Bularga ismoiliylar, qarmatlar va tasavvufni misol keltirish mumkin. Umuman olganda, mashhur sharqshunos YE.E. Bertels fikricha, mu'taziliylar ta'limoti tasavvufga sezilarli ta'sir ko'rsatdi⁶⁰.

Tasavvuf nazariyotchilari Abu Homid G'azzoliy (1058-1111), Shahobiddin Yahyo as-Suxravardiy (1115-1191), Ibn Arabiy (1165-1240) va boshqalar o'z davrining bilimlarini puxta egallagan, turli bilim sohalaridan xabardor mutafakkirlar edilar.

Al-G'azzoliy ta'limoti tufayli, tasavvuf musulmon ruhoniylari tomonidan tan olindi. G'azzoliy tavhid mohiyatini anglab yetmoq uchun aql va mantiqning o'zi kifoya qilmasligini tan olib, tasavvuf irfoni qadriyatlarini himoyasiga o'tadi⁶¹.

X asrdayoq Markaziy Osiyoda tasavvuf bo'yicha ayrim risolalar yozilgan va ular tasavvufning mintaqada ommalashuviga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Bular Hakim Termiziyning (vaf. 908) «Kitob xatm al-vilaya»⁶² va Muhammad ibn Ibrohim Buxoriy Kalobodiyning (vaf. 995) «Kitob at-tarruf li mazhab ul-tasavvuf» nomli asarlari bo'lib, ular tasavvufning so'nggi rivojiga g'oyaviy manba bo'ldi. Markaziy Osiyoda tasavvufning tarqalishini ikki so'fiy: Abdul Hasan Ali al-Xaraqoniy (vaf. 1034) va Abu Ali al-Farmoziy (vaf. 1084) nomlari bilan bog'lash o'rinli.

Abu Ali al-Farmoziyning ikki shogirdi Abu Ahmad al-G'azzoliy (vaf. 1126) va Yusuf Hamadoniy irfoniy izchillikni davom ettirdilar. Yusuf Hamadoniy ta'limotidan ikki tasavvuf maktabi – Yassaviy va Xojagon

⁶⁰ Qarang: Bertels YE.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. T. 3. –M.: Nauka, 1965. – S.28.

⁶¹ Qarang: Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlari. –T.: Sharq, 1996. –B.63.

⁶² Trimingem D. S. Sufiyskiye ordena v islame. –M.: Nauka, 1989. –S.51.

tariqatlari kelib chiqdi. Yassaviya tariqati Ahmad Yassaviy, Xojagon tariqati esa, Abduxoliq G'ijduvoniylar nomlari bilan bog'liq⁶³.

Xojagon tariqati XII-XIV asrlar davomida faoliyat ko'rsatdi.

Xojagon tariqatining asoschisi Xoja Abduxoliq G'ijduvoniylar (1103- 1179) bo'lib, u Buxoro yaqinidagi G'ijduvon tumanida tavallud topgan.

«So'ngra shayxush-shuyux olim va orifi rabboniylar Xoja va imom Abu YA'qub Yusuf Hamadoniylar Buxoroga kelib turlar va Xoja Abduxoliq alar suhbatig'a yetib turlar va ma'lum qilib turlarki, alarda ham ko'ngil zikri bor. Alar suhbatida bo'lur ermishlar va ma'lum qilib turlarki, to alar Buxoroda ermishlar, deb turlarki, Xoja alarning saboqi va zikri piridurlar va Xoja Yusuf suhbat va xirqalari piri Xoja Yusufdin»⁶⁴, - deb yozadi Xazrat Navoiylar.

Abduxoliq G'ijduvoniylar Hamadoniylar ta'limotini yangi amaliyotlar bilan boyitdi va mustaqil bir sulukka asos soldi.

Xojagon tariqatining yirik namoyandalaridan biri, Hazrat Azizon nomi bilan mashhur bo'lgan Xoja Ali Romitoniylar. Turkiylar tildagi manbalarning guvohlik berishicha, Romitoniylar 1195 yilda Romiton qishlog'ida tug'ilib, shu yerda 1321 yili vafot etgan.

Xojagon tariqatining mashhur vakillaridan biri, Sayid Amir Kalon as-Suxoriylar edi. Manbalarda uning tug'ilgan yili ko'rsatilmagan. Sayid Amir Kalon Suxor qishlog'ida tug'ilib, kulolchilik kasbi bilan hayot kechirgan. Shuning uchun xalq orasida Amir Kulol⁶⁵ nomi bilan mashhur bo'ldi. Uning haqida ma'lumot «Maqomoti Miri Kulol» da saqlangan.

Amir Kulol, Muhammad Boboylar Samosiylar o'gitiga asosan bor bilimlarini Bahouddin Naqshbandga berganidan so'ng ijozat berib, unga boshqalardan ta'lim olishini aytadi. Shundan so'ng, Naqshband yetti yil davomida orif Degaroniylar ta'lim olgan. Hazrat Amir Kulol hijriylar 772, milodiy 1370 yili vafot etdi.

Xojagon tariqatidagilar Tangriylar haq deb, unga yetishish, uni bilish va tanishni haqiqatga erishish, deb bilganlar.

Xojagon tasavvufiylar ta'limotining falsafiy asosi «vahdati-vujud» bo'lib, borliq – yagona asl zotning tajalliysi, nuri deb qaraladi. Ular ta'limoti bo'yicha, butun borliq Haqning jamol va jalolining tajalliysi va ko'rinishlaridir. «Qalb to'la soflikni topganidan so'ng, - deb yozadi Xoja Ali Romitoniylar, - unda vahdoniyatning nuri porlar, u tajalliylar ahli

⁶³ Qarang: Muminov I.M. Filosofskiylar vzglyadi Mirzi Bedilya (Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari). –T.: Fan, 1957. –S.14.

⁶⁴ Navoiylar A. Nasoyim ul-muhabbat. To'la asarlar to'plami. 10-jild. –T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011. –B.301.

⁶⁵ Qarang: Shahobiddin ibn bintu Amir Hamza. Maqomoti Miri Kulol. 1436 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 1158. –B.2.

bo‘lur»⁶⁶. Turk olimi Usmon Turorning fikricha, «vahdati vujud» aqliy dalil bilan emas, qalbiy mushohada, zavq va hol bilan erishiladigan bir «irfon» bo‘lib, aqliy nazariy emas»⁶⁷.

Abdulxoliq G‘ijduvoniylarning ilmni har tomonlama va chuqur o‘rganishga, har qanday amalni ixlos bilan ado etishga da’vat qiladi. «Islom asosi uchun etgaysiz sidqi ixlos bilan eting»⁶⁸ – deydi o‘g‘itlarida G‘ijduvoniylar.

Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoniylar va Bahouddin Naqshband so‘fiylar amal qilishi lozim bo‘lgan 11 ta xulq-odob qoidalarini ishlab chiqqanlar. Bular «rashha» deb atalib, shulardan uchtasi Hamadoniyga, to‘rttasi G‘ijduvoniylarga, yana to‘rttasi Naqshbandga tegishlidir.

Naqshbandiya tariqatining asosiy diniy-falsafiy g‘oyalari quyidagi uch manbaga tayanadi:

a) tariqatning o‘n bir rashhasi (qoida). Ulardan to‘rt mashhur kalima (chahor kalima): «Hush dar dam», «Hilvat dar anjuman», «Nazar bar qadam», «Safar dar vatan» asosiy qoidalardir;

b) tariqatning asosiy shiori bo‘lgan «Dil ba Yoru, dast ba kor»;

v) naqshbandiyona hikmatlar, ya’ni yuksak insonparvarlikni, halolu poklikni yoritishga qaratilgan Naqshband «viridlari», ya’ni iltijo, nido va o‘g‘itlari tashkil etadi (4-ilova).

G‘ijduvoniylar va Bahouddin Naqshband hazratlari o‘n bir rashhada lo‘nda ifodalangan ta’limotni yaratganlar.

1. «*Xush dar dam*». Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, olam ikkiga: foniy va boqiy dunyoga bo‘linadi. Bu olam foniy – o‘tkinchi dunyodir. Inson uchun cheklangan miqdordagi bu dunyoni g‘animat bilib, uning har bir lahzalarini xursandchilik va shukronalik bilan o‘tkazmoqlik lozim bo‘ladi.

2. «*Nazar bar qadam*» qoidasi kishining hayotida qo‘yadigan har bir qadami nazorat ostiga olinmoqligini ta’kidlaydi. Bu qoida o‘zlikni tanishga, idora etishga qaratilgandir. Bunda inson har bir qo‘yilgan qadamini, har bir so‘zini va fe’li-xayolini nazorat qilib turmog‘i lozim. Har bir insonning o‘z-o‘zini nazorat qilishi esa, uni komillikka, Haqqa tomon yetaklaydi.

3. «*Safar dar vatan*». Inson borki, u sayyohdir. Uning xayoli ham, jismi ham sayr etadi. Islomda safarning eng oliysi – bu Haq yo‘liga safardir. Tiriklikda esa, kishining eng oliy safari Haj safaridir. Tasavvufda darvesh-qalandarlarning asosiy xususiyati safar qilib, hayot kechirish bo‘lgan. Bu tartib naqshbandiyada ham o‘z ifodasini topgan.

4. «*Xilvat dar anjuman*». Uning oddiy ifodasi jamoa ichida yakkalik, yolg‘izlik, ya’ni faqat xudo haqida o‘ylab o‘tirishlikdir. Hazratdan «tariqatingizning asosi nimadan iborat?», deb so‘raganlarida, «xilvat dar

⁶⁶ Romitoniylar Xoja Ali. Risolai Hazrat Azizon. 1327 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 12548/II. –B.25.

⁶⁷ Usmon Turor. Tasavvuf tarixi. –T.: Istiqlol, 1999. –B.155.

⁶⁸ G‘ijduvoniylar Xoja Abdulxoliq. Vasiyatnoma. Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasi, inv. –№ 3844. V. –B.147.

anjuman, ba zohir bo xalq va ba botin bo Haq» («Halq orasidagi o‘tirishlarda tashqi tomondan go‘yo ular bilan, ammo ichki tomondan faqat Xudoni o‘ylab o‘tirish»), -deb javob berganlar.

5. «*Yodkard*» – bu qoida «Rashaxot»⁶⁹da bayon etilishicha, lisoniy yoki qalbiy zikrdir. Yodkard (Xudoni doimo eslash) qoidasidan keyingi uch maqom avvalgi maqom-qoidalarni mazmunan to‘ldirib boradi. Yodkardning ma‘nosi tariqatdagi so‘fiylar foniylar dunyoda hamisha haq yodi bilan yashamog‘i lozimligini anglatadi.

6. «*Bozgasht*» – buning ma‘nosi inson umrining foniyligi, ushbu yorug‘ dunyodan albatta narigi, ya‘ni boqiy dunyoqa qaytib borishi ta‘kidlanadi.

7. «*Nigohdosht*» – buning ma‘nosi kishi o‘zini har qanday shaytoniy nafs qutqusidan pok saqlashi kerakligini uqtiradi.

8. «*Yoddosht*» – haq subhanahu va taoloni doimo zavqu-shavq bilan yodda (xotirada) tutib, ogoh bo‘lishdir.

Ma‘lumki, naqshbandiya tariqatida Bahouddin Naqshbandning o‘zlari asos solgan rashhalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular uchta bo‘lib, tariqatning 9, 10, 11-rashhalarini tashkil etadi:

9. «*Vuqufi zamoniy*» – buning ma‘nosi so‘fiy o‘z umridagi har bir lahzani, soniyani Allohga shukr aytish bilan va uning bandalariga faqat yaxshilik qilish bilan o‘tkazmoqlikni bildiradi.

10. «*Vuqufi adadiy*» – buning ma‘nosi zikr jarayonida tartib, son alohida o‘rin tutishligini qayd etishdan iborat. «... ul zikrda adadni rioya etmakdin iboratdur»⁷⁰. Muqaddas duolarni, kalimalarni zikr qilinishini sanash, ularni bilish va ularga rioya qilish kerakligini uqtiradi.

11. «*Vuqufi qalbiy*» – buning ma‘nosi so‘fiyning zikri qalban bo‘lmog‘i zarurligini ifodalaydi.

Naqshbandiya tariqatiga binoan, yuqoridagi o‘n bir muqaddas qoidalarni mukammal bajargan kishi komil inson darajasiga yetishadi.

Naqshbandiyaning asosiy rashhalari bilan birga «Dil ba Yoru, dast ba kor» shiori ushbu tariqat negizini tashkil etadi:

1) Inson Alloh yaratgan mavjudotlarning eng sharaflisi va a‘losidir. Uning Zotining tajalliysidir. Demak, uning borligi ilohiy borliq bilan uzviy birlikda bo‘ladi, degan fikrni uqtiradi;

2) Alloh insonga aql, besh sezgi, shuur, iroda bergan; say-harakat, baxt-saodatga eltuvchi yurak berib, uni ezgulikka da‘vat etadi, ya‘ni bunda dil Alloh makoni ekanligi ta‘kidlanadi.

3) Insonning Allohga, hayotga va boshqa tirik jonzotlarga, kishilarga bo‘lgan murakkab munosabatlarining yana bir muhim qirrasini – til va dil zikridagi farqlarni yoki mutanosiblikni kashf qiladi. Dil bilan qilinadigan munosabatlar jamiki hayotiy munosabatlarning eng ahamiyatlisidir;

⁶⁹ Faxruddin Ali Safiy. Rashahot (obi hayot tomchilari). –T.:Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. –B.36.

⁷⁰ O‘sha asar. –B.39.

4) Inson o'z hayotida eng og'ir musibatlar chog'ida ham o'zini yo'qotmay, insonlik sha'nini yuksak tutib yashashi, hur va go'zal inson bo'lishi zarurligini anglatadi;

5) Insonning hayotdan, o'zini buyuk zot – inson ekanligidan, Alloh bergan ne'matlardan roziligini chuqur va lo'nda ifoda etadi;

6) Bu shior bizni Alloh haqi, adl-insof, ezgulik yo'liga da'vat qilishini, inson hayotidan maqsad adl-insofni ro'yobga chiqarish, saodatga erishish ekanligini anglatadi;

7) Kishi qalbida Alloh bo'lishi, yaratgan ojiz bandasini har qanday salbiy o'y-xayol, fikr, xatti-harakatlar va faoliyatdan qaytarib turishini ta'kidlaydi;

8) Alloh hayotdagi haqiqatsevar, adolatli, ezgulik yo'lida yurgan har bir bandasini o'z karami bilan mukofotlashini ifodalaydi;

9) «Dil ba Yoru, dast ba kor»da asosiy g'oya – inson qalbi muttasil Alloh yodi bilan, inson qo'li, amaliyoti esa, ijtimoiy foydali mehnat, kasb- hunar bilan band bo'lmog'i ta'kidlanadi.

Bahouddin Naqshband dunyoqarashini ifoda etuvchi yana bir omil, bu uning purma'no irfoniy hikmatlari, o'git, iboralaridir. Ulardan: «Agar do'st aybiga boqsak, do'stsiz qolamiz, hech kim dunyoda beayb emas»; «Sabr va chidamda nog'ora kabi bo'lmoq lozimki, u qanchalik shapaloq yemasin, biroq o'z odatiga xilof ovoz chiqarmaydi»; «Shamga o'xshagin, toki hammaga ravshanlik bag'ishla, o'zing esa, qorong'uda bo'l» kabi bir qator o'gitlarini ko'rsatish mumkin.

Naqshbandiya tariqat amaliyoti o'z tarixiy taraqqiyotida quyidagi juda murakkab va shiddatli davrlarni bosib o'tgan:

I davr. Naqshbandiya tariqati jamoasining shakllanishi va asosiy amaliy talablarining ishlab chiqilishi 1342-1347 yillardan to 1358 yili Amir Qazag'onning o'ldirilishi bilan bog'liq siyosiy beqarorlik, Amir Temurning siyosat maydoniga kirib kelishi (1360-1361) davrini o'z ichiga oladi.

II davr. 1361 yildan boshlab, to Amir Temur vafotigacha, undan keyingi davrda (1420 yillargacha) xojagon-naqshbandiya tariqati siyosiy ta'qib ostida bo'lsa-da, tashkiliy jihatdan mustahkamlanib o'zining jo'g'rofiy, etnik-siyosiy ta'sir doirasini kengaytira borgan.

III davr. 1420 yildan keyingi davr. Bu davrdan boshlab naqshbandiya Xoja Ubaydulloh Ahror, Muhammad Qozi, Maxdumi A'zam, Ofoq Xoja va boshqa naqshbandiya murshidlari faoliyati davrlari, ya'ni XV asrdan to XX asrgacha jamiyat, davlat taraqqiyotining barcha jabhalarida milliy ozodlik harakatlari kurashining mafkurasi bo'lib qoldi. Xuddi mana shu 3-davrning boshida naqshbandiya kambag'allar najoti uchun kuchli ijtimoiy himoya tizimini vujudga keltirdi. Xonaqohlarda yo'llovchi darveshlarga, musofirlarga, yetim-yesirlarga boshpana va yegulik berilar edi.

Nazorat savollari:

1. *Tasavvuf qanday ta'limot edi?*
2. *Tasavvuf falsafasining asosiy mohiyati nima edi?*
3. *Tasavvuf ta'limotining asoschilari kimlar edi?*
4. *Ushbu diniy-falsafiy ta'limotga qaysi ta'limotlar- dagi
g'oyalar ta'sir ko'rsatgan?*
5. *Tasavvufda borliq muammosi qanday muhokama qilingan?*
6. *Vahdati-vujud nima?*
7. *Kubroviya maktabi sababli qanday mustaqil shahobchalar vujudga keldi?*
8. *Xojagon tariqatiga qaysi tariqatlar kiradi?*
9. *O'rta asrlarda Sharq ma'naviy hayotida tasavvuf qanday vazifani bajarib berdi?*
10. *Tasavvuf falsafasini o'rganish Mustaqil O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalashga doir qanday ijobiy xulosa lar keltirib
chiqarishi mumkin?*

Adabiyotlar

1. *Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.*
2. *Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. To'la asarlar to'plami. 10-jild. – T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011.*
3. *Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. – T.: Sharq, 1996.*
4. *Islom tasavvufi manbalari. (Tasavvuf nazariyasi va tarixi). Tuzuvchi prof. H. Boltaboyev. – T.: O'qituvchi. – 2005.*
5. *Usmonov O. Ahmad Yassaviy. // Ma'naviyat yulduzlari. – T.: A.
Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.*
6. *Usmon Turor. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999.*
7. *Faxruddin Ali Safiy. Rashahot (Obi hayot tomchilari). – T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.*
8. *O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akademik Xayrullayev M.M. tahriri ostida. – T.: O'zbekiston, 1995.*
9. *Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). – T.: TDSHI nashriyoti. 2010.*
10. *G'ijduvoniyo Xoja Abdulxoliq. Vasiyatnoma. Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasi, inv. – № 3844. V.*
11. *Bertels YE.E. Sufizm i sufitskaya literatura. T. 3. – M.: Nauka, 1965.*
12. *Knish A.D. Musulmanskiy mistitsizm. – M.–S. Peterburg: Dilya, 2004.*
13. *Ibragimov N. Ibn Battuta i yego putestestviya po Sredney Azii. – M.: Nauka. 1988.*

14. Muminov I.M. *Filosofskiye vzglyadi Mirzi Bedilya (Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari)*. –T.: Fan, 1957.
15. Xismatulin A.A. *Sufizm*. –S.Peterburg: Peterburgskoye vosto-kovedeniye, 2008.
16. Trimingem D.S. *Sufiyskiye ordena v islame*. –M.: Nauka, 1989.
17. Ali Akbar Dehxudo. *Lug‘atnoma. 104-jild*. –Tehron universiteti nashri. 1965 (fors tilida).
18. Komil Mustafo al-Shaybiy. *Al-Halloj devonining sharhi*. –Bayrut- Bag‘dod. 1394/1974 (arab tilida).
19. Mavlono Jaloliddin Rumi. *Masnaviye ma‘naviy: Muqaddima. Qobul*. 1982 (fors tilida).
20. Romitoniyo Xoja Ali. *Risolai Hazrat Azizon. 1327 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 12548/II*.
21. Faxruddin Ali as-Safiy. *Rashahot ayn-ul-hayot. O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma asarlar xazinasi. Inv. –№ 3593. Litografiya. Laknau. 1890 (fors tilida)*.
22. Shahobiddin ibn bintu Amir Hamza. *Maqomoti Miri Kulol. 1436 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 1158*.

3-MAVZU: ABDURAHMON JOMIY, ALISHER NAVOIY, BOBUR VA BOSHQA KO‘PLAB BUYUK FAYLASUFLAR, SHOIR VA MA‘RIFATPARVARLARNING IJODIY MEROSIDA AKS ETGAN IJTIMOVIY-FALSAFIY FIKRLAR, ULARNING GUMANISTIK XARAKTERI.

Reja:

4. Abdurahmon Jomiy hayoti va faoliyati.
5. Abdurahmon Jomiyning tasavvufga munosabati.
6. Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari.

Tayanch tushunchalari: Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, tasavvuf, Naqshband suluki, «Nafahot ul-uns», «Lujjat ul-asror», «Ashirat ul-lamaot», «Risolai musiqiy», «Risolai muammo», so‘fiyona kayfiyat, tasavvufiy xayolot, «Majolis un-nafois», «Nasoyim ul-muhabbat», «Lison ut-tayr», «Mantiq ut-tayr», qush tili, ibrat, ilm, irfon va amal, «majoz tariqi».

***Abdurahmon Jomiy hayoti va faoliyati
(1414-1492)***

Abdurahmon Jomiy Hirotda tasavvuf yo‘liga kirishni, o‘z bilim va faoliyatini shu yo‘lga, qolaversa ijodga, ilm-fanga bag‘ishlashni afzal ko‘radi.

Yosh Jomiy Shayx Sa'diddin Qoshg'ariy bilan yaqinlashib, unga qo'l beradi va tez orada uning hurmatini qozonadi. Jomiy pirining qiziga uylanadi. Sa'diddin Qoshg'ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulukiga mansub edi.

Jomiy kundalik hayotida oddiy, darvishona yashasa ham, biroq shoh va unga aloqador kishilarning, hatto uni asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat podshohlarining unga muruvvati katta edi. Shuning uchun u o'ziga tushgan daromadlar hisobiga bir qancha binoyi xayriyalar, shu jumladan Xirotda ikki madrasa va xonaqoh, tug'ilgan shahri – Jomda bir masjid qurish imkoniyatiga ega bo'lgan.

XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy va adabiy hayotda yuz bergan ibratli hodisalardan biri Navoiy-Jomiy munosabatlaridir. Bu ikki buyuk zot ijod sohasida xalqparvarlik va insonparvarlik mavqesida turish bilan birga xalq, davlat ishlarida insof va adolatni yoqlar edilar. Jomiyning «Nafahot ul-uns», «Lujjat ul-asror», «Ashirat ul-lamaot», «Risolai musiqiy», «Risolai muammo» kabi bir qancha asarlari Navoiyning maslahati va iltimosi bilan yozilgan⁷¹.

Jomiyning shaxsiy maktublaridan ma'lum bo'lishicha, u yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mazoratlarni ziyorat qilgan.

Taniqli sharqshunos YE.E. Bertels «Jomiy» monografiyasida shoir asarlarining Toshkent kulliyoti (O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozma inv. № 2122) asosida 52 asarining nomini keltiradi.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir Islom dini va Sharq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin qiladi, tasavvufning XV asrdagi eng yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning «Naqshi fusus» («Ma'nolar naqshi»), «Shavohidi nubuvva» («Payg'ambarlikka dalillar»), «Sharhi qasidayi «Toiya» (radifda «to» harfidan foydalanib yozilgan qasida sharhi), «Naqdi nusus» («Matnni tanqid»), «Sharhi qasidayi «Xamriya» («Xamriya» qasidasi sharhi), «Naqshbandiy ta'limoti haqida risola», «Vohid» atamasi haqida risola», «Zikr» shartlari haqida risola», «Haj qilish yo'llari haqida risola», «Ashiot ul-lamaot» kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin (1-ilova).

⁷¹ Qarang: Hayitmetov A. Abdurahmon Jomiy.// Ma'naviyat yulduzlari. –B. 202.

Abdurahmon Jomiyning tasavvufga munosabati

Jomiy o'zining mutasavvuflik faoliyatida Bahovuddin Naqshband g'oyalarini shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasi – Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan holda yanada rivojlantirdi. Rasman u o'zini kundalik hayotda «Malomatiya» tariqatiga mansub, deb hisoblasa-da, asarlarida Naqshbandga ixlosi baland edi. U o'zining «Lujjat ul-asror» qasidasida so'fiy xulq-axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning oliyjanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanliklarini madh etib, quyidagi satrlarni bitgan edi:

*Tome'on az bahri tu'ma peshi har xas sar nihad,
Qone'onro xanda bar shohu vaziri kishvar ast.*

Mazmuni:

Ta'magirlar bir luqma uchun boshini xasga qo'yishga tayyor,
Qanoatlilar esa, mamlakat shohi va vaziri ustidan ham kula oladi.

Shoir fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa, u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rishi zarur:

*Mardi kosib k-az mashaqqat mekunad kafro durusht, Bahri
nohamvoriyi nafsi dag'al suxongar ast.*

Mazmuni:

Kosib odam mehnat tufayli qo'lini qavartiradi,
Bu qo'ldagi dag'al esa, nafs g'adir-budurini tekislovchi randadir.

Jomiyning tasavvufga bo'lgan e'tiqodi sof va mukammal bo'lib, u Xudoni yorug' nur ko'rinishida tasavvur etar edi.

Jomiy «Nafahot ul-uns» asarini yaratish bilan tasavvuf tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Unda 616 mutasavvuf hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 tasi ayollardir. Jomiy vafotidan keyin bu asarni Navoiy ma'lum to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilishi bejiz emas edi.⁷²

Jomiy she'riy merosining yirik tadqiqotchisi A. Afsaxzod u to'g'risida yozgan edi: «Jomiydagi so'fiyona kayfiyat, uning ijodiy yo'lining eng ibtidosidan boshlangan edi»⁷³.

Jomiy lirik she'riyatida real hayot bilan tasavvufiy xayolot shoirning ijodiy fantaziyasi orqali birlashib ketgan.

⁷² Qarang: O'sha joyda. –B.203-204

⁷³ A'loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami. –M., 1988, –S.184.

Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari (1441-1501)

Alisher Navoiy XV asrning oxirgi o'n yilligida o'zining «Majolis un-nafois» va islom ma'naviyatining buyuk siymolari, xususan, turk, fors, hind mashoyixlari tarixiga oid «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabbodasi») risolalarini yozadi. Bu asarlar nihoyatda muhim manba bo'lib, o'sha davr ma'naviyatining jonli siymolaridan mingga yaqin kishi haqida qimmatli ma'lumotlarni o'zida jam' etgan. Bundan tashqari nafaqat tasavvuf irfoni va adabiyoti, balki islom davri ma'naviyatining boshqa muhim jihatlari haqida ham ko'plab nazariy mulohazalar ushbu asarlar qatidan joy olgan bo'lib, ularni mufassal tadqiq etish milliy ma'naviyatimizni xolis anglab yetishda bugungi avlodlar uchun benazir manba va asos bo'lib xizmat etadi⁷⁴.

Navoiy 1498 yilda «Lison ut-tayr» («Qush tili»), 1499 yilda «Muhokamat ul-lug'atayn», 1500 yili «Mahbub ul-qulub» asarlarini yozdi. Bu uch asar buyuk shoir va mutafakkir ijodining avj nuqtalari edi. Adib «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi»)da o'zining butun ijodiy yo'lini sarhisob qilib, turkiy tildagi she'riyatning qudratini ta'kidlagan. Unda, jumladan, quyidagi ma'lumot bor: «Chun «Lison ut-tayr» ilhomi bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorini majoz suratida ko'rguzupmen».

Alisher Navoiy go'daklik chog'laridan tasavvuf she'riyatining ustози Farididdin Attor yaratgan «Mantiq ut-tayr» asariga mehr qo'ygan edi. Umrining oxirida ushbu asarga tatabbu – javob yozar ekan, o'zining shungacha yozgan barcha asarlariga falsafiy yakun yasaydi. Attor asari Borliqning yagona mohiyati haqida, Haq asrori va inson uchun uni anglab yetish imkoni darajasi haqida edi. «Lison ut-tayr» mazmuni «Mantiq ut-tayr»ga zid yoki undagi fikrlarning takrori ham emas, balki yangi tarixiy-ma'naviy bosqichdagi sharhi, talqinidir.

Attorning qushlar tilidan yozilgan dostonida irfoniy ehtiros nihoyatda jo'shqindir. Navoiy esa, bosiq voqeaband tasvirga urg'u beradi, qushlar sarguzashtida va ichki hikoyalarda hayotiylikni kuchaytiradi. Bu bejiz emas. Oxirgi xulosada Navoiy salafiga qaraganda olg'a ketadi, masala

⁷⁴ Qarang: Imomnazarov M. Alisher Navoiy. //Ma'naviyat yulduzlari. –B.208.

mohiyatini teranroq his qiladi va badiiy tasvirni ham shunga munosib yaratadi.

Nihoyat Navoiy oxirgi asari «Mahbub ul-qulub» («Ko‘ngillarning sevgani») risolasida barcha savollarga yana o‘zi javob bergan. Bu asar tom ma’noda ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalarga to‘liq bo‘lib, XV asrda mavjud bo‘lgan barcha ijtimoiy toifalar mohiyati mufassal ochib berilgan, ijtimoiy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi, yaxlitligi ishonarli ta’kidlangan.

Alisher Navoiy o‘zi va salaflari – Nizomiy, Dehlaviy, Hofiz, Iroqiy va boshqalar yaratgan mustaqil badiiy tafakkur tarzini «majoz tariqi», deb nomladi va unda Haq asrori «majoz suvratinda» aks etishini ta’kidlagan. Bu Borliqni o‘ziga xos idrok etish tarzi Naqshbandiyaning: «Dil ba Yoru, dast ba kor», qoidasiga muvofiq bo‘lib, unda ibrat, ilm, irfon va amal bir nuqtada birlashar va yangi dunyoga ko‘z ochardi. Tavhid ta’limoti va e’tiqodini idrok etishning eng yuqori bosqichi bo‘lgan bu diniy dunyoqarash tizimi «Xamsa» va «Lison ut-tayr» asarlarida, shoir lirikasida badiiy in’ikosini topgan.

Nazorat savollari:

1. Tasavvufiy she’riyat namunalaridan nimalarni bilasiz?
2. Abdurahmon Jomiyning qaysi asarlar tasavvufiy ruhda yozilgan?
3. Jomiy ijodidagi tasavvufiy qarashlarga qaysi tasavvuf maktabining ta’siri kuchli bo‘lgan?
4. Jomiyning tasavvufiy qarashlarida qanday g‘oyalar ilgari surilgan?
5. Alisher Navoiy sufiy bo‘lganmi yoki yo‘qmi?
6. Navoiy «Lison ut-tayr» asarini yozishiga nima sabab bo‘lgan?
7. Alisher Navoiyning ma’naviy-irfoniy qarashlarini o‘rganishning dolzarb ahamiyati nimada?
8. Shu davrga xos yana qanday tasavvuf shoirlarini bilasiz?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Navoiy A. «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub». To‘la asarlar to‘plami. 9-jild. – T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011.
3. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. To‘la asarlar to‘plami. 10-jild. – T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011.

4. Imomnazarov M. Alisher Navoiy.// Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
5. Islom tasavvufi manbalari.(Tasavvuf nazariyasi va tarixi). Tuzuvchi prof. H.Boltaboyev. – T.:O'qituvchi. –2005.
6. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akademik Xayrullayev M.M. tahriri ostida. –T.: O'zbekiston, 1995.
7. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). –T.: TDSHI nashriyoti. 2010.
8. Hayitmetov A. Abdurahmon Jomiy.//Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
9. A'loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami. –M.: 1988.

4. MAVZU: XVI-XVIII asrlarda Movaraunnahrda falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy va tasavvufiy g'oyalarning rivoji

Reja

1. XVI-XVIII asrlar ijtimoiy-falsafiy fikrining umumiy xususiyatlari va ijtimoiy-siyosiy ahvol.
2. Yusuf Qorabog'iy va Muhammad Sharif Buxoriy dunyoqarashi.
3. Boborahim Mashrab ijodiy merosida diniy va tasavvufiy g'oyalar.

Tayanch tushunchalar:

Markaziy Osiyo, Yusuf Qorabog'iy, Muhammad Sharif Buxoriy, imkoniy narsa, zaruriy narsa, yuqori turuvchi, quyida joylashgan, cheksiz ko'payuvchi, Mashrab, tasavvuf, sababiy bog'lanish.

XVI – XVII asrlar markaziy Osiyo hayotida burilish davri bo'ldi. temuriylar hokimiti Shayboniyxon tomonidan ag'darib tashlandi. Shayboniylar hukmronligi davrida markaziy davlat barpo qilishga urinib ko'rildi. So'ngra hokimiyat Ashtarxoniylar sulolasi qo'lga o'tdi. O'zaro feodal nizolari o'z cho'qqisiga chiqdi. Uch davlat tashkiloti paydo bo'ladi – oldin Buxoro amirligi va Xiva xonligi, XVIII asrning oxirida esa – Qo'qon xonligi. Umuman XVI – XVII asrlardagi Movarounnahrdagi vaziyatni quyidagicha ta'riflash mumkin:

- Qachonlardir iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan mintaq bo'lgan Markaziy Osiyo – yangi, kapitalistik ishlab chiqarish vositasiga asoslangan rivojlanish yo'lidani borayotgan Evropa mamlakatlaridan orqada qola boshladi;

- ayni bir vaqtning o'zida, bir tomondan, markazlashishga bo'lgan tamoyil bilan bog'liq bo'lgan, ikkinchi tomondan esa, o'zaro urushlar ta'sirida shakllangan davlatlarning bo'linishlarining kuchayishiga sabab bo'lgan qarama-qarshi jarayonlar o'zaro mavjud edilar;

- markaziy davlat barpo qilish uchun olib borilgan kurash milliy davlatlarning irqiy tarixiy asosda shakllanish jarayonining, jumladan, Buxoro amirligining mohiyatli tamoyillaridan birini ifoda qilar Ediki, bunday intilish keyinchalik Rossiya tomonidan Markaziy Osiyoni bosib olinishi bilan barham topdi.

Mavoraunnahrda adabiyot va tasviriy san'at, tarix va falsafa, me'morchilik va binokorlik san'ati rivojlanishda davom etdi. Samarqand, Toshkent va ayniqsa, Buxoro madaniy faoliyat markazi sifatida o'z mavkellarida qolgan edilar. XVI – XVII asrlar adabiyoti Turdi, Mashrab, Mavlono, Vafoiy, Nodir, Mullo Mastiy, Ravnaq, Roqim, Andalib, Nishotiy, Umar Boqiy, akmal kabi siymolar ijodida o'z aksini topgan edi. markaziy Osiyodan chiqqan XVII asrning ko'plab shoirlari o'z tug'ilgan joylaridan yiroqda yashadilar va ijod kildilar. Shavkat Buxoriy (vaf. 1695) Hindiston. Afg'oniston, Eronda yashadi; Mullo Mulham – Hindistonda, Muhammad Solih Samarqandiy – Buxoro, Balx. Hindiston, Lahorda. Boburiylar davrining Hindiston tarixchisi Abdulqodir Badayuniyning guvohlik erishicha, hind adiblari bo'lgan guluy, Kashmiriy, Kamoliy, mahsumiy, ramziy, Lohuriy, Jomiy, Kobuliy va fayzi Dukkoniyalar Mavoraunnahr shaharlarida bo'lgan edilar. Arab va fors yillarida yozilgan bir qator tarixiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. XVI asrda ilm-fan alohida murakkab vaziyatga tushib qoldi. Bu davrda biz endi Ulug'bek va Ali Qushchi kabi yirik olimlarni ko'rmaymiz.

XVI asrdan boshlab Movarounnahr falsafiy fikr ikki asosiy yo'nalishda rivojlanadi.

Birinchi yo'nalish – Mirzajon Sheroziy, Yusuf Qorabog'iy, Muxammad Sharif Buxoriy kabi mutafakkirlar va boshqalar ijodida o'z ifodasini topgan Mavoraunnahrning o'zidagi ijtimoiy-falsafiy fikr rivoji.

Ikkinchi yo'nalish - Markaziy osiyodan chiqib, Hindistonda ijod qilgan mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan falsafa. Boburiylar imperiyasining uch yuz yil davomidagi mavjudligi markaziy Osiyo va unga qo'shni bo'lgan boshqa mamlakatlar tarixida chuqur iz qoldirdi. Bobur davlatining jug'rofiy jihatdan alohida uzoq o'lkada joylashganligiga qaramasdan, uning ma'naviy hayoti hamisha Mrakaziy Osiyo madaniyatining bir qismi bo'lib qolaverdi. Negaki, u va uning vorislari bu madaniyatga

taalluqli bo'lib, o'z faoliyatlarida ushbu madaniyat an'analarini rivojlantirishda davom etdilar.

XVI asrning boshida Eronda shialikning rasmiy mazhab sifatida e'lon qilinishi munosabati bilan madaniyat vakillaridan ko'pchilik qismi ta'kiblarga uchraganli tufayli sababidan Mavoraunnahr va Hindistonning bir-birlariga yaqinlashishlariga muhim omil bo'ldi. ulardan kupchiligi mavoraunnahr va Hindistondan boshpana topdilar. Hukmron g'oyaviy oqim islom mafkurasi bo'lgan kalom edi. faylasuflarning dunyoqarashi u yoki bu jihatdan ham o'z kelib chiqishi tayanchida diniy mafkuraga ega edi. ularning ko'p yutuqlari diniy jihatdan shakllangan edi. Ammo bu voqeylikni mutlaqlashtirish kerak emas, negaki, u bilan bir qatorda muayyan falsafiy g'oyalar islom mafkurasiing turli jihatlaridan farq qilar edilar. Bu davr ijtimoiy-falsafiy fikri rivojida o'z ma'naviy-tarixiy manbalarini idrok qilishga bo'lgan intilish, dindan kuchli ma'naviy birlashtiruvchilik va boshqaruvchilik omili sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan edi.

Ibn Muxammadjon Yusuf al-Qorabog'iy Muhammad Shahiy (1563-1647) kelib chiqishi jihatidan Ozarbayjonlik edi. 1579 yili u o'n olti yoshida Shirvonga keladi, so'ngra Sherozga borib Habibullo Mirzajon Sheroziy al- Bonaviyga shogird tushadi. O'z ustozining ta'siri ostida Yusuf falsafa va ilohiyot ixtisosligi bo'yichka shugullana boshlaydi va bu sohadagi kiziqishlarini Markaziy Osiyoga olib keladi. Qorabog'iy avval Samarqandda, keyin Buxoroda dars beradi. Umrining so'nggi yilarida Qorabog'iy Buxorodan ikki kilometr narida joylashgan «Sepulon» degan joyda yashaydi va o'sha erda vafot etadi.

Muhammad Sharif ibn Muhmamad al-Husayniy al-Alaviy al-Buxoriy (vaf. 1697) Buxoroda tavaalud topgan. Al-Mavloniy laqabi bilan mashhur. Bizgacha olimning o'n beshdan ko'proq asarlarining nomi, jumladan quyidagilar etib kelgan:

1. «Xoqon uchun foydali maslahatlar kitobi» («kitab favoidi xoqoniyya»). Ushbu risola 1643 silda yozilgan bo'lib, XVIII asrgacha ko'chirilib kelingan. Uning nusxalaridan biri «Tashakkurnoma risolasi» deb atalgan. Qo'lyozma muallif yashagan davrning ijtimoiy hayoti, hamda ilohiyot bo'yicha huquqshunoslikka doir qimmatli ma'lumotlarga ega.

2. «Davriylik haqida risola». Uning XIX asrning boshlariga taalluqli bir necha nusxalari saqlangan bo'lib, ulardan biri «Muttasillikdan davriylikning taalluqligining zaruriyati haqida risola» deb ataladi. Ushbu risola muttasillik va munfasillik masalalariga bag'ishlangan.

Yusuf Qorabog‘iy va Muhammad Sharif Buxoriylarning ijodi falsafaning ko‘pgina muammolarini qamrab olgan. Barcha Sharq peripatetiklari kabi Qorabog‘iy ham barcha mavjud narsalarni ikki turga bo‘ladi: vojbul vujud va mumkin ul vujud yoki oddiygina zaruriy va imkoniy narsaga. Zaruriy narsa tushunchasi shundan bioratki, uning mohiyatiga nisbatan tashqida yotgan narsa hech qanday holatda ham yo‘q bo‘lishi mumkin emas. Imokniy narsa – bu shundayki, uning mohiyati uchun tashqarida bo‘lgan narsa har tomonlama borliq va yuqlik ham bo‘lishi mumkin.

Muhammad Sharif Buxoriy bu xususda o‘zidan oldin o‘tgan mutafakkir ta’rifidan unchalik farq qilmaydigan ta’rifni beradi. Uning qayd etishicha, zaruriy narsa – bu shundayki, u mavjud bo‘lmaslik tabiatidan mahrum bo‘lib, ishning uchun yuqlikning tarkibiy qismlaridan hech birini ta’riflab bo‘lmaydi. Imkoniy narsa bu shundayki, yuqorida aytilgan ikki tabiatdan mahrumdir. Agar u ikkidan biridan mahrum bo‘lsa ham, uning imkoniyati rad etilmaydi. Zaruriy narsaning borlig‘ini Buxoriy barcha ibtidolardan yuqoriko‘yadi. Uning fikricha, vojbul vujud zamon va makonga bog‘liq bo‘lmasdan, barcha ibtidolarning boshlanishidir. Barcha etuklikning sababini Buxoriy xudoda ko‘radi.

Keyingi feodal davrining boshqa mutafakkirlari kabi Qorabog‘iy o‘zining dunyoni tushunishi asosiga sababiyat qoidasini ko‘yadi. Qorabog‘iy aqidasi ko‘ra, sabab-oqibat aloqasi cheksiz bo‘lib, «bugungi kun bilangina o‘z intihosiga etmaydi...»

Bu bilan barcha borliqning sbaabiy shart asosida chnksizligi qayd etiladi. Qorabog‘iy sabab-oqibat aloqasini bir-biriga oddiy ravishda bog‘langan hodisalarning bir qator bog‘langanligi sifatida tasavvur qilmaydi. Bu aloqa qandaydir yuqori turgan narsaning oqibati asosida maydonga chiqadi. Bu oqibat, o‘z navbatida yanada yuqoriroq turgan narsaning sababi sifatida namoyon buladi va hokazo. Bu erda aloqa o‘sib boruvchi burama shaklga egaligi haqidagi tarqoq fikr yashiringan. Bunda shu narsa ham muhimki, yuqori bosqichlar shakllanishi, quyi bosqichlarni yo‘qqa chiqaradi. Sababiy bog‘lanishni tushunish borgan sari ko‘proq murakkab va umumiy aloqalarni idrok etish bilan o‘sib boradi.

Bu masala o‘z rivojini Buxoriyning asarlarida, jumladan, uning davriylik haqidagi risolasida topadi. Buxoriyning fikricha, «yuqorida turuvchi» va «quyida joylashgan» bosqichlarning shakllanishi davrida maydonga davriylik chiqadi, uning mavjudligining zamini esa muttasillikdir. «Bilki, - deb yozadi u, -kishilar davriylikning muttasillikdan zaruriy ravishda bog‘liqligini ko‘rsatganlar». Yuqori

tomon uzluksiz ravishda borayotgan bosqichlarning qaytarilishi cheksizlikdir.

Qorabog‘iy va Buxoriylarning e‘tiborini jalb etgan boshqa muhim muammo jismlar bo‘linishining chekli va cheksizligini aniqlash edi. Bu masala ularning qarashlarida makon va zamon haqidagi ta‘limot bilan mustahkam ravishda aralashib ketgan. Cheksiz ravishda ko‘payib yoki kamayib boradigan har qanday qatorning miqdori uning a‘zolari hajmiga ko‘ra cheksiz miqdor bo‘lganligidan, shunday cheksiz yo‘lni chegaralangan zamon bo‘lagida bosib o‘tish mumkin emas. Bu davr mutafakkirlarining falsafiy kiziqish va izlanishlari o‘z ichiga muhim tarkibiy qism sifatida borliqning asosiy muammolarini, avvalo, peripatetik va sharqiy- peripatetik yo‘nalishdagi jihatlarni tasavvufning borliq haqidagi muayyan qarashlari bilan boyitgan holda ishlab chiqishni qamrab olgan edi.

Boborahim Mashrab (1657-1711) yirik o‘zbek shoiri va mutafakkiri edi. U Namanganda tavallud topdi. U Qashg‘ar, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qarshi va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida, Hindiston va Yaqin Sharqda bo‘ldi.

Shoir qaerda bo‘lmasin, dinning va tasavvufning asosiy qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan hatti - harakatlarini keskin tanqid ostiga olib, o‘z she‘rlarida ular ustidan kulganligi uchun ruhoniylar tomonidan qarshilikka uchradi.

Mashrab hayotining so‘nggi yillarida Balx shahriga (hozirgi Afg‘onistonda) keladi. O‘zining hur fikrligi va hukmron doiralarni tanqid qilganligi uchun 1711 yilda Balx hukmdori Mahmudxon farmoniga binoan qatl etiladi. Uning qabri Xonobod shahrining janubidagi Ishkoshim qishlog‘idadir (Afg‘oniston). Boborahim Mashrab katta ijodiy meros qoldirdi. Unga taalluqli «Mabdai nur» («Nur asosi») dostoni, «Devoni Mashrab» to‘plami, ko‘plab ruboiylar, g‘azallar, muxammaslar, musaddaslar xalq orasida keng tarqalgan.

Boborahim Mashrab mumtoz adabiyotimiz buyuk namoyandalarining ilg‘or an‘analarini o‘rganib yirik shoir bo‘lib shakllandi, kamolga etdi. U qoldirgan merosda, birinchi navbatda, ishqiy mavzudagi g‘azal- muxammaslardan ana shu an‘analarning barakali ta‘sirini aniq kuzatish mumkin. Mashrabning ijodiy kamolotida, ayniqsa, Navoiy merosining ijobiy ta‘siri katta bo‘ldi.

Bobrahim Mashrab qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy g‘oyalar ham, o‘sha zamonda keng tarqalgan qalandarlik tariqatining ayrim ohanglari ham sezilarli o‘rin egallaydi. Mutafakkir islomning asosiy nazariy qoidalarini shubhasiz qabul etadi. Ammo, ayni zamonda, islom

ta'limotining bir qator zohiriy belgilarini, birlamchi deb hisoblagan qonun-qoidalarini, shariatning ayrim ko'rsatma-talablarini, farz- sunnatlarini tan olmaslik va past nazar bilan qarash ham ko'zga tashlanadi, ayrim diniy rukn-tushuncha va muqaddas deb bilingan marosim va odatlarga, talqin va aqidalarga shubha bilan qarash, hatto, ochiqdan-ochiq mensimaslik va masxaraomuz munosabat ancha-muncha uchraydi.

Turli-tuman shakl va talqinlarda jilovlanuvchi bu dunyoqarashning butun mohiyat-mag'zi shoirning quyidagi qat'iy e'tirofida nihoyatda yaqqol va lo'nda ifodalangan:

-Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,

Gul agar bo'lmasa ilkimda tikonni na qilay?!

Mashrab qoldirgan ijodiy merosda hayotiylik, tirik inson va uning insoniy kechinmalarini ifodalash, xislat-fazilatlarini ta'riflash, orzu- umidlari, shodlik-kuvonchlari va g'am-tashvishlarini haqqoniy tasvirlash ishq-muxabbatni ulug'lash, go'zal yorni-ma'shuqa xusnu latofatini ta'riflash, oshiqning sevgi-sadoqatini ishonchli tasvirlash jarayonida

5.Mavzu:Mirza Abdulqodir Bedil (1644-1721) falsafasining gumanistik xarakteri.

Reja

4. Mirza Bedilning borliq haqidagi ta'limoti.
5. Bedilning bilish nazariyasi.
6. Bedilning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.

Tayanch tushunchalar:

Hindiston, Nukot, Chor unsur, Irfon, panteistik aqida, tarkidunyochilik, tanosux, tafakkur, Arastu, Aflotun, hasti, nesti, fano, baqo, vujudiyun, a'dam, mutloq ruh, tavakkul.

Avlod-ajdodlari O'rta Osiyolik bo'lgan Mirza Bedil (1644–1721) Hindistonning Bengaliya shtatining Azimobod shahrida Barlos urug'iga tegishli harbiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. Bedil ko'p asarlar yozib qoldirdi: «Chor unsur» («To'rt unsur»), «Nukot» («Askiya»), «Irfon» («ma'rifat»), «Ruboiyot» («Ruboiylar») va boshqalar.

Bedil o'z davrining etuk olimi bo'lib tanildi. Bunday mavqe'ga erishishda shak-shubhasiz Sa'diy, Hofiz, Jomiy va Navoiylarning ta'siri ulkan bo'lgan. Sa'diy ijodi ta'sirida u “Bedil” (Dilsiz), ya'ni butun qalbini she'riyatga bag'ishlagan taxallusiga ega bo'ladi. Bu haqda taniqli

o‘zbek olimi akademik Ibrohim Mo‘minov o‘zining Bedilga bag‘ishlab yozgan risolasida shunday yozgan edi: “Garchand Mirza Bedil buyuk qalb egasi, o‘tkir zehni shaxs bo‘lgan bo‘lsa ham, uning Bedil degan nomni olishining sababi butun qalbini o‘zi sevgan kasbiga, ya’ni fanga, adabiyotga bag‘ishlagan bo‘lsa kerak”¹, - deb yozadi.

Mirza Bedil nafaqat nasr va nazm bilan shug‘ullanibgina qolmay, balki falsafa tarixini katta qiziqish bilan o‘rgana boshladi. U Arastu ijodiga katta qiziqish bilan qaradi. O‘z asarlarida Bedil Arastuga bir necha sahifa bag‘ishlagan. Bedil boshqa Sharq mutafakkirlari singari Arastuni donishmandlikning birinchi ustozini, deb bildi. Bedil o‘z vataniga nisbatan Arastu nomidan adolat, ilm va ma’rifat, haqiqat va samimiylilikni ulug‘laydi. Shuningdek, Bedil Arastuning fizikasi, borliq, materiya, shakl borasidagi ta’limoti to‘g‘risida to‘xtab, “Biz Arastu erishgan yutuqlar oldida to‘xtab qolmasdan, uni yanada olg‘a surishimiz lozim”², - deydi. U shuningdek “Irfon” (bilim) asarida Aflotunni ham tilga oladi.

Faylasuf borliqni – xasti, noborliqni – nesti, intihoni – fano, abadiylikni – baqo, mavjudlikni – vujudiyun, hech narsani – a‘dam kabi atamalar orqali ifoda etadi.

Borliq haqida ta’limot. Bedil Sharq mashoiyunlari (Arastu izidan boruvchilar) an’anasini davom ettirdi. Uning fikricha, moddaning ibtidosi ham, intihosi ham (boshi va oxiri) yo‘q. U panteistik aqidaga ega bo‘lib, «Vahdati mavjud» - borliqning yagonaligi nuqtai nazarida turar edi. Barcha narsalar zaruriyat yuzasidan vujudga keladi: - «Barcha ashyolarda ularning bo‘lakchalari o‘zgarganligi sababli, yangi narsa kelib chiqadi: - bu ajoyib sirli hodisa zaruriyat yuzasidan ro‘y beradi, bu zaruriyat ashyolarning o‘zida va ular orasidagi o‘zaro munosabatlarda mavjud bo‘ladi. Masalan, yog‘, pilik va olovning bir-biriga qo‘shilishidan zaruriy ravishda yorug‘lik kelib chiqadi»⁷⁵. Dunyo o‘zgarishda va doimiy harakatdadir. Dunyoni asosi sifatida Bedil havoni oladi.

Bedil fikricha, modda va shakl birlik holatidadir: - «Agar modda shaklsiz bo‘lsa, shakl qaerdan kelib chiqadi, agar shakl – har narsaga qodir bo‘lsa, modda qanday kiyim kiyadi?»⁷⁶. Bedil ozodlik va zaruriyat haqidagi masalaga ham to‘xtaydi. Uning fikricha, inson o‘z hatti-harakatlarida erkindir. Uning o‘zi qanday ish tutishligini belgilashi lozim. Bedil tabiiy zaruriyatni, tabiat qonunlarini tan oladi. Ikkinchi tomondan, u zaruriyatni ilohiy irodaning namoyon bo‘lishi, deb qaraydi. Bedil

¹ Mo‘minov I. Mirzo Bedil. – T.: Fan, 1964, 2-bet.

² O‘sha asar, 24-bet.

⁷⁵ Materialo istorii progressivnoy obshestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane. T., 1976. 509-b.

⁷⁶ O‘sha joyda.

sufiylarning tarki dunyochilik g'oyalarini, taqdiri azalga ishonish nazariyasini tanqid qiladi. U Hindistonda keng tarqalgan tanosux - ruhni ko'chib yurishi haqidagi aqidaga tanqidiy munosabat bildiradi, dinning ba'zi qoidalariga shubha bilan qaraydi. Bedil fikricha, dunyoning va insonning kelib chiqishi quyidagicha: -

Xudo tuproq, suv va olovni birga qo'shdi, Hazillashib tartibga soldi.

Undan o'simlik o'sib chiqdi.

Rivojlanishda davom etib hayvonga aylandi, Og'izni nutq uchun ochib-inson bo'lib qoldi.

Olamda Bedil ruh bilan tana, shakl va mazmun o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni ko'rgan. "Nukot" asari Bedil qarashlarini yakunlovchi va umumlashtiruvchi asardir. Mutafakkir o'zining bu asarida o'z qarashlarining asoslarini qisqa, ixcham bayon qilgan. Asarning e'tiborli tomoni shundaki, Bedil bir-biriga qarshi ikki yo'nalish haqida fikr yuritadi, ya'ni dunyoviy va ilohiy yo'nalishlar haqida fikr yuritib, birinchi yo'nalish – dunyoviy yo'nalishni hayotiy oqilona yo'nalish, deb hisoblaydi. Bedil ta'kidlaydiki, inson uzoq muddat davomida jonli va jonsiz tabiatdagi o'zgarishlarning mahsulidir. U "Chor unsur" asarida to'rt unsur: havo, suv, olov, er unsurlari haqida, shuningdek, o'simliklar, hayvonlarning va insonlarning paydo bo'lishi haqida yozadi. Bedil fikricha, havo abadiy, mutlaq, harakatchan, o'zgaruvchan va engildir. Havo yuqoriga qarab harakat qiladi. U shuningdek, ruh haqida fikr yuritib, u havodan paydo bo'lib, tabiiy ruh, nabobat ruhi, inson ruhi va hayvon ruhini paydo qiladi, deydi. Mutafakkir tabiatni ruhlantiradi, ruhlar esa, moddiy dunyodan tashqarida bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bedil, shuningdek, mutlaq ruh, ruhlar va jinlar haqida fikr yuritadi. U panteizmning vahdati-mavjud oqimi tarafdori sifatida tabiatning abadiyligining materiya va ruhning birligini tan olib, Alloh olamning ichida, degan qarashda bo'ladi.

Bilish nazariyasi. Bilishning birinchi bosqichi tashqi his-tuyg'u yordamida amalga oshadi. Aql, tafakkur bilishning mukammalroq bosqichidir. Faylasuf hissiy va aqliy bilishni yagonalikda va o'zaro aloqadorlikda qaraydi. U aqlga katta ahamiyat beradi: «Tafakkur sirli ma'noni tushundi, hukm ishning kelib chiqish va oqibatini idrok etdi. Agar aql uni ozmagan bo'lsa, hech kim hech narsani ko'rmadi»⁷⁷. Aql bilan bilib olingan barcha narsa, insonga berkdir». Dunyoni aqlan bilishda ilm-fan katta ahamiyatga ega:

Ilm qalamini qo'lingga olmaguningcha,

⁷⁷ O'sha joyda. 510-b.

Hech qanday ashyoning tasvirini chiza olmaysan.

Ilmdan boshqa nimaiki yozilgan bo'lsa,

Be'manilikdan boshqa hech narsani anglatmaydi. Ilm hamma erda – aqliy meyorlarga kafillikdir, G'alaba – faoliyat dalilidir⁷⁸.

Borliqni tushunib etishda, tabiat sirlarini bilishda falsafa muhim o'rin tutadi. Falsafa – bu hikmat, u ilm-fan sirlarini ochadi, ruhning ashyolarga bo'lgan munosbatini o'rganadi.

Bedil bilish nazariyasiga ham katta e'tibor beradi. U hissiy bilish va ratsional bilishni tahlil qilgan ekan, o'z navbatida sezgilar, tushuncha va fikr, ong va mutloq ruh haqida fikr yuritadi. Olamni bilishda u ratsionallikka katta e'tibor beradi. Mirza Bedil inson aqli qudratiga katta baho berib, aqlsiz inson bamisoli ko'zgudir, - deydi.

Tafakkur sirlarning ma'nosini tushuntirsa, mulohaza esa, ishning kelib chiqishi va oqibatini tushuntiradi. Agar ong biror narsa ochmasa, hech kim hech narsa ko'ra olmaydi. Ongimiz kashf etmagan narsa, inson uchun sirlidir. U shuningdek hindular ilgari surgan tanosux (qayta tug'ilish) nazariyasiga qarshi chiqadi va so'fiy miskinlar ilgari surgan "Tavakkul", ya'ni taqdiriy azalga to'liq qo'shilmaydi. Bedil taqdiriy azal nazariyasini tanqid qilib aytadiki, "inson ma'lum darajada o'z xatti-harakatlarida erkindir. Shu sababdan o'z hayotini yaxshilash o'z qo'lidadir", deydi. Bunga erishish uchun inson ilmga intilishi, harakat qilishi va mehnat qilishi lozim, deb hisoblaydi.

Fan – har erda oqil ishga bosh-qosh, g'alaba har erda harakat isbotidir. Mazkur fikrlarini davom etdirib, "Chor unsur" asarida shunday yozadi.

To fazlu hunar oyna pardozi nashud, On
iqbol dar burun kas boz nashud⁷⁹.

Ma'nosi: Hunar o'rganmagan kishiga
Iqbol eshiklari ochilmas.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Bedilning dunyoqarashida uning ijtimoiy va insonparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi. Bedil mehnatkash insonni ko'ylaydi. Ayniqsa u barchani iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlovchi dehqonlar mehnatiga yuqori baho beradi. Uning fikricha, u baxt-saodatga erishishi mumkin. Hunari yo'q odam, arzimas va ojizdir.

Podsho va uning atrofida yashaydiganlar to'kin-sokinlikda va farog'atda yashaydilar, dehqonlar esa faqirona hayot kechiradilar, ochlikdan o'ladilar, zolimlardan azob chekadilar. Shoir o'z zamonasi haqida alam bilan yozadi:

⁷⁸ O'sha joyda 512-b.

⁷⁹ O'sha asar, 101-bet.

Mamlakat hokimiyat ostida qoldi:

Boyliklar ayrim shaxslar qo‘lida to‘plandi,

Oliy tabaqalar erini dehqonlar haydab boshladilar,

Dehqonlarning ezilishi, chorasizligidan

Podsholar paydo bo‘ldilar, takabbur davlatpanohlar. Fir‘avnlarni
nafsi, Nasrudlar zo‘ravonligi

Hayotning barcha tomonlariga yoyildi. Oltin

va kumush o‘ljalar nimlaar qildi...

Saroylar qurilishi, o‘zini xudo deb e‘lon qilishlar rasm bo‘ldi⁸⁰.

Ochko‘z va manfaatparast kishilar boylik uchun kurashib, qurollana boshladilar va qo‘shin yig‘dilar. Natijada o‘zaro urushlar boshlanib, begonalar erini zabt qilish odatga kirdi. Shunday qilib, hokimiyat va davlat paydo bo‘ldi:

Keskin kurash boshlandi,

G‘oliblar va mag‘lublar paydo bo‘ldi,

Hukmronlik qilish istagi mukammallashadi,

Saltanat paydo bo‘ldi⁸¹.

Bedil, shuningdek, hayoliy (utopik) ijtimoiy ta‘limotni ilgari surgan. U o‘zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida jamiyat, inson, davlat va uning kelib chiqishi, uni boshqarish yo‘llari haqida, dehqonchilik va uning foydasi haqida fikr yuritadi. Insonni ulug‘laydi. Inson o‘z irqi, dini va millatidan qat‘iy nazar ulug‘dir. Bedil insondagi vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, vafodorlik, samimiylilik sifatlarini qadrlaydi. Ishyoqmas, yalqov, takabbur, ochko‘z, yolg‘onchi, hiylagarlarga nafaqat nafrat ko‘zi bilan qaragan, balki ularni ayovsiz tanqid qilgan. U xalq g‘amini eyyuvchi fan va ziroatchilikning rivojlanishi haqida o‘ylaydigan odil shoh haqida fikr yuritgan. Lekin fuqarolarning holatini achinish bilan qabul qilib, ularga zulm-sitam o‘tkazuvchi yovuz kuchlarni qattiq tanqid ostiga olgan.

Bedil ijodi qarama-qarshilikdan, chigallikdan iborat bo‘lgani uchun turli ijtimoiy guruhlar undan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanganlar.

XIX va XX asr mutafakkirlari, adibu shoirlari Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat va boshqalarga Mirza Bedilning ilg‘or g‘oyalari ozuqa bo‘lgan. Buyuk adib va faylasuf ilgari surgan ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar nafaqat o‘z davrida, balki o‘zidan keyingi davrda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Mirza Bedil hayotiylik davridayoq O‘rta Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi madaniy, ilmiy va do‘stlik aloqalari rishtasiga asos solgan.

⁸⁰ O‘sha joyda. 507-b.

⁸¹ O‘sha joyda. 514-b.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI 1–AMALIY

MASHG‘ULOT.

MAVZU: MARKAZIY OSIYODA ISLOM FALSAFASINING SHAKLLANISHI VA GUMANISTIK G‘OYALAR RIVOJLANISHINING TARIXIY MA‘NAVIY ASOSLARI

Maqsad: Markaziy osiyolik qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi, asarlaridagi borliq, bilish va jamiyat to‘g‘risidagi qarashlari to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish, shuningdek, ularda mutafakkir ijodini qadimgi yunon falsafasi vakillarining ta’limotlari bilan qiyosiy tahlil qilish malakalarini rivojlantirish.

TOPSHIRIQ: “MARKAZIY OSIYODA ISLOM FALSAFASINING SHAKLLANISHI VA GUMANISTIK G‘OYALAR RIVOJLANISHINING TARIXIY MA’NAVIY ASOSLARI” mavzusini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma’ruza, seminar, mustaqil ta’lim mashg‘ulot jarayonlarini loyihalashtiring

Nazariy ma’lumot:

Yangi aflotuncha tamoyillar Kindiy, Roziy, Forobiy va Ibn Sino falsafiy qarashlarida namoyon bo‘lgan. Kindiy tafakkurida ko‘proq Arastu unsurlari ustunlik qilsa, Abu Bakr Zakariyo Roziyda Aflotun qarashlari kuchliroq edi (1- ilova).

Yangi aflotuncha aqidalarning munazzam birinchi sharhi arab tilida eng yirik islom faylasufi va mantiqshunosi Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon Forobiy asarlarida berilgan. O‘rta asrlarda lotin tilida ijod qilganlar Forobiyni Abu Nasr, deb ataganlar.

Abu Nasr Forobiy hijriy 260 (873) yilda Aris daryosi Sirdaryoga quyiladigan joyda Shosh – hozirgi Toshkentdan 250 km shimoliy-g‘arbida joylashgan Forob (O‘ror), degan joyda tug‘ilgan. U Forobda, Shosh, Buxoro va Samarqandda ta’lim oldi. Bag‘dodda ilmiy izlanishlarini davom ettirib, umrining oxirgi yillarida Halabda, so‘ngra Damashqda yashadi. Manbalar guvohligicha, Forobiy mantiq ilmini xristian dinidagi olim Yuhanno ibn Haylondan o‘rgangan bo‘lsa ham, tez orada o‘z zamonasidagi barcha musulmon olimlaridan bu sohada o‘zib ketgan. Forobiy Bag‘dodda Yuhanno ibn Haylondan tashqari Matto ibn Yunusdan ham ta’lim olgan va undan barcha ilmlar sohasida o‘zib ketgan. Misrga qilgan safaridan keyin Suriya shimolidagi Halabga qaytgan Forobiy, biroz muddatdan keyin Damashqda 950 yili 80 yoshida vafot etgan.

Bag‘dod o‘sha vaqtda mantiq ilmining markaziga aylangan edi. Birinchi tazkiranavislardan biri bo‘lgan Soed Andaluziy o‘zining “Taboqot ul- umam” asarida Forobiyning Aflotun va Arastu asarlarini mohirona sharh qilganligini qayd etadi⁸². Forobiy Aflotunni “mashhur hakim”, “ilohiy Aflotun”, deb atagan.

Forobiy nazaricha, mantiqdan tabiat falsafasiga yetib kelish, mantiqdan axloqqa yetib kelishdek, tabiiydir. U o‘zining “Ixsoye ulum” (“Ilmlarning kelib chiqishi”) asarida barcha ilmlarni quyidagicha sakkiz nom ostida tasnif qiladi: ilmu lug‘at (filologiya), mantiqiyot (logika), riyoziyot (matematika), tabiiyot (tabiatshunoslik), ilohiyot, siyosiyot (siyosatshunoslik), fiqh (islom huquqi) va kalom⁸³.

⁸² Qarang: . ۱۹۱۹. بيروت، – طبقات المم. // صاعد بن صاعد اندلسي. Taboqot ul-umam. – Bayrut. 1912. –B.53. (arab tilida)

B.129-130. ⁸³ Qarang: . ۱۹۱۹. قاهرة، احصاء العلوم. // فارابي، ابو نصر. Ixsoye ulum. –Qohira. 1949. –

Abu Nasr Forobiyning musiqa nazariyasiga bag'ishlangan quyidagi asarlari mavjud: "Musiqa kitobi", "Ohanglar tasnifi haqida kitob", "Musiqa haqida so'z", "Ohangga qo'shimcha qilingan so'z".

Forobiyning buyuk xizmatlaridan biri hamma zamonlarda, barcha aholi tabaqalari orzu qilgan ideal jamiyat haqidagi o'ylari, u haqida yozgan asarlaridir.

Forobiy bu borada bir necha asarlar muallifidir. Uning "Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob", "Siyosat al-madaniya" ("Shaharlar ustidan siyosat yurgizish") va boshqa asarlari bo'lgan. Bular da Forobiy olijanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida o'z fikr-mulohazalarini bayon qilgan. Ana shu asarning ikki nushasi Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar jamg'armasida saqlanmoqda.

Undan tashqari, shu institut jamg'armasida Forobiyning o'n sakkizta qo'lyozma kitoblari ham saqlanmoqda. Bular orasida "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Masalalar bulog'i", "Jism va aksidensiyalarning boshlanishi", "Aql ma'nolari haqida risola", "Yahyo an-Nahviyning Arastuga bildirilgan raddiyasiga qarshi yozilgan raddiya", "Arastuning "Metafizika" asari maqsadlari haqida" kabi asarlari mavjud.

Forobiy din va falsafa haqida

Forobiy Sharqda birinchi bo'lib Arastu izidan borgan arab faylasufi Abu Yusuf Ishaq al-Kindiy (801-866) qarashlariga qarshi o'laroq, din va falsafani haqiqatga yetishishning ikki mustaqil usuli, deb hisobladi (2- ilova). Ularni bir-biridan ajratib bo'lmasligini ta'kidlab o'tdi. Forobiyning nazarida diniy haqiqatlar falsafiy misollardan iborat edi. Boshqacha ibora bilan aytganda, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jihatlaridir. Falsafa daliliy hukmlarning qoidalariga tayanadi, din esa, o'sha hukmlar va qoidalarning xitobiy shaklidir. Uning bunday qarashidan, falsafa dindan oldin vujudga kelgan degan xulosa kelib chiqadi⁸⁴.

Din va falsafaning yagona birligi haqidagi uning mulohazalariga qaramasdan, keyinchalik Forobiy falsafani dindan afzalroq va ustunroq qo'yganligiga diqqat-e'tiborni qarata boshladilar. Ammo Forobiy "Din falsafaning misollaridir" degan vaqtda qayd etib o'tgan ediki, payg'ambar xalq tilida so'zlashga majbur, chunki omma daliliy hukmlarni tushunmagan- ligi sababli daliliy haqiqatlarni xitobiy shaklda bayon etishdan o'zga chora yo'q, aks holda payg'ambar ham faylasufdir, deb hisobladi⁸⁵.

Forobiyning fikriga ko'ra, avomning diniy qarashlari uning falsafiy xulosalariga doim ham mos tushavermaydi va buning zaruriyati ham yo'q. Shuning uchun u o'z fikrlarini bevosita avomga moslashtirmagan edi. U avom

⁸⁴ // رضا داوری اردکانی. فارابی مؤسس فلسفه اسلامی، پژوهشگاه علوم انسانی و مطالعات فرهنگی. تهران، ۱۳۷۹. ص. ۱۹۹.

⁸⁵ Qarang: Rizo Dovariy Ardakoni. Forobiy islom falsafasining asoschisi. Ilmiy-tekshirish va madaniy tadqiqotlar muassasasi. -Tehron, hijriy 1377/1998. -B.116. (fors tilida)

⁸⁵ Qarang: O'sha joyda.

meni tushunadi, deb ham o‘ylamagan va, aksincha, bundan xavotir ham olganki, uningcha avomning falsafaga aralashishi, uni buzadi⁸⁶.

Shu jihatdan kelib chiqib, u ko‘pgina fikrlarini turli ishoralar bilan majhulroq tarzda yozar, sodda va ochiqchasiga bildirilgan mulohazalarga esa, kamdan-kam hollarda yo‘l qo‘yar edi. Ayni paytda u o‘zining eng sodda fikrlarini ham kelajakda tafsirga sazovor, deb bilishlaridan umidvor bo‘lgan. Uning umidvorligi bejiz emas edi. Zero, undan keyingi ma‘rifat ahli va faylasuflarning barchasi uning asl maqsadini tushunishga diqqat- e‘tibor bilan kirishdilar va allomaning eng sodda gaplarini ham o‘zlaricha tafsir qilib, yanada maqbul shaklga keltirdilar. Bunga misol tariqasida shayxur-ra'is Abu Ali ibn Sinoning “Shifo” asaridagi payg‘ambarlik haqidagi bahsni ko‘rsatish mumkin⁸⁷.

Qadimgi yunon falsafasida dinni chekkaga surib qo‘yish hollari bo‘lgan edi. O‘rta asrlar Ovro‘po falsafasi esa, ko‘proq, din bilan yaxshi munosabatda bo‘ldi va ko‘pchilik xristian faylasuflari muqaddas sanalgan ruhoniylar safidan joy olib, cherkovning mashhur arboblardan hisoblandilar. Islom olamida esa, faylasuflar bunday shuhrat va obro‘ga ega bo‘la olmadilar, aksincha, gohida shariat peshvolari tomonidan malomatga qoldilar. Albatta, falsafa Yunonis- tonda yuksak rivoj topgan bo‘lib, buni o‘rta asrdagi yoki yangi zamon faylasuflari ham inkor etmaydilar. Ammo, har bir davrning falsafasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shuning uchun islomiy falsafaning xususiyatlarini yunon falsafasi xususiyatlariga tenglashtirish to‘g‘ri emas, ya‘ni islom falsafasi asos va usulini yunon falsafasining asosi va usulidan qidirib bo‘lmaydi.

Forobiy falsafasining inkor etib bo‘lmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe bo‘lgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qo‘ydi. Falsafalar o‘rtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmay, din bilan falsafani ham ayrim bir qismga joyladi. Uning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg‘ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din o‘rtasida hech qanday tafovut yo‘q⁸⁸. Bunday qarash o‘z davrida nihoyat darajada muvaffaqiyat qozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi.

Shuning uchun ham, XIV asrda yashagan Ibn Xaldun islomiy faylasuflarni falsafani diniy masalalar bilan aralashtirib yuborishda va Arastu kabi qadimgi faylasuflardan uzoqlashib ketishda aybladi⁸⁹.

Forobiyning borliq haqidagi ta‘limoti

⁸⁶ Qarang: O‘sha joyda.

⁸⁷ Qarang: Rizo Dovariy Ardakoniy. Forobiy islom falsafasining asoschisi. Ilmiy-tekshirish va madaniy tadqiqotlar muassasasi. –Tehron, hijriy 1377/1998. –B.116. (fors tilida)

⁸⁸ Qarang: O‘sha joyda. 133-bet.

⁸⁹ Qarang: O‘sha joyda. 134-bet.

Forobiyning fikricha, borliq xudodir va faqat ugina mohiyatlarga vujud bag'ishlaydi. Forobiy falsafa tarixida birinchi bo'lib mavjudotlarni ikki qismga: aqliy vujudga va mohiyatga, mohiyatlarni esa, to'qqiz javhar va oraz (aksidensiya) tushunchasiga taqsim qiladi. Vaholanki, Arastuning o'nta kategoriyasi, vujud ma'quloti bo'lib, mohiyat tushunchasi emas. Binobarin, bunday taqsimlash tarzi ahamiyatsiz va shunchaki bir ish emas. Uni hikmat asoslariga kiritilgan juz'iy o'zgartirishgina deb emas, balki islom falsafasidagi asosiy masalalarga qo'yilgan yechimlar rejasi, deb qabul qilmoq kerak. Shunga asosan endi haqiqat va sababiyat tushunchalari mutlaqo boshqacha ma'no kasb etadi. Forobiy aytganidek, haq xudodir va haqiqatning boshqa ma'nolari uning asarlarida xuddi shu ma'noda qo'llaniladi. Zero, barcha mavjudotlar ilmi ilohiyda mavjud bo'lib, nimaiki ilohiy qazoda bor bo'lgan bo'lsa, qadar darajasiga tushib qolgan, deydi u⁹⁰. Xuddi shuningdek, haqni azaliy, deganda, alloma aynan mana shu ma'noga asosiy e'tiborni qaratadi. Bunga qo'shimcha sifatida yana shuni aytish mumkinki, sababiyat ham uning asarlarida boshqacha ko'rinish va talqinga ega bo'lib, ko'proq faollik ma'nosini kasb etadi. Bu ma'nolarning hech birini yunon faylasuflari asarlaridan topa olmaymiz. Agar diqqat bilan kuzatsak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, islom falsafasida yunon falsafasiga xos bo'lmagan biror yangi masala o'rta qo'yilsa, bu faqat diniy mulohazadan kelib chiqibgina shunday qilingan, deyish mutlaqo noto'g'ridir. Chunki, aksariyat hollarda bunday masalalar yangi usulning zaruriyati tufayligina yangicha tarzda qo'yilgan, xolos. Shuning uchun ham Forobiyning ma'lum ma'noda islom falsafasining muassisi, ya'ni asoschisi, deb bilmoq kerak.

Forobiy "Al-jamy'e bayne royi hakimini" "Ikki hakim qarashlari o'rtasidagi jamlanma"⁹¹ kitobining muqaddimasida ushbu mulohazalarini qayd etadi: "Ko'rdimki, zamona ahli olamning ibtidosi va uning paydo bo'lishi, shuningdek, yaratilganlik va azaliylik masalalarida bir-birlari bilan nizo qiladilar, xohladimki, ushbu nizolarni bartaraf qilsam"⁹².

Forobiy bu nizolarni qanday qilib bartaraf etdi?-degan savol tug'iladi. Haqiqat shundan iboratki, u Aflotun qarashlarini ham, Arastu fikrlarini ham isbot qilib o'tirmadi, balki ularning har ikkisi qarashlarini o'z falsafasi asosida tafsir qildi. Uning bu tafsiri faqat ilohiy bilim bilangina chegaralanmaydi, balki falsafaning barcha tarkibiy qismlarini ham qamrab oladi.

Forobiy fikricha, nazariy ma'rifat "Birinchi ibtido"ni tushunish asosi bo'lib, unga binoan barcha mavjudotlar, Undan va uning uchun vujudga kelgandirlar". Forobiy falsafa va hikmatni madaniy jamiyatni boshqarish uchun shart deb bildi va jiddu-jahd bilan moddiy olamdan chiqib, yuqori darajadagi olamga qadam qo'yish, deb tavsifladi.

⁹⁰ Qarang: Rizo Dovariy Ardakoni. Forobiy – muassis falsafaye islomi. 123-124-betlar (fors tilida)

– 1960 (arab tilida) ⁹¹ Qarang: .۱۱۹، بيروت، – الجمع بين الرأي الحكيمين. ابو نصر. فارابی، // Forobiy, Abu Nasr. Ikki hakim qarashlari o'rtasidagi jamlanma. Bayrut.

⁹² Rizo Dovariy Ardakoni. Forobiy – islom falsafasi muassisi. 133-bet (fors tilida)

Forobiy fikricha, nazariy hikmat, ya'ni xudovandni tanish ilmi uzoqdagi sabab bo'lsa, ilmning o'z zoti, ya'ni borliq dunyodagi voqealarning sabab va oqibat aloqalarini bilish yaqindagi sabablardandir. Uning yozishicha, "hikmat afzal mavjudotlar haqidagi afzal ilmdir"⁹³.

Forobiy aqidasi ko'ra, moddadan uzoqlashish Plotin uslubidagi ruhning badandan uzoqlashishi ma'nosida emas, balki jismoniy zaruriyat va moddiyotdan aqliy amallar sari izlanish natijasida borliqning eng oliy mavzusi bo'lgan birinchi sababga aqlan yaqinlashishdir. Moddadan poklanish tushunchasi Forobiy falsafasida shunday ma'noga egadirki, unda inson o'z zihnini shunday sayqallashtirishi kerakki, bundan keyin uni hech qanday moddiy narsa o'ziga jalb qila olmasligi lozim va uning barcha zarracha va qismlari yuqoridagi olam tomon to'planib, doiraviy shakldagi harakat bilan bir-biridan ajraluvchi mavjudotlarni bosib o'tib, qudratli vujud nuqtasi bo'lgan birinchi sabab tomon yuzlanishi zarur.

Forobiy "aql bilquvva" va faol aqlni moddadan holi ravishda idrok etmagan. U moddaning foniy bo'lishi bilan yo'qoladi, -deb hisoblaydi. Faqat foydalanilgan aqlgina tushunchalarni faol aqlning fayzi tufayli bevosita va moddadan beniyoz holda qo'lga kiritib, uni idrok eta oladi. Bu shuning uchun ham yuz beradiki, uning taalluqli joyi moddadan holi bo'lgan mavjudlik bo'lganligidan faol aql bilan birlashgandan so'ng faqat shu aqlgina yashab qolib, qiyomat kunining lazzat yoki alam, mukofot yoki uqubatlarining mazasini totib ko'radi. Bunday nuqtai nazarni ta'kidlash, shuni isbotlaydiki, Forobiy Aflotunga qarshi o'laroq, hech bir nafsoniy qusurlarni, jumladan, shahvoniy, g'azabli fe'l va xatti-harakatlarni, hatto hasad, berahmlilik, baxillik va karomatli ishqni ham yaxshi ham, yomon ham hisoblamaydi. Uning fikricha, bu aytilganlarni baxt-saodat yoki badbaxtlikdagi o'rni va maqomiga qarab, xayr (yaxshilik) yoki sharr (yomonlik) holatiga aylantirish mumkin⁹⁴.

Forobiyning bilish nazariyasi

Forobiy fikricha, bilishning quroli: nutq, tasavvur va hisdan iborat. Narsalar to'g'risidagi bilim nutq quvvati orqali, tasavvur va his-tuyg'u vositasida hosil bo'ladi. Har vaqt bilim hosil qilishga iroda ko'rsatilsa, uning idroki nutq quvvatining sha'nidir. Nutq vositasida kelib chiqqan ilm o'z e'tibori bilan his-tuyg'u uyg'otuvchi ishlarni bayon etadi. Demak, ilm hissiy quvvat natijasida kelib chiqadi (3-ilova). Ilm mavzusining tasavvurga taalluqligi, tasavvur esa, o'z navbatida orzu tug'dirishi va his-tuyg'uga boshqacha tasavvurlarning kirib kelishi nutq quvvatining hosilalaridir. Shunga binoan tasavvuriy ma'rifatning mavzusi eng yuqori zotlarning vujud bosqichlaridan tortib to mavjud bo'lmagan yolg'on narsalarni ham o'z ichiga oladi. Ikkinchi tomondan avvaldan vujudga kelgan narsalar ikki xil:

1- –B.188. (fors tilida)⁹³ Qarang: .۷۱۱۹، تهران، – تمدن اسالمی. // Zabihullo Safo. Islom madaniyatida aqliy ilmlar tarixi. –Tehron, 1923, jild,

⁹⁴ Qarang: Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. –T.: Yozuvchi. 2002, –B.39.

- 1) his-tuyg‘u bilan bilinadigan narsalar;
- 2) isbot va dalil orqali bilinadigan narsalar⁹⁵.

Tasavvuriy ma’rifat borliqdagi barcha mavjudotlarga taalluqli bo‘lganligidan tasavvur orqali hosil qilingan ilm ham xuddi dalil va isbot vositasida hosil qilingan mavjudotlar kabi bilib olinishi, ya’ni his-tuyg‘u uyg‘otadigan bilimlarni ham tasavvuriy ma’rifat jumlasidan, deb hisoblash mumkin.

Tasavvuriy quvvat nutq quvvatining “o‘rinbosaridir”. Aql va tasavvur faol aql fayzi vositasida shahar raisiga sof va xolis, shu bilan birga ajoyib ma’rifat majmuasini taqdim etadiki, u bu orqali osmoniy belgilarni ko‘radi va tushuna oladi. Natijada Fozil shahar raisi bu ko‘rganlarini yerga tushirib, shahar hayotiga tadbiiq etishga kirishadi⁹⁶.

Nazariy aql shunday kuchki, unga qiyos ham, isyon ham va xato ham aralasha olmaydi. U insonga va uning to‘la faoliyatiga xos bo‘lgan narsa bo‘lib, ruhning badandan ajralgandagi shunday holatidirki, ruh o‘zining yashashi, tayanishi va faoliyati uchun moddaga boshqa muhtoj bo‘lmay qoladi. Shuningdek, u his-tuyg‘u va tasavvurdan ham beniyoz bo‘lib, ularsiz ham “birinchi ibtido”ning zotini tushunishga erishadi. YA’ni, fozil shaharning birinchi raisi qiyos, misol va o‘zining jismoniy kuchining aralashisiz ham, xudovandu taborak va taoloni xolis ravishda tasavvur va “mushohada” qila olishi mumkin.

Forobiy jamiyat va axloq haqida

Abu Nasr Forobiyning axloq nazariyasiga qadimgi yunon mutafakkirlari sezilarli ta’sir o‘tkazganlar. Forobiy yunon mutafakkirlarining jamiyat va ijtimoiy axloq to‘g‘risidagi ta’limotlarini islomiy nuqtai nazardan qayta ishlagan.

Forobiy fikricha, inson olti bosqichda yaratilgan vujudlarning eng pastki bosqichida bo‘lsa ham, tug‘ma qobiliyati va quvvati bilan faol aql yordamida o‘zini baland martabali mumtoz vujudga aylantira oladi. U mavjudotlar silsilasi bosqichlaridagi shunday yagona bir jinsdirki, uni o‘z kuchiga ko‘ra, harakatdagi borliq deyish mumkin. Baxt-saodat bunday yuksak “ko‘tarilish”, ya’ni mumtozlik tarkibiga kirmaydi. Baxt-saodat tushunchasi “faol aqlga eng yaqin turgan narsadir”⁹⁷, va uning ma’no-mohiyati faol aql bilan qo‘shiluvda yashiringandir⁹⁸.

Shunday qilib, fazilat va baxt-saodat o‘rtasidagi sabab va oqibat nisbati dalilidan Forobiy shunday natija chiqaradiki, baxt-saodat fazilatga tashqaridan yopishtirilgan yoki yuklangan amal bo‘lmasdan, balki uning o‘z jinsidan va zotning umumiyligidan chiqqan sifatiiy holatdir.

⁹⁵ Qarang: Rizo Dovariy Ardakoni. Forobiy – islom falsafasi muassisi. –B.117.

⁹⁶ Qarang: Forobiy. Fazilat. Baxt-saodat va kamolot. –T.: Yozuvchi. 2002. –B.25-26.

⁹⁷ Qarang: Forobiy. Risolat fi al-aql (“Aql haqida risola”), –Bayrut, 1939. –B.31. (arab tilida)

⁹⁸ Qarang: Forobiy. Falsafatu Aristotelis va ajzoi falsafata va marotib ajzoiho (“Arastu falsafasi va falsafaning qism va bosqichlari”). Muxsin Mahdi tahriri ostida “Matnlar silsilasi”. –Bayrut, 1-jild, 1961. –B.128. (arab tilida).

Forobiy inson mohiyatini tarbiyalashni uzoq muddat davom etadigan yaxshi amal, deb bildi. Uning fikricha, har qanday yaxshi axloq, agar zehnda takroran joylana bersa, uning natijasida inson ongining quvvati va fazilati orta boradi.

Madaniy jamiyatning sifati mohiyatan iroda va ixtiyorda bo'lganligidan jamiyat boshlig'ining vazifasi ushbu irodani xayr (yaxshilik) tomon yo'nal- tirishdir.

Forobiy fikricha, siyosat tabobat sifatidagi narsa bo'lib, jarrohlik yo'li bilan bo'lsa ham davolanishi zarur bo'lgan fuqarolarning dardiga malham qo'yishdir. Tabibning maqsadi bemorning dardini davolash bo'lganidek, fozil siyosatning ham oxirgi maqsadi jarohatlarga malham qo'yish, singan suyaklarni payvandlash singari aholining farovonligini ko'tarish orqali uning ruhini va salomatligini yaxshilashdir.

Forobiy axloqiy fazilatlarni ruh uchun badan salomatligidek narsa, deb tushungan. Demak, sihat-salomatlikni tiklash uchun inson tabibga ehtiyoj sezganidek, bemor insonning ruhi uchun ham tabib zarurdirki, uni holatini davolay olsin. Shundan kelib chiqadiki, qonuniy hukumat raisining bo'lishi jamiyat uchun isbot qilingan zaruriyatdir.

Forobiyning fozil shahar to'g'risidagi o'z nazariyasini taklif qilishdan maqsadi, barcha insonlarga baxt-saodat va kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat edi.

Ibn Sinoning hayot yo'li

(980-1037)

Agar Forobiy islomiy yangi afltunchilik falsafasining asoschisi va uning G'arbdagi oxirgi namoyandasi Prokldan keyingi eng buyuk faylasuf bo'lsa, bu falsafani ham Sharqda, ham G'arbda himoya qilgan shaxs Abu Ali Husayn ibn Sinodir. XIII asrda lotin tilida qalam tebratgan mualliflar uni Avitsenna, deb atashgan. U islomda yangi afltuncha falsafani yuqori darajaga ko'targan edi. XII va XIII asrning mashhur olimlaridan bo'lgan "Millal va nihal" ("Millatlar va mazhablar") muallifi Shahrisoniy (vaf. 1153 y.), mutakallim Faxriddin Roziy (vaf. 1209 y.) va Nasriddin Tusiy (vaf. 1273 y.)lar Ibn Sino asarlariga sharh va tafsirlar yozishgan.

Ibn Sino islomiy falsafa madaniyatini boyitib ham arab, ham fors tillarida asarlar yozgan. Uning "Donishnoma"si fors tilida yozilgan birinchi mashhur falsafiy asardir.

Ibn Sinoning eng katta falsafiy asari "Kitob ash-shifo" bo'lib, islomiy va yunoniy ilmlardan tortib, mantiq va riyoziyotni ham o'z ichiga olgan. Uning boshqa yirik asari "Kitob al-ishorat va tanbihot" talabalar orasida "Kitob ash-shifo" dan ko'ra, katta e'tiborga sazovor bo'lgan edi. Ushbu kitob uning umrining oxirlarida yozilganligi tufayli, mustaqil fikrlar bayonidir.

Ibn Sino tafakkuri shakllanishida ikki omil muhim o'rin tutgan: birinchisi "Ixvon as-safo" falsafiy anjumanining risolalari, ikkinchisi Abu Nasr Forobiy asarlari. XII asr tarixchisi Bayhaqiyning yozishicha, Ibn

Sino otasi kabi “Ixxon as-safo” risolalarini qayta-qayta o‘qir edi⁹⁹. U bir necha irfoniy risolalar yozib, ularni “Sharq falsafasi” yoki “ishroq” deb atagan.

Ibn Sino Forobiy kabi Arastu-Ptolemey dunyoqarashlariga asoslangan yangi afлотuncha qarashlar tizimini vujudga keltirgan. U dunyoning ilohiy sudur bosqichlaridan kelib chiqqanligini isbotlashga urinadi. Ibn Sino o‘zining “Kitob ash-shifo” asarini mantiq ilmining qisqacha bayonidan boshlab, unga Arastu, yangi afлотuncha va ravoqiylar qarashlarini qo‘shgan.

Ibn Sinoning harakat, sokinlik, zamon, makon, bo‘shliq, cheksiz va cheklanganlik haqidagi fikrlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Ibn Sino “ilohiy ilm”ni “birinchi falsafa” yoki “hikmati mutlaqa”, deb ataydi. Ibn Sinoning xudovand va uning haqidagi, ilm to‘g‘risidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Uning fikricha, vujud haqidagi tushunchani faqat aqlgina bila oladi.

Ibn Sino 980 yili Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tavallud topdi. Otasi Balxdan, Sitora ismli onasi Buxorodan edi. Ibn Sino yoshligidan uyda har xil ustozlardan ta‘lim oldi, maktabda o‘qidi. U o‘z davri ilmlari – matematika, mantiq, astronomiya, fiqh, fizika, falsafa asoslari va xususan tibbiyot ilmi bilan jiddiy shug‘ullandi. 999 yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan bosib olindi.

Ibn Sino 1002 yili Xorazm saroyiga keladi. U yerda o‘z davrining yetuk olimlari Abu Rayhon Beruniy va Hammor kabilar bilan muloqotda bo‘ladi. Mahmud G‘aznaviy Xorazmga yaqinlashgach, Ibn Sino undan qochib, Eronning turli shaharlari – Nishopur, Rey, Jurjon, Isfaxon o‘rtasida sarson bo‘lib yurishga majbur bo‘ladi. Umrining so‘nggi yillarida Hamadonda saroy tabibi va vazirlik lavozimlarida xizmat qiladi va shu yerda 1037 yil 18 iyunda 57 yoshida vafot etadi.

Ibn Sino asarlaridan 190 ga yaqini falsafa, mantiq, psixologiya, axloqshunoslik va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan. Bizgacha uning asarlaridan faqat yuztasi yetib kelgan.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uch katta bo‘limdan tashkil topgan – metafizika, fizika, logika-mantiqda o‘z aksini topgan bo‘lib, metafizika – ilohiyot, vujud va mavjudot, dunyoning boshlanishi, tuzilishi, tarkibi haqidagi masalalarni talqin etadi; fizika-tabiathunoslik masalalari, jism, moddani o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni o‘z ichiga oladi; mantiq to‘g‘ri fikrlash san‘ati, aqliy bilish shakllarini o‘rganadi.

Borliq haqidagi qarashlari va fanlar tasnifi

Vujud, mavjudot tarkibi, ilmlar tasnifi Ibn Sinoning borliq, mavjudot haqidagi ontologik ta‘limotini Forobiy ta‘limotining davomi, rivoji deb ta‘riflash mumkin.

40- (arab tilida) ⁹⁹ Qarang: ابو الحسن. منتخب سوال الحكمة، نسخة خطی بودلیان. // Bayhaqiy, Abul Hasan. Suvonul hikma. sahifa.

Ibn Sino vujudni ikkiga: zaruriy vujud-vojib ul-vujud va mumkin ul- vujud – vujudi mumkinga ajratadi. Zaruriy vujud hamma mavjud narsalarning boshlang‘ichi – birinchi sababi – ya’ni Allohdir, undan kelib chiquvchi boshqa borliq narsalar vujudi mumkindir¹⁰⁰.

Birinchi yagona vujuddan kelib chiquvchi vujudlar, mavjud borliqning turli tuman shakllari, boshlang‘ich yagona vujudning ifodalanishidir. Asta- sekin kelib chiquvchi borliq shakllari, ya’ni so‘nggi vujudlar sabab-oqibat munosabati shaklida o‘zaro bog‘liqdir. Birinchi vujudning xislatlari undan kelib chiquvchi barcha vujudlarga o‘tib boradi. Vujud haqidagi fikrlar, mavjudot shakllarining o‘zaro bog‘lanishi, emanatsiya Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining metafizika bo‘limida har tomonlama bayon etilgan.

Ibn Sino vujudi mumkinni javhar (substansiya) va oraz (aksidensiya)ga ajratadi. Javhar turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u sodda va murakkabdir. Sodda javhar boshlang‘ich unsurlar – olov, havo, suv, yerdan iborat, shuningdek, modda va shaklning birligidan tashkil topib tabiat, o‘simlik, hayvonot, inson shaklida mavjuddir¹⁰¹.

Falsafa fanini Ibn Sino ikki katta bo‘limga ajratadi:

3) Nazariy falsafa – metafizika (oliy fan), matematika (o‘rta fan) hamda tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik (pastki fan)dan iboratdir.

4) Amaliy falsafa – siyosat, huquq, uy ishlarini o‘rganish – iqtisod va axloqshunoslik, ya’ni etikadan tashkil topadi (1-ilova).

Ibn Sinoning ilmlar tasnifi, ta’rifi va tarkibi haqidagi fikrlari o‘rta asrda falsafaning rivoji, uning tabiatshunoslik va boshqa ilmlar bilan uzviy aloqasini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Bilish nazariyasi va mantig‘i

Ibn Sinoning bilish nazariyasi (gnoseologiya) haqidagi ta’limoti xususan hissiy bilish, sezgilar, sezgi organlari haqidagi fikrlari uning “Tib qonunlari” asarida inson fiziologiyasi va psixologiyasi asosida talqin etiladi. Ibn Sino sezgini tashqi va ichki sezgilarga ajratadi. Tashqi sezgi insonni tashqi olam bilan bog‘laydi, ular beshta – ko‘rish, eshitish, ta’m-maza bilish; hid va teri sezgisi. Bular insonning ma’lum organlari – teri, ko‘z, og‘iz, burun, quloq bilan uzviy bog‘liq.

Ichki sezgilar – bu umumiy, chunonchi, tahlil etuvchi, ifodalovchi, eslab qoluvchi (xotira), tasavvur etuvchi sezgilardir. Bu ichki sezgilar tashqi sezgilar asosida shakllanib, tashqaridan olingan ayrim sezgilarni umumlashtirish, uni qabul etish, xotirada saqlash va so‘ng tasavvur etish uchun xizmat qiladilar.

¹⁰⁰ Qarang: M. M. Xayrullayev. Abu Ali ibn Sinoning ilmiy-falsafiy va ijtimoiy qarashlari. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. –T.: O‘zbekiston, 1995. –B.63.

¹⁰¹ Qarang: Materiali po istorii progressivnoy obshestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane. –T., 1976. –S.351.

Tibbiyotni chuqur o'rganish asosida Ibn Sino miyani barcha sezgilardan boruvchi nervlar markazi, umuman inson nerv sistemasining markazi ekanligi haqidagi ta'limotni olg'a suradi¹⁰².

Mavjudotning mohiyatini bilish inson joni, tafakkurining dunyoviy aql bilan qo'shilishi asosida vujudga keladi, ya'ni dunyoviy aql inson aqlining faolligini bilishdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi.

Inson bilimlarining hammasi ham tashqi sezgilar yordamida qo'lga kiritilmaydi, boshlang'ich sezgi orqali bilib bo'lmaydigan aksiomalar, aqidalarni inson tafakkuri dunyoviy aqldan oladi. YA'ni dunyoviy aql inson aqlining to'la va barkamol bo'lishi uchun imkon yaratadi. Dunyoviy aql insonda aqliy kuch yoki muhokama, mulohaza quvvatlarining shakllanishida ishtirok etadi. Bu quvvat esa, insonga xos bo'lgan mantiqiy tafakkur vujudga kelishida hal qiluvchi maqomga ega bo'ladi.

Ibn Sinoning mantiq sohasidagi ta'limoti uning qator asarlarida "Kitob ash-shifo", "Kitob an-najot", "Kitob ishorat va tanbihot", "Donishnoma" kabilarda keng bayon etilgan.

O'z davrining eng yirik falsafiy qomusi bo'lgan arab tilidagi "Kitob ash-shifo"ning boshlang'ich 9 kitobi to'laligicha mantiq ilmi masalalariga bag'ishlangan. Ibn Sinoning "Donishnoma"asarida mantiq ilmining asosiy tuzilishi, qismlari, tafakkurning shakllari, usullari, qoidalari, mantiqiy xatolarning ifodalanishi kabilar tasvirlab berilgan.

Mantiq ilmi Ibn Sino talqinida 9 qismdan tashkil topadi:

10) Al-madhal – mantiqqa kirish, uning asosiy vazifalari, bilishda tutgan o'rni, qismlari kabi masalalarni o'z ichiga oladi;

11) Al-ma'qulot – bu tafakkurning boshlang'ich asosiy tushunchalari, ularning nutq orqali ifodalanishi kabi masalalar.

12) Al-ibora – hukm, uning turlari, ifodalanishi kabilar.

13) Al-qiyos – deduktiv, sillogistik xulosa chiqarish, uning shakllari, qoidalari kabi masalalar;

14) Al-burhon – isbotlash, uning mohiyati, vazifasi, turlari, qoidalari va boshqa masalalar;

15) Al-jadal – dialektik hukmlar nomini olgan murakkab hukmlar, shartli bo'linuvchi savol-javob hukmlari kabilar;

16) As-safsata – noto'g'ri hukmlar, boshqalarni aldash, yolg'onni isbotlashga qaratilgan sofizm, paralogizmlar haqida;

17) Al-xitoba – ritorika, notiqlik san'ati qoidalari, uning tarkibiy qismlari kabi masalalar;

18) Ash-she'r – she'riy hukmlar. She'r yozish san'ati, uning vazifalari va boshqalar (2-ilova).

Ibn Sino uchun mantiq:

- to'g'ri fikr yuritishning, xatolardan saqlanishning qoidasini o'rgatadi:

¹⁰² Qarang: Materiali po istorii progressivnoy obshestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane (O'zbekistonda ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan materiallar), –B.351.

- ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarga o'tish yo'lini ko'rsatadi;
- mantiqning fikrlashga munosabati grammatikaning nutqqa, she'r nazariyasining she'riyatga bo'lgan munosabatiga o'xshashdir, amaliy tafakkur har doim mantiqqa muhtoj, chunki mantiq yordamida u mukammallashadi, yetuklikka erishadi.

Mantiq ilm-fan bilan shug'ullanuvchi har qanday inson uchun eng zaruriy ilmlardan hisoblanadi va uni o'rganish haqiqatni to'g'ri bilish va aniqlashning muhim vositasi, qurolidir.

Ibn Sino mantiq fanining vazifalari, tafakkurda tutgan o'rni va ahamiyati, tafakkur bilan til, mantiq bilan grammatika munosabatlari, tafakkurning to'g'riligini belgilovchi barcha qoidalar va ularning tuzilishi, xatolarning turlari, fikrda insonni ataylab adashtirish va aldashning shakllari haqida keng va izchil ma'lumotlar beradi.

Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari

Ibn Sino o'zining "Ishorat va tanbihot" asarida shunday ta'kidlaydi: "Inson o'z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo'libgina, ularni qondira olishi mumkin"¹⁰³. Buning uchun barcha jamoa a'zolarini birlashtirib turuvchi huquqiy qonunlar zarur bo'ladi. Jamoaning barcha a'zolari foydali mehnat bilan shug'ullanmoqlari zarur. U insonlarning jamiyatdagi o'rni va vazifalariga qarab 3 guruhga ajratadi:

a) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug'ullanuvchilar;

b) bevosita xom ashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lganlar;

v) davlatni qo'riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta'minlovchi harbiylar.

Jamiyatning bu guruhlari o'zaro bir-birlariga bog'liq va har doim muloqotda bo'ladilar, bir-birlarisiz yashay olmaydilar.

Ibn Sino o'zining "Risolatu tadbiri manzil" asarida shunday yozadi: "Odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o'zaro farqlari, inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sababidir"¹⁰⁴.

Ibn Sino yana boshqa bir asarida shunday yozadi: "O'zaro bog'liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan xoli etadilar. Buning uchun insonlar o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bo'lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi. Qonunshunos esa, bu qoidalarga bajarilishi shart bo'lgan majburiyat tusini beradi. Shuningdek, u yomon ishlarni qiluvchilarni ham, yaxshi ishlarni ro'yobga chiqaruvchilarga ham baho berishi zarur. Buning uchun oliy qonunshunos va

– (arab tilida) ¹⁰³ . ۱۱-۱۹۱۹، قاهرة، – التنبيهات. // ابن سينا. Al-ishorat va-l tanbihot. –Qohira. 1957-1960. B.54.

¹⁰⁴ Qarang: B. E. Raxovskiy. Filosofskoye naslediye Ibn Sini (Ibn Sinoning falsafiy merosi). //Voprosi filosofii. –№5. – M., 1955.

qozini tan olish zarurki, insonlar o'z faoliyatlarida ularning hukmlaridan foydalansinlar"¹⁰⁵.

Demak, har qanday jamiyat, davlat ma'lum adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida idora etilishi, adolatsizlikka yo'l qo'ymasligi kerak. Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari shakllanishida islomdagi demokratik oqimlar o'z ta'sirini o'tqazgan.

Ibn Sino ilohiyoti

Nazariy va amaliy jihatdan Ibn Sinoning eng mashhur asari "Kitob ash-shifo" bo'lib, lotin sxolastikasining ulamolari uning ba'zi qismlarinigina tushunib yetdilar. Bu asar uch katta qismdan, ya'ni mantiq, tibbiyot va ilohiyotdan iborat edi. Ibn Sinoning maqsadi hammaga manzur bo'ladigan "Mashriq hikmati"ni yaratish edi. Barcha nazariyalarning asosida ilm yotadi. Tashqi ko'rinishdan umumiy nazariya aqldan kelib chiqadi. Aql esa, ilohiy olamdan, farishta vositasida yetkaziladi. Bu dalilga ko'ra, farishtani bilish jahonni bilish asosi hamda undagi inson o'rnini belgilash ham ilm vazifasiga kiradi.

Xuddi Forobiy falsafasida bo'lganidek, borliq aql tafakkuridan kelib chiqqani kabi, dunyoni bilish hodisalarni mushohada etish va vijdoniy malaka hosil qilish turiga aylanadi. Birinchi aql o'z mabdosiga (kelib chiqish) diqqat-e'tibor berib, unda fikran to'xtaydi va birinchi aql aql vujudini zaruriyatga aylantiradi. Shuningdek, birinchi aql o'z vujudining sarf bo'lish imkoniga diqqat-e'tibor berib, shunday xulosaga keladiki, uning gumonicha, u o'z mabdosidan tashqariga chiqib ketgan. Birinchi fikriy to'xtashdan ikkinchi aql, ikkinchi fikriy to'xtashdan birinchi falak (falakul aflok)ning harakatidagi ruhi, uchinchi fikriy to'xtashdan tanlangan jism va bu birinchi falakdan yuqori turuvchi unsur va shu tartibda birinchi aqldan pastda turuvchi (zulmat va yo'qlik) kelib chiqadi¹⁰⁶. Borliqni barpo qiluvchi bu uch fikriy to'xtash boshqa aqllarda ham takror bo'laveradiki, natijada ikki bosqichdan iborat tartibda takomillashib boradi. Diniy aqllar va samoviy ruhlar silsilasi jismiy quvvatga ega emaslar, ammo sof xalloqona kuchga egadirlar, ya'ni ular his-tuyg'udan mahrum bo'lib, ularning shavqu-zavqi o'zlari kelib chiqqan aqlga ergashadilar. Aql falaklarning har birida ularga xos bo'lgan harakatni keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra, har bir harakatning kelib chiqishiga sabab bo'lgan koinotdagi inqiloblar shavqu-zavqning oqibati bo'lib, hech qachon yo'q bo'lmaydilar.

Kuchga ega bo'lmagan o'ninchi aql o'z navbatida yagona aql va yagona ruhni ijod qiladi. Aytish mumkinki, o'ninchi aql bilan birgalikda kelib chiqadigan insoniy ruh "surat", ko'p narsaga bo'linish imkoniyatiga ega bo'lgan holda paydo bo'ladi. Vaholanki, uning zulmatli tuzilishidan oy ostidagi modda vujudga keladi. Ana shu o'ninchi aqlni faol aql, deb ataydilar. Bu aqldan bizning ruhimiz kelib chiqqan bo'lib, uning yog'dusi

¹⁰⁵ O'sha joyda.

¹⁰⁶ Qarang: Mojed Faxriy. Sayre falsafa dar jahoni islom. –B.174.

ilmiy siymoda unga qaytib kelishi mumkin bo'lgan ruhni topadiki, u unga qo'shimcha bo'ladi. Insoniy aql ma'qulni his etiladigan narsadan ajrata olish vazifasiga ega emas. Har ilm va aytilgan gap, sodir bo'lgan narsa va yog'du farishtadandir. Shuning uchun, insoniy aql kuch-quvvat jihatdan o'zida farishta tabiatiga egadir. Ikki tomonlama vaziyat, ya'ni amaliy va nazariy aql vositasida ikki hil "surat"ga ega bo'lgan insoniy aql "yerdagi farishtalar", deb ataladi¹⁰⁷. Ruhlar taqdirining siri bundan boshqa narsa emas. Nazariy aql to'rt taraflama holat vositasida farishta aqli bilan yoki faol aql bilan qo'shiladiki, uni muqaddas aql, deb ataydilar. Muqaddas aql o'zining eng oliy bosqichida o'sha mumtoz payg'ambarlik aqlidir.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, faol aql masalasida avvaldanoq Arastu sharhchilari orasida ixtilof chiqqan edi. Ibn Sino Abu Nasr Forobiyga ergashib, Timey va Akvinalik Tomasga qarshi o'laroq, insoniy aql dan tashqarida bo'lgan ajratuvchi aqlni qabul qiladi. Ammo uni xudo tushunchasi bilan birdek hisoblamaydi.

Abu Abdulloh Xorazmiyning hayoti va faoliyati

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf Xorazmiy ijodi kam o'rganilgan mutafakkirdir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o'tgan. U Xuroson shaharlarida ham ta'lim olgan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan al-Utbiy huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan davrida cho'qqisiga chiqqan. Shu vazifasi tufayli u "al-kitob al-Xorazmiy" nomi bilan tanilgan¹⁰⁸. Abu Abdulloh o'z xizmat vazifasi yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turgan va u yerdagi ko'pgina olimlar bilan hamsuhbat bo'lgan. Ilmga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997 yilda vafot etgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan mantiqiy tafakkur namoyandalari Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Bakr ar-Roziy ta'siri ostida shakllangan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha faqat yagona asari – "Mafotih al-ulum" ("Ilmlar kalitlari") yetib kelgan. "Mafotih al-ulum"ning qo'lyozma nusxalari chet ellardadir. Yaqin-yaqingacha uning to'rt nusxasi bor, deb hisoblanar edi. Ana shu to'rt nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida 7528, 23429 va 2524 raqamlari, hamda Berlin kutubxonasida 1051 raqami ostida saqlanadi. Amerikalik olim K. Bosvort XX asrning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nusxasini Turkiya kutubxonasida borligini aniqlagan. Barcha olti nusxa Istanbul shahridagi kutubxonalardadir.

"Mafotih ul-ulum" asarining o'rganilishi

"Mafotih al-ulum"ni birinchi bo'lib o'rgangan va 1895 yilda nashr etgan olim – gollandiyalik sharqshunos Van Flotendir. Shuningdek, I.Y.Krachkovskiy, V.V.Bartold, K.Brokelman, E.Videman, D.Sarton,

¹⁰⁷ O'sha joyda. –B. 174-175.

¹⁰⁸ Qarang: O.M.Bahodirov. Abu Abdulloh al-Xorazmiy. Ma'naviyat yulduzlari. –B.82.

M.M.Xayrullayev, U.Karimov, G.P.Matviyevskaya, H.Hasanov, M.Ziyovuddinova¹⁰⁹, A.Sharipovlar ham asrning turli tomonlarini tadqiq etganlar. “Mafotih al-ulum” o‘ziga xos qomusiy asar bo‘lib, o‘sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Olim barcha fanlarni ikkiga – “arab ilmlari” va “arab bo‘lmagan ilmlar”ga ajratadi (1-ilova).

Uning birinchi an‘anaviy “arab ilmlari” qismi o‘n bir bobdan iborat fiqh, yetti bobdan iborat kalom, o‘n ikki bobdan iborat grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yuritish, besh bobdan iborat she‘r va aruz hamda to‘qqiz bobdan iborat tarixdan tashkil topgan.

Ikkinchi qismiga esa, “arab bo‘lmagan” quyidagi ilmlar kiritilgan:

Ular – uch bobdan iborat falsafa, to‘qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tibb, besh bobdan iborat arifmetika, to‘rt bobdan iborat handasa, shuningdek, to‘rt bobdan iborat ilm an-nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyo.

Shunday qilib, asar ikki qismdan iborat bo‘lib, unda o‘n besh ilm (predmet) to‘qson uch bobda bayon etilgan.

Abu Abdulloh Xorazmiy fanlar tasnifi haqida

Abu Abdulloh al-Xorazmiy ilmlar tasnifining shakli quyidagicha:

I. Shariat va u bilan bog‘liq “arab” ilmlari.

7. Fiqh, ya‘ni musulmon huquqshunosligi.
8. Kalom, ya‘ni dinning mantiqiy asoslari.
9. Grammatika.
10. Ish yuritish.
11. She‘riyat va aruz.
12. Tarix.

II. “Arab bo‘lmagan” ilmlar (yunon va boshqa xalqlar)

3. Nazariy falsafa:
 - a) quyi ilmlar hisoblangan tabiatshunoslik – tibbiyot (tibb), samoviy hodisalar – meteorologiya, mineralogiya, alkimyo, mexanika;
 - b) o‘rta ilmlar hisoblangan riyoziyot (grammatika, handasa, ilm an-nujum, musiqa);
 - v) oliy ilm hisoblangan ilohiyot, ya‘ni metafizika; g) mantiq.
4. Amaliy falsafa:
 - a) axloq – etika (ta‘lim-tarbiya, odamni boshqarish); b) manzil tadbirlari (uy xo‘jaligini boshqarish);
 - v) siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish) (2-ilova).

An‘anaviy arab ilmlari. Shu ilmlardan biri, fiqhda muallif islom huquqshunosligining asosi bo‘lgan va islom huquqi posbonining doimiy dasturi Qur‘on, payg‘ambar so‘zlari, hikmatli gaplari va hayotlarini eks

¹⁰⁹ Qarang: M.Ziyovuddinova. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika. –T., 2001.

ettiruvchi sunnat, hadis va uning xillari; ijmo' – islom jamoasining yakdillik bilan qabul qilgan qarori, shariat qonun-qoidalariga amal qilishni, ya'ni tahorat qilish, namoz o'qish, azon aytish, ro'za tutish, zakot to'lash ustida to'xtab o'tgan.

Ikkinchi bo'lim kalomda mazhablarning yettiga bo'lib bayon etilishi, ayniqsa, mu'taziliylar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga ega. Unda islomgacha bo'lgan davrdagi Eron va Yamandagi diniy e'tiqodlar, Hindistonda tarqalgan ba'zi dualistik oqimlar hamda zardushtiylar bayon etilgan. Bu ma'lumotlar Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi xalqlarning dinlari tarixini o'rganishda g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Ish yurgizish bo'limi davlat devoni, soliq turlari va olinishi, soliq yig'uvchilarning vazifalari, askarlar ro'yxati, ularning kiyim-kechagi va to'lanadigan maoshlari, kanal xillari, suv uskunalari, ikki daryo (Sirdaryo va Amudaryo) oralig'idagi sug'orish tizimlari haqidagi ma'lumotlarni yoritib berganligi bilan muhim edi.

Asarning tarix bo'limida afsonaviy podshohlardan boshlab, tartib bilan turli davr va mamlakat hukmronlari; Ummaviylar va Abbosiylar xalifaligi, islomgacha bo'lgan davrdagi Yaman tarixi, Rum va Yunon tarixi haqida mufassal ma'lumotlar keltirilgan.

“Arab bo'lmagan” ilmlar qatorida birinchi bo'lib falsafa qayd etilib, unda ushbu ilm atamalarining sharhi bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi yoritilgan.

Arastuning mantiqqa oid kitoblari sharhi Xorazmiy asarining mantiq bo'limida o'z aksini topgan. Unda muallif Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi ushbu ilm haqidagi ma'lumotlar, oldinga surilgan ajoyib g'oyalardan foydalanib, ularni yanada boyitgan.

Asarning tabiiy ilmlarga oid bo'limlari o'rta asr Sharqida ilmiy yuksalish darajasini o'rganish nuqtai nazaridan nihoyatda ma'lumotlarga boydir. Tibga oid bo'limda kasalliklar, sodda va murakkab dorilar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu bo'limda o'sha davr tabobatida ma'lum bo'lgan va keng tarqalgan mijoz hamda qon tomiri urishiga qarab kasallikni aniqlash to'g'risidagi nozik tavsiflar berilgan.

Riyoziyot bo'limida o'rta asr Sharqidagi matematik ilmlar holati bayon etilgan. Al-Xorazmiy matematik tushunchani aqlning ixtiyoriy ijodi emas, balki obyektiv olamning ma'lum tomonlarini, ashyolar o'rtasidagi munosabatlarning in'ikosi, deb talqin etgan.

Astronomiya bo'limida uning vazifasi bilan birga tarixiga oid masalalar ham ko'rib o'tilgan. Xorazmiy o'z tasnifida musiqani riyoziyot ilmlariga qo'shadi va unda musiqaviy asboblari, tovushlarning o'zaro mutanosibliigi, tartibi, sozi (lad) tavsiflanadi va oxirida ritm haqidagi ta'limot ko'rib chiqiladi.

Mexanika bo'limida, og'ir yuklarni joy-joyiga qo'yish va dalalarni sug'orish maqsadida ishlatiladigan qurilmalar, ya'ni sodda mashinalar, ularning tuzilishi va vazifalari ustida to'xtab o'tadi. Umuman, asarda Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z davri tabiiy va riyoziyot ilmlarini yaxshi bilgan,

ularni nazariy falsafaga kiritish bilan bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va ta'kidlash, ikkinchi tomondan, falsafani boyitishga intilgan. Al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asari o'rta asr madaniyati va ma'naviyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi¹¹⁰.

Abu Rayhon Beruniyning hayoti va merosi
(973-1048)

Markaziy Osiyo va butun Yaqin va O'rta Sharqda tabiiy-ilmiy bilimlar va falsafiy tafakkur taraqqiyotiga Abu Nasr Forobiydan keyin Ibn Sino bilan bir davrda Abu Rayhon Ahmad Beruniy katta ta'sir ko'rsatdi.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy ishlarining serqirraligi, fikriy parvozinig yuksakligi bilan kishini hayratda qoldiradigan buyuk dahodir. U bir yuz ellikdan ortiq asar yozgan o'rta asrning ulug' allomasi (ensiklopedisti)dir.

Abu Rayhon Beruniy hijriy 362 (mil. 973) yilning 2-zulhijja oyida Xorazmning ilk markazi Kat (Qiyot) shahri atrofida dunyoga keldi. U o'z tug'ilgan maskanida yaxshi ta'lim oldi, ilk yoshligidan ilmiy ishlarga berilib ketdi. O'sha paytda Xorazmda yuz bergan siyosiy tanglik sababli o'z vatanini tark etdi, taxminan, 998 yildan to 1004 yillar mobaynida Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy chekkasidagi Jo'rjon (Gurgon)da yashadi. Shu yillari o'zining yirik asari – "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobini yaratdi. Bu kitobning rus tiliga qilingan tarjimasi 1957 yili va o'zbek tilidagi tarjimasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyotida alohida-alohida kitob bo'lib, bosilib chiqdi.

1005 yili Beruniy Xorazmga qaytib keldi va Xorazmshoh Abu Abbos Ma' - mun (1009-1017) saroyida hurmatli martabani egalladi. 1017 yili Mahmud G'aznaviy (998-1030) Xorazmni o'ziga bo'ysundirgach, Beruniy boshqa olimlar qatori poytaxt G'aznaga olib ketildi va umrining oxirigacha o'sha yerda yashadi¹¹¹.

G'aznada Beruniy ilmiy ishlarga berilib ketdi. Sulton qo'shinlari bilan birga u bir necha bor Hindistonda ham bo'ldi. Shu paytlarda bu o'lkani atroflicha o'rganishga kirishdi, natijada, 1030 yili Hindiston haqida ajoyib asar – "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi" (qisqacha "Mo'lanhind" – "Hindiston")ni¹¹² yaratdi (Bu asar 1963 yilda rus tilida "Fan" nashriyotida nashr etildi). Bundan oldinroq, 1025 yili esa, "Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning chegaralarini aniqlash" (qisqacha "Geodeziya")¹¹³ asarini yozib tugatgan edi.

Mahmudning vorisi sulton Mas'udga (1030-1041) Beruniy o'zining matematika va astronomiyaga oid eng yirik asari – "Qonuni Mas'udiy"ni bag'ishladi. Undan keyingi sulton Mavdud (1041-1048) davrida Beruniy

¹¹⁰ Qarang: M. M. Xayrullayev i A. D. Sharipov. Abdallax Xorezmi. V kn.: Materiali po istorii progressivnoy obshestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane. –T.: Fan, 1976. –S. 93.

¹¹¹ Qarang: A. Sharipov. Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari. –T.: Fan, 1972.

¹¹² Qarang: Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. –T.: Fan, 1965.

¹¹³ Qarang: Abu Rayhon Beruniy. GeodeziY. –T.: Fan, 1966 (rus tilida)

mineralogiyaga oid asari – “Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami” (qisqacha “Mineralogiya”)¹¹⁴ni, umrining oxirida esa, “Dorivor o‘simliklar haqida kitob” (qisqacha “Saydana”)¹¹⁵ asarini yozdi.

Beruniy hijriy 440 yilning 2-rajabida (mil. 1048 yil, 11 dekabr) G‘aznada vafot etdi.

Beruniy o‘z davrida tajribaviy bilimlarni puxta egallagan olimlardan bo‘lib, bu uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining muayyan tomonlarini aniqlovchi muhim omillardan hisoblangan.

Abu Rayhon Beruniy borliq haqida

Beruniy borliq dunyo yaratilganmi yoki yo‘qmi, degan savollarga dunyo yaratilgan, deb javob beradi (1-ilova). Uning qarashlarida namoyon bo‘lgan ikki qarama-qarshi g‘oyalar, ya‘ni bir tomondan, dunyoning yaratilganligini inkor eta olmaslik, ikkinchi tomondan esa, tabiatni mustaqil, deb bilish, Beruniyning tabiatshunos sifatida dunyoni va tabiatni tushunishda ma‘lum darajada deistik (xudo dunyoni yaratib qo‘yib, boshqa uning ishlariga aralashmaydi) yo‘nalishga moyilligini ko‘rsatadi. Xudo dunyoni butunligicha yaratadi va unga azaldan ma‘lum qonunlarni beradi. Ana shu qonunlar tufayli tabiiy kuch, ya‘ni tabiat harakat qiladi. Lekin keyinchalik Beruniy hatto deizm qobig‘ining torligini sezadi va moddiy dunyoning abadiy mavjudligini tan olishni zarurligini his etadi. Bu fikrning isbotini u Qur‘ondan ham topadi. O‘sha davrdagi tabiatshunoslik fanida erishilgan yutuqlar uni Arastuning tabiat falsafasiga tanqidiy yondoshishga, shuningdek, uning zaif tomonlarini farqiga borishga olib kelgan. Bu uning Ibn Sino bilan yozishmasida o‘z ifodasini topgan. Ularning bu yozishmalari asosan Arastuning “Fazo haqida” va “Fizika” asarlari bo‘yicha olib borilgan.

Bu yozishmada Ibn Sino Arastuning tabiat falsafasini himoya qilgan. Beruniy esa, Ibn Sinoga e‘tiroz bildirgan. Ularning bahsi asosan Arastu tabiat falsafasining muhim masalaridan biri – jismlarning cheksiz bo‘linishi bo‘yicha bo‘lgan. Bu borada Beruniyning Ibn Sinoga qarshi chiqqanligini ko‘rgan ayrim mualliflar, uni Demokrit atomizmining tarafdori, degan xulosaga kelganlar. Lekin Beruniy bu masalaga birmuncha jiddiyroq qaragan. U bo‘linish muammosini hal etishda shunday yo‘lni topishga harakat qiladiki, ikki ta‘limot – atomistik va cheksiz bo‘linishning o‘ziga xos qarama-qarshiliklarini va cheklanishlarini bartaraf etishga intiladi.

Beruniy atomistik nazariyasini Demokrit atomistik nazariyasidan farqi shundaki, Abu Rayhon bo‘shliqni inkor etsa, Demokrit bo‘shliq – dunyoning zaruriy ajralmas qismi, deb hisoblaydi.

Beruniy Arastuni tanqid qilishda dastavval tajribaga murojaat etadi. Uning bu yo‘li Arastuning kuzatuvchilik usuliga qarshi qaratilgan edi. Shunday qilib, Beruniy jismlarning cheksiz bo‘linuvchanligini tan olish va

¹¹⁴ Abu Rayhon Beruniy. Mineralogiya. –T.: Fan, 1967.

¹¹⁵ Abu Rayhon Beruniy. Dorivor o‘simliklar haqida kitob (Saydana). –T.: Fan, 1968.

bo‘linmas zarrachalar to‘g‘risidagi atomistik ta‘limotning cheklanganligini ko‘rsatishga intiladiyu, biroq bu muammoni to‘liq hal qila olmaydi. Shunga qaramay, masalaning bunday qo‘yilishining o‘zi ham mutafakkirning katta yutug‘i bo‘lgan.

Beruniy barcha unsurlar, shuningdek, og‘irroq unsurlarning boshqa unsurlardan oldin markazga intilishi to‘g‘risida gapirib, “Hamma unsurlar markazga qarab intiladi, lekin vazminroqlari boshqa unsurlardan o‘zib ketadi”¹¹⁶, deb ta‘kidlaydi. Beruniy “Hindiston” asarida unsurlarning Yerga oddiy intilishi to‘g‘risida emas, balki barcha og‘irliklarning Yer markaziga tortilishi haqida fikr yuritadi. Beruniyning Ibn Sinoga bildirgan e‘tirozlarida muhitning og‘irligini e‘tirof etishi bu fazo jismlari bilan Yer o‘rtasidagi tortilish kuchlari borligini tan oladigan fikrga yaqinlashganligini ko‘rsatadi.

Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to‘g‘risidagi tahmini uning falsafiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Beruniy boshqa dunyo haqida fikr yuritar ekan, boshqa moddiy dunyo ehtimol bizning dunyomiz singari tabiiy xususiyatga ega bo‘lib, “harakat yo‘nalishlari esa, bizning dunyomizdagi harakat yo‘nalishlaridan farq qiladi”, deydi¹¹⁷.

Abu Rayhon Beruniyning bilish nazariyasi

Buyuk tabiatshunos Beruniy o‘zining salafлари, xususan, Ahmad Farg‘oniy va Muhammad Xorazmiy ishlab chiqqan bilishning ilmiy usulini rivojlan- tirib, yanada chuqurlashtirdi. Uning aytishicha, “Kuzatishning ko‘pligi ko‘rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi”. Beruniy o‘zining o‘gitida: “Biliming shundayki, u yalang‘och bo‘lsang ham o‘zingda qoladi, uni hammomga kirganingdagi xo‘llik ham yo‘qota olmaydi”, -deydi. Beruniy inson xotirasini “Allohning tuhfası”, deb hisoblaydi. U “tirishqoqlik va ko‘p shug‘ullanish bilan ham xotirani mustahkamlash mumkin”¹¹⁸, -deydi.

Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqda tajribaga tayanuvchi fanlarning asoschilaridan bo‘lgan Beruniy tabiat hodisalarini bilishdagi nazariy- mantiqiy xulosa, qiyoslashning ahamiyatini benihoya katta ekanligini uqtirib o‘tadi. Beruniy tarixiy hodisa va voqealar haqiqatini bilishga taalluqli hamma masalalarni har taraflama o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi va bu bilan noto‘g‘ri yo‘lga tushib qolishdan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi. U shunday yozadi:

“Xabar ko‘z bilan ko‘rgandek bo‘lmaydi, degan kishining so‘zi juda to‘g‘ridir. Chunki ko‘rish ko‘ringan narsaning o‘zi bor paytida va o‘z joyida turganida qarovchi ko‘zining uni uchratishdan iboratdir. Xabarga yolg‘on- yashliqlar qo‘shilmaganda, u ko‘rishga nisbatan ortiqroq o‘rinda turgan bo‘lar edi. Chunki ko‘rish va qarash shu payt, shu on bilan cheklanadi. Xabar esa, narsaning ko‘ringan payti va vaqtdan ilgari o‘tgan va keyin keladigan

¹¹⁶ Sharipov A. Maloizvestniye stranitsi perezpiski mejdu Beruni i Ibn Sinoy.//Obshestvenniye nauki v Uzbekistane, –№ 5. 1965, –S.39.

¹¹⁷ O‘sha joyda.

¹¹⁸ O‘sha joyda.

hollaridan darak beradi; ana shuning uchun xabar mavjud narsalardan ham, kelajak narsalardan ham darak beraveradi. Yozish xabar turlarining biri bo‘lib, uni boshqa turlardan ko‘ra, afzalroq hisoblash mumkin; qalamning mangu yodgorliklari bo‘lmaganda, xalqlarning tarixini qanday bilar edik?!

So‘ngra, odatda bo‘lgan hol haqida berilgan xabar bir xil emas, balki (farqsiz) rost va yolg‘on bo‘lishi mumkin”¹¹⁹.

Beruniy yolg‘on xabarlarining muayyan va umumiy ildizlarini ochib tashlaydi. U bularni ma‘lum guruh kishilarining manfaatlarini qarama- qarshiligida ko‘radi. Uningcha, chinakam jasorat, qahramonlik so‘zdami yo amaldami, har ikki holatda ham yolg‘onga qarshi kurashda o‘limni ham pisand qilmaslikda namoyon bo‘ladi. “Yolg‘onchilikdan chetlanib, rostgo‘ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg‘onchining o‘zi ham sevib maqtaydi. Axir, o‘z zararingizga bo‘lsa ham, rost gapiring deyilganku”¹²⁰, deb yozadi u.

Kuzatish, ko‘rish, tajribalar qilish, mantiqiy umumlashmalar chiqarish, ma‘lumotlarni to‘plash, xalq og‘zaki ijodi, yozma yodgorliklarni o‘rganish, barcha xabar, manbalarga tanqidiy qarash haqiqatni aniqlash uchun ularni bir-biri bilan taqqoslab ko‘rish, til qurilishini, yozuvlarni o‘rganish – bular hammasi o‘rta asrning buyuk qomuschisi Abu Rayhon Beruniy ilmiy usulining asosini tashkil etadi.

Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy qarashlari

Abu Rayhon Beruniy tomonidan “Sabablarning sababi” – inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo‘yilishi diqqatga sazovor. “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir”¹²¹.

Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqida aqlga asoslanish nuqtai nazarida turganini ko‘ramiz. Olamning mavjudligi masalasiga kelganda Beruniy “ehtimol u bir necha ming million yillardan beri mavjud bo‘lgandir”¹²², degan taxminlarni aytadi.

Beruniy fikricha, inson hayvondan aqli bilan farq qiladi. Lekin mutafakkir insonning hayvondan tubdan farq qiladigan bu xususiyati qanday paydo bo‘lganligini tushuntirganda, xudoga murojaat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan deydi. U insonning jismoniy tuzilishi va butun hayotini aniqlashda jo‘g‘rofiy omilning roli haqida ajoyib fikrlarni aytadi: “... (odamlar) tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yer (odam yashaydigan joy)larning turlichaligidan hamdir”¹²³.

Beruniy fikricha, aql, mehnat, erkin tanlash insonning hayotini va ijtimoiy holatini belgilaydi. U inson boshqa odamlarning baxt-saodati

¹¹⁹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild, –T.: Fan, 1965, 25-bet.

¹²⁰ O‘sha joyda.

¹²¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild, –T.: Fan, 1968, 50-bet.

¹²² O‘sha joyda.

¹²³ O‘sha joyda. –B.236.

haqida doim o‘ylashi kerak deydi va shunday yozadi: “Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir”¹²⁴. Bu fikrni davom ettirib, insonning qadr-qimmatini o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanishidan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Zero, inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishadi. Binobarin, u “insonlarning maqsad va niyatlari har xil bo‘lgach, san’at va hunar ham turlicha bo‘la boshlaydi”¹²⁵-deydi. Bu esa, mehnatning taqsimlanishiga olib keladi, degan fikrni olg‘a suradi.

Beruniy pulning kelib chiqishini dastavval mehnat taqsimoti bilan bog‘liq, deb bildi¹²⁶. Uning fikricha, insonlar o‘rtasida oltin va kumush sifatida pulning muomalada bo‘lishi maxsus qimmatga ega emas, chunki ular insonning hech qanday ehtiyojini qondira olmaydi. Faqat ayirboshlash tufayli pullar qimmatga ega bo‘ladi. Jamiyatda pul faqat o‘lchov sifatida, umumiy ekvivalentning asosiy vazifasi hisoblanadi. Lekin bu ularning tabiati hamda ma’lum tabiiy qonun asosida bo‘lmay, balki shartli kelishuv tufayli sodir bo‘lgan. Chunki ularning ikkisi ham (oltin va kumush) dastavval o‘z mazmuni bilan insonni na to‘ydiradi, na chanqog‘ini qondiradi, na zo‘rlik yoki zulm xavfidan qutqara oladi. Pulning noto‘g‘ri ishlatilishi tufayli yovuzlik keltiruvchi boylik yuzaga keladi. O‘z navbatida bu majburiy mehnatni keltirib chiqaradi. Beruniy fikricha, pul tufayli faqat turli tovarlar ayirbosh qilinmay, balki begona kuch ham yollanadi. “Biri ikkinchisini yollaydi, ya’ni bir kishi ikkinchisiga adolatli shartnoma tufayli doimo ishlashi kerak, buning evaziga u mukofotlanadi”¹²⁷. Yollanma mehnatni tushunishda Beruniy yanada ilgari ketib, unda faqat odil shartnomani ko‘ribgina qolmaydi, balki har qanday majburiy mehnatga qarshi chiqib, quyidagilarni yozadi: “Zo‘rlik va yollash orqali amalga oshadigan majburiy mehnat doim to‘g‘ri emas”¹²⁸.

Beruniy podsholar “erkin bo‘ysunishni” qo‘rquv va zo‘ravonlik yo‘li bilan majburiy bo‘ysundirishga aylantirganliklarini qayd etadi. Podsholik mansabi merosga aylanganini ko‘rgan Beruniy, insonning jamiyatda tutgan o‘rni naslning qadimiyligi, avlod-ajdodlarning xizmatlari bilan belgilanishiga qarshi chiqadi va kimki, o‘zining marhum qarindosh-urug‘i va buvalari orqali mansabga erishaman desa, o‘zi marhumdir, lekin marhum avlodlari barhayotdir, deydi.

Beruniy jamiyatni boshqarish masalasiga to‘xtab “idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo‘lida o‘z tinchligini yo‘qotishdan iboratdir”¹²⁹- deydi. Beruniyning fikricha, tabiatan boshqarishga moyil bo‘lgan hokim o‘z fikri va qarorlarida qat’iy bo‘lishi, o‘z ishlarini amalga oshirishda

¹²⁴ Al-Beruni. GeodeziY. –B.83.

¹²⁵ Al-Beruni. GeodeziY. –B.83.

¹²⁶ Qarang: Al-Beruniy. Mineralogiya, 12-bet.

¹²⁷ O‘sha joyda. –B.12.

¹²⁸ O‘sha joyda.

¹²⁹ O‘sha joyda.

faylasuflarning qonunlariga, Iskandar Zulqarnayn Arastuning falsafiy donishmandligiga amal qilganidek, bo'ysunishi; shohning o'zi ham "yaratuvchanlik ongiga" ega bo'lishi, ko'proq dehqonlar haqida qayg'urishi kerak. "Zero, podshohlik dehqonchiliksiz yashay olmaydi"¹³⁰.

Beruniy mamlakat ravnaqini fan ravnaqida ko'rdi. Ilm-fan sahovatli xizmatni o'tashi mumkin, deb hisobladi. U shunday yozadi: "Mening butun fikri-yodim, qalbim-bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo'ldim. Buni men o'zim uchun katta baxt, deb hisoblayman"¹³¹.

Beruniy fikricha, insonning oliy baxti bilishda, chunki u aqlga ega. Baxt ana shu nuqtai nazardan tushunilsagina jamiyatga tinchlik va farovonlik keltiradi. Insonning oliy fazilati esa, boshqalar haqida, ayniqsa, kambag'allar haqida g'amxo'rlik qilishdan iboratdir. Uning Hindistonda olib borgan keng ilmiy tadqiqot ishlari xalqlar o'rtasidagi do'stlik, o'zaro hamkorlik va madaniy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan edi. Beruniy madaniy hamkorlik va ilm-ma'rifatning keng tarqalishiga katta e'tibor berdi.

2–amaliy mashg'ulot:

MAVZU: O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA KENG TARQALGAN TASAVVUF FALSAFASI

Maqsad: o'rta asrlar Sharqida gullab-yashnagan, arab-musulmon falsafiy tafakkurining ajralmas qismi bo'lgan tasavvuf falsafasining mohiyati, uning yirik namoyondalari va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan oqimlari, undagi inson kamoloti to'g'risidagi g'oyalari haqida tushunchalar hosil qilish; shuningdek, talabalarda mazkur diniy-falsafiy ta'limotda ilgari surilgan g'oyalarni qadimgi hind, xitoy, yunon va boshqa ta'limotlardagi qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilish va olingan xulosalarni falsafiy mushohada qilish malakalarini rivojlantirish

Topshiriq: "O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA KENG TARQALGAN TASAVVUF FALSAFASI" mavzusini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma'ruza, seminar mashg'ulot jarayonlarni loyihalashtiring

Nazariy ma'lumotlar:

Tasavvuf ilk islom davrida paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning ildizlarini xristianlik, hinduviylik va buddaviylikdagi ruhan cheksizlikka intilib,

¹³⁰ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild, –T.: Fan, 1968, 74-bet.

¹³¹ Abu Rayhon Beruniy. Izbranniye proizvedeniY. T. 2, 1963, –S. 23.

u bilan birlashib ketish hamda xilma-xillikdan holi bo'lgan oldingi yagonalik holatiga qaytish ma'nosida kelishligi ajablanarli emas (1- ilova).

Islom davridagi zuhdning, ya'ni molu-dunyoga hirs qo'ymaslikning eng yirik vakili Hasan Basriy (vaf. 110/738) bo'lib, islom tarixidagi eng muhim burilish davrida yashadi. Arab dunyosidagi hokimiyatning yangi turi bo'lgan xalifalik masalasidagi tortishuvlar natijasida vujudga kelgan sharoit va uchinchi xalifa Usmonning 656 yilda qatl etilishi oqibatida musulmonlar jamoasi ikki guruhga bo'linib ketdi. Bu narsa ummaviylar bilan Ali tarafdorlari bo'lgan shialar o'rtasidagi nizoni keltirib chiqardi. Bu voqeaning mafkuraviy negizi sifatida bir asrga cho'zilgan siyosiy va kalomiy bahslar kelib chiqdi. Siyosiy kurashga asos sifatida kalomiy bahslarning katta gunoh, qazo va qadar, kishining o'z ixtiyori haqidagi masalalar kelib chiqdi. Bu harakatning peshqadami sifatida Hasan Basriyning shogirdlaridan biri Vosil ibn Ato kurash sahnasiga chiqdi.

Hasan Basriyning diniy hayotdan olgan xulosasi zohidona bo'lib, parhezkorlik, faqirlik, noz-ne'matlardan nafratlanish, uning birinchi fikriy unsurlaridan iborat edi. U tavsiya etgan hayot tarzi fikrlash, nafsni hisobga olish, xudoning xohishiga mutlaqan taslim bo'lishdan iborat ediki, natijada ichki rizolik holati kelib chiqar edi. Bunday holatda ilohiy yo'llanma bilan insoniy iroda o'rtasida muvozanat butunlay o'rtadan ko'tariladi.

So'fiyona faoliyat keyinchalik Basradan 762 yilda Mansur tomonidan barpo etilgan va xalifalikning siyosiy va diniy poytaxti deb e'lon qilingan Bag'dodga ko'chdi. Bag'dodning eng yirik so'fiylari qatorida Ma'ruf Karxiy (vaf. 199/815), Mansur ibn Alisher (vaf. 224/839), Bishr ibn Xofiy (vaf. 227/842) va Ibn Abi ad-Dunyo (vaf. 281/894)larni ko'rsatib o'tish mumkin. Bag'dod so'fiylarining eng mashhurlari Mahosibiy (vaf. 243/857) va Junayid (vaf. 297/910) edilar. Mahosibiy Basrada tug'ilgan bo'lib, keyinchalik Bag'dodga kelgan edi. Ko'p o'tmay u bu yerda hanbaliylar bilan to'qnashib qoladi, chunki u o'zining diniy bahslarida kalom ilmining usullaridan foydalanar edi. Mahosibiyning tasavvufiy aqidasi ikki asosga tayanar edi: birinchisi «Mahosibai nafs», ya'ni «nafsni hisobga olish», shuning uchun laqabi Mahosibiy bo'ldi; ikkinchisi xudo «mahbub»i yo'lida har qanday og'ir balo-qazolarga ham chidashga tayyor bo'lish. U o'zini haqiqiy parhezkorlikning meyori deb bilsa, azob tortishga (balo-qazolarga chidash) tayyor turishni, buyuk fazilat sanalgan «sabr»dan bahramand bo'lishning nishonasi, deb biladi. Mahosibiy ibodat farzlarining qimmatini inkor etmagan holda, imonning ikki jihatlariga tayanadi. Imon har vaqt bo'ysunish va ixlos ruhi bilan aralashgandagina, ma'naviy holatda o'sha inson samimiyligiga aylanadi.

Abul Qosim Junayid tasavvuf an'anasida birinchilardan bo'lib bu sohaga qadam qo'ygan eng yirik pirlardan biri hisoblanadi. Mahosibiy, Saqtiy (vaf. 256/870) va Abu Xafs Haddod (vaf. 259/873) Junayidning

ustozlari edilar. Agar u o'rtacha mo'tadillikda ish olib borgan bo'lsa ham, o'zini xudoga qo'shib ketgan deb his qiluvchi so'fiylardan bo'lgan Boyazid Bistomiyni (vaf. 260/874) hurmat qilar edi. Junayid tasavvufning keyingi davridagi yoyilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. U xudoning yagonaligi va har narsaga qodirligidan, unga cheksiz muhabbat va chuqur his-tuyg'u orqali hayajonli tadbirlar bilan murojaat qilib, uning visoliga yetishni tashviq qildi. Uning bu tashviqidan ilhomlangan Halloj (vaf. 309/922) o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Junayidning bevosita va bilvosita shogirdlari orasida xudo bilan qo'shib ketish darajasidagi oshiq Hallojdan tashqari, sunnatga og'ishmay rioya etuvchi pirlar, kalom ilmining yirik namoyandalari va tasavvuf shayxlaridan bir nechasini topish mumkin. Hatto G'azzoliydek shaxs ham uni o'zining eng yirik ma'naviy ustoz sifatida tanlagan edi.

Ilohiy ishq bodasidan mast bo'lgan beparvo so'fiylar ichida o'zini tuta olmay vahdat havoyisi bo'lib qolganlardan ikki kishi, ayniqsa mashhurdir. Bular Bistomiy va Hallojlardir. Ibn Sino bilan do'stlik munosabatlarida bo'lgan Abu Said Abul Xayr (vaf. 440/1049) va Shibliyga (vaf. 334/943) o'xshaganlar ikki asrdan keyin ularning yo'lidan borib, o'z turmush tarzlarida shattoh tasavvufiy namunalarini oshkora ko'rsatib, qabul qilingan urf-odatlar chegarasidan chiqib, devonavor hunarlar ko'rsatdilar.

Boyazid Bistomiy (vaf. 261/875) Xurosonning g'arbidagi Bistomda tug'iladi va musulmonchilikni yaqinda qabul qilgan Abu Ali Sindiy tarbiyasida tasavvufga kiradi. U «al-fano tavhid» (tavhidda fanoga aylanish) aylanish ta'limotini Bistomiya o'rgatadi. Bistomiy yuqorida aytilgan so'fiylarga qaraganda ham o'z jonini ongli ravishda qiyinchiliklarga solib, bir yo'la insoniy qolipdan chiqib (pok va shaffof) xudo bilan yuzma-yuz bo'lmoqchi bo'ladi.

Junayid Mansur Hallojga sufiylik xirqasini kiygizgan va 25 yil davomida ma'naviy murshidlik qilgan edi. Ammo Junayid Hallojning haddan oshuvchilik tamoyili borligidan xavfsirar edi. Rivoyatlarga ko'ra, Hallojning o'zbilarmonligi va takabburligi tufayli, ular bir-birlaridan aloqani uzishgan.

Garchi Hallojning rasmiy ayblanishi uning «anal haq» («men xudoman»), deyishi va mo'minlarning shariat farzlarini bajarishda o'z ixtiyorlaricha erkin ish tutishi mumkinligini aytgani sababli bo'lsa ham, ammo uning iskanjasiga solinib, keyinchalik qatl etilishining asosiy omili siyosiy to'polon chiqarganligida edi. Sudda unga xudo nomidan birinchi shaxs sifatida ilgarigi gaplarini eslatganlarida, o'zini himoya qilib, bunday so'fiyona ta'limotdagi «aynul jam'» holatiga to'laligicha to'g'ri kelishini aytgan. Bunday holatda so'fiy xudo qo'lidagi asbobdan o'zga narsa emas. Bu yerda shuni qayd etmoq zarurki, ko'pchilik orasida yoyilgan fikrga qarshi o'laroq, Halloj «anal haq» deganligi uchungina sud

qilinmagan. Ehtimol, bunday tasavvur shundan kelib chiqqan bo'lsa kerakki, Halloj «anal haq» deyishga boshlagan vaqtda Junayid bashorat qilib, bunday fikr uning boshiga yetadi, degan edi. Har holda sud muhokamasi ja- rayonida Hallojning «anal haq»deyishida ayblamaganlar¹³². Shunday bo'lsa ham, uni ayblovchilar, ayniqsa, xalifaning vaziri Homid uning «aynul jam'» holatini bayon qilishdagi kalomiy tafsirlariga qulog'ini ding tutib, xalifaning Hallojni darra bilan urish va so'ngra boshini tanasidan judo qilish haqidagi farmoniga qaramasdan, o'ta hasadchiligi tufayli uni darra bilan urishga, badanini qiyma-qiyma qilishga, dorga osishga, bo'ynini kesishga, keyin esa, jasadini yondirib, kulini Dajla daryosiga tashlashga buyruq berdi. Bunday jazolash butun islom dini tarixi davomida yuz bermagan edi. Hammani taajjubga soladigan Hallojning ta'limoti va uning o'limi shuni ko'rsatadiki, tasavvufdan qanchalik xavfli xulosalar, shu bilan birgalikda diniy rasm-rusumlar va imon ma'rifati qoliplaridan chiqishlar yuz berib turadi. Binobarin, tasavvufning islom dini tafakkuri tarixidagi o'chmas qadriyati shundaki, quruq ixlos qolipidagi aqidaga jozibakorlik va shodlik tuyg'usini bag'ishlaydi va istalgan maqsadga yetishish yo'llarini hal qilib berishga da'vo qiladi.

Junayid tasavvuf mohiyati, hikmatlarini ommalashtirish xavfli, deb hisobladi. Zero, avom nozik ma'nolarni anglashdan ojiz, noto'g'ri talqinlar paydo bo'ladi va imon-e'tiqodga putur yetadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Junayid Mansurni osish to'g'risida tayyorlangan fatvoga o'zi ham qo'l qo'ygan. Junayid Bag'dodiyning aytishicha, haqiqiy baqo «sahv» xushyorlikka qaytish- dan keyin boshlanadi. «Sukra»dagi odam bamisoli dengizga sho'ng'ib, g'arq bo'lgan kishi bo'lsa, «sahv»ga qaytgan dengizga sho'ng'ib, gavhar donalarini olib chiqqan g'avvosdir.

Shunday qilib, Boyazid Bistomiy tasavvuf tarixida vajdiy (irratsional), intuitiv bilish nazariyasining asoschisi hisoblansa, Abul Qosim Junayid Bag'dodiy esa, ilm va aqlga suyanadigan «xushyorlik» (ratsional) bilish nazariyasiga asos soldi va tasavvuf ta'limotini ilmiy- nazariy qarashlar bilan boyitishga ulkan hissa qo'shdi. Zamondoshlari Junayidni behudaga «aql haykali», deb aytmaganlar.

Agar tasavvuf tarixini ko'zdan kechirsak, bu ikki konsepsiya ko'p asrlar davomida yashab kelganligi va tasavvufning vujudga kelishiga sabab bo'lganligini ko'ramiz. Yana shunisi ham borki, har ikki oqimni birlashtirishga uringanlar ham bo'lib turgan.

Insonda aql bilan tushuntirib bo'lmaydigan holatlar bo'lishini fan isbotlamoqda, ulug' kashfiyotlar aynan shu «behudalik» holatida qo'lga kiradi. Orifona tasavvuf barcha ilmlarni qamrab oladigan hikmat, falsafani ham qo'shadigan tasavvufdir. Oshiqona tasavvuf ishqiy kechinmalar, ishqiy-zavqiy irfonni birinchi o'ringa qo'yib, muhokama yuritadigan, to'g'rirog'i muhokama- tafakkurdan ko'ra, his-hayajon, muhabbat

¹³² Qarang: Komil Mustafo al-Shaybiy. Al-Halloj devonining sharhi. – Bayrut- Bag'dod. 1394/1974, –B.58. (arab tilida).

shavq-zavqi toshqinini afzal ko'radigan tasavvufdir. Malomatiya va qalandariya oqimlari ham mohiyatan oshiqona tasavvufning shahobchasidir.

Yoshlarda bo'ladigan muhabbat shavqi va zavqi avvalo bu dunyoga nisbatan bo'lishi kerak. Hozirgi zamonamizda fan va texnika taraqqiyoti shunday imkoniyatlarni yaratganki, u butun bashariyatning asriy orzusi bo'lgan to'la baxt-soadatni yer yuzining o'zida yaratib berishga qodir. Ana shunday zamin o'tmishda bo'lmaganligi uchun orzularga yetishishning chorasi sifatida turli tasavvuf tariqatlari kelib chiqqan. Ularni o'rganar ekanmiz, zamonamiz qadriga ko'proq yetamiz.

Yusuf Hamadoniy faoliyati **(1048-1140)**

Movarounnahr diniy-irfoniy ta'limotining asoschilaridan biri Yusuf Hamadoniydir. U Movarounnahr va Xurosonda o'z tasavvuf maktabiga asos soldi. Uning hayot tarzi halol yashashni targ'ib qilishga qaratilgan edi. Yusuf Hamadoniy Buxoroda va keyinchalik Marvda tashkil etgan tasavvufiy to'garaklarida payg'ambarimizning «faqirlik faxrimdir» degan qudsiy kalimalarini o'zining hayotiy shiori, deb bilib, uni shogirdlariga singdira boshladi. Hamadoniy tasavvuf maktabidan kelgusida Turkistonda ommalashib ketgan «yassaviya» va «xojagoniya» tariqat asoschilari yetishib chiqdi. Yusuf Hamadoniy Marv va Buxorda xonaqo va madrasa qurdirib, ko'plab turkiy zabon va forsiygo'y shogirdlar tayyorladi. Buxorodagi shogirdlari orasidan Hasan Andoqiy, Abdullo Baraqiy, Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G'ijduvoniy alohida ajralib turardi. Keyinroq bu to'rt iste'dodli shogird Hamadoniy maktabini muvaffaqiyat bilan davom ettirdilar¹³³.

«Yassaviya», «Naqshbandiya» tariqatlari Hamadoniy ta'limoti asosida shakllandi.

Hazrati Yusuf Hamadoniyning to'liq ismi Abu YA'qub Yusuf bin Ayyub bin al-Husayn bin Vahora al-Hamadoniy bo'lib, 1048 yilda Hamadon (Eron) yaqinidagi Buzanjird qishlog'ida tavallud topgan. Yusuf Hamadoniy 17 yasharli yigit paytida ilm istab, XI asrdagi xalifalikning poytaxti – Bag'dodga keladi va u yerdagi mashhur «Nizomiya» madrasasida o'qiydi. U o'z davrining atoqli donishmandlari bo'lgan Abu Ishoq ash-Sheroziy, Abu Ishoq an-Nazzoriy, Xatib al-Bag'dodiy, Abu Ja'far bin Muslim, Abu Husayn al-Muhtadiy kabi olimlardan fiqh, hadis, tasavvuf va ma'naviyatning boshqa sohalaridan chuqur ta'lim oladi. Keyinchalik xaloyiq orasida hadislar to'plash maqsadida Isfahon, Balx, Hirot, Marv, Buxoro va Samarqand shaharlariga bir necha bor safar qiladi. Hamadoniy Bag'dodda yashagan kezlari as-Sam'oniy, Ahmad al-G'azzoliy (mashhur mutasavvif Abu Homid al-G'azzoliyning akasi)lardan tasavvufga oid ilmlarni o'rgangan, ularning

¹³³ Qarang: O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akademik Xayrullayev M.M. tahriri ostida. –T.: O'zbekiston, 1995. –B.103- 104.

va'z-nasihatlarini tinglagan. As-Sam'oniy qo'lidan hirqapo'sh (ya'ni mustaqil ravishda tasavvufga jalb qiladigan murshid) bo'lgan. Yusuf Hamadoniy umrining ikkinchi yarmini ko'proq Hirot, Marv, Samarqand va Buxoro shaharlarida o'tkazadi.

Ham «yassaviya», ham «naqshbandiya» (Xojagon) tariqatlarining ma'naviy otasi bo'lmish Yusuf Hamadoniy ta'limotiga ko'ra, o'zining tamom fikri-zikrini Alloh-taoloning visoliga yetishishga bag'ishlagan, bunday ezgu va najib yo'lda poklik, to'g'rilik, halollik, o'z qo'l kuchi va peshona teri, halol mehnati bilan kun kechiradigan, buning uchun hormay-tolmay mujodala va muboriza qiluvchi, har tomonlama kamolotga erishgan insonlargina ahli tasavvuf, deb atalishi mumkin.

Yusuf Hamadoniy dastavval ilm-an-nazar (ratsionalizm) sohasida katta mutaxassis bo'lib yetishsa-da, tez orada o'sha ilmdan voz kechib, haqiqiy xudojo'ylik yo'liga kiradi, o'zi xudo vasliga yetmoq uchun say-harakat qiladi, o'z kamolotini oshiradi, boshqalarni ham mana shu yo'lga da'vat etadi va bu sohada ko'plab shogirdlar tarbiyalaydi.

90 yoshdan oshgan mo'ysafid donishmand Shayx Yusuf Hamadoniy Bomiyon (hozirgi Afg'oniston) shahrida olamdan ko'z yumadi. Uning jasadini shogirdlaridan Ibn Anjar (ustoz vasiyatiga ko'ra) Marvga olib kelib, dafn etadi¹³⁴.

¹³⁴ Qarang: Faxruddin Ali as-Safiy. Rashahot ayn-ul-hayot. O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozma asarlar xazinasi. Inv. –№ 3593. LitografiY. Laknau. 1890. –B.6-7. (fors tilida).

Xoja Ahmad Yassaviy qarashlari (1041-1167)

XII Asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir. U 1041 yilda Sayramda, Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelgan. Uning vafot etgan vaqti ko'pgina qo'lyozma manbalarda hijriy 562 (1166/67) yil deb yozilgan. Ahmad yoshligida onasidan, so'ng otasidan ajraladi. Uni bobosi Arslonbob tarbiyalab voyaga yetkazadi. Ahmad dastlabki ta'limotini Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfinjobiydan oladi. So'ngra bobosi Arslonbob ko'rsatmasi bilan Buxoroga borib Yusuf Hamadoniyan ta'lim oladi. Ahmad Yassaviyning o'zi

«Ustoz Yusuf Hamadoniyaning huzuriga 23 yoshida borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo'lg'onligini» aytadi¹³⁵. U yerda tasavvufdan ta'lim olib, so'ng o'z yurti Turkistonga qaytadi, tasavvuf ta'limotini targ'ib etib, shogird, muridlar tayyorlay boshlaydi.

Alisher Navoiy iborasi bilan aytganda, «Turkiston mulkinging ulug' Shayx-ul-mashoyixi» Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy juda ko'p mutasavvuf donishmandlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ma'lumki, «Yassaviya» tariqatidan keyin Markaziy Osiyoda ikki yirik tariqat paydo bo'ladi: «Naqshbandiya» (Xojagon) va «Bektoshiya».

XVI asrda yashagan yirik tasavvuf namoyandasi bo'lgan Mahdumi A'zam o'zining «Risolate ilmiya» («Ilmiy risola») asarida ta'kidlashicha, Yassaviya tariqatining shiori «Niyating xudoda, qo'ling ishda bo'lsin» iborasi edi. Keyinchalik ko'ramizki, bu iboraning forscha tarjimai bo'lgan

«*Dil ba Yoru, dast ba kor*» Naqshbandiya tariqatining asosiy shoriga aylangan.

«Yassaviya» tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo'lmish «Hikmat»da mufassal bayon etilgan. XII asrdagi turkiyzabon she'riyatining ajoyib namunasi bo'lgan, keyingi davrlardagi turkiy adabiyotga katta ta'sir ko'rsatgan «Hikmat» asarida «Yassaviya» ta'limotidagi poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z qo'l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo'lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillash- tirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Bag'dodda 922 yilning 22 mart kuni shayxlar va mutaassib ulamolar tomonidan xudosizlikda ayblanib dorga osilgan, so'ngra qo'l-oyoqlari kesilib, tanasi kuydirilib, daryoga tashlangan mashhur mutasavvuf Mansur Halloj (858-922)ni Yassaviy bir talay she'rlarida chuqur hurmat bilan tilga oladi, dovyurak va jasur mutasavvufga katta rag'bat ko'rsatadi:

*«Bilmadilar mullolar «Anal-haq»ning ma'nosin, Qol
ahliga hol ilmin Haq ko'rmadi munosib.*

¹³⁵ Qarang: Usmonov O. Ahmad Yassaviy. //Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. –B.135-136.

*Rivoyatlar bitildi, holin ani bilmadi,
Mansurdek avliyoni qo'ydilar dorga osib.
Shariatdur, deb olimlar buyurdilar, Kofir
Mansur o'lmadi, deb kuyurdilar. Axgar qilib
kulin ko'kka sovurdilar,
Tog'u tuzlar «Anal-haq», deb turar ermish»¹³⁶.*

Yassaviy ham o'zining piri buzrukvor shayx Yusuf Hamadoniya o'xshab mol-dunyo to'plashga mutlaqo qiziqmaganini, kambag'alparvar va g'aribparvar bo'lib yashaganligini uning ba'zi bir hikmatlaridan ham bilsa bo'ladi. Mol-dunyoga, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni Yassaviy qattiq tanqid qiladi:

*Beshak biling bu dunyo barcha xalqdan o'taro,
Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro,
Oto, ono, qarindosh qayon ketdi, fikr qil, To'rt
oyoqlik cho'bin ot bir kun sango yetaro.*

Darhaqiqat, Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyodagi ilk tasavvufiy tariqat – «Yassaviya»ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma'naviy tarixida keng ma'lum bo'lgan, mutasavvif, insonparvar shoir hisoblanadi.

¹³⁶ Qarang: Usmonov O. Ahmad Yassaviy. //Ma'naviyat yulduzlari. –B.135-136.

Najmiddin Kubro ta'limoti
(1145-1221)

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodir.

Ahmad ibn Umar Abul-jannob Najmiddin Kubro 540 hijriy yilda Xorazmning Xivak shahrida dunyoga keladi.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur «Lug'atnoma»sida keltirilishicha, «u kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tuganmas zakovatlari tufayli har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, g'olib chiqar edilar»¹³⁷.

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi so'nggi hayoti o'ta og'ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. Bu davrda Turon o'lkasidagi Xorazm, Shosh, Buxoro va Samarqand hukmdorlarining noahilligi, tang nazarligi tufayli mo'g'ullarning Turkistonga qilayotgan hamlalari kuchayib, Chingizxon lashkarboshilari Movarounnahrdagi yirik shaharlarni birin-ketin beayov bosib olishga muvaffaq bo'lganlar. 1221 yilning jumad ul-avval (iyul) oyida Chingizxon lashkarboshilaridan biri Xulaguxon o'zining yosh o'g'li, tumonat lashkari bilan Urganch qal'asini o'rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og'ir sharoitda azob chekayotgan bir asnoda munkillab qolgan, yetmishdan oshgan Najmiddin Kubro xalq orasidan lashkar to'plab, qo'lida qurol bilan qal'ani bir necha kun davomida dushman hamlalaridan saqlab turadi.

Najmiddin Kubro yuksak obro'ga ega bo'lsa ham, kamtarona hayot kechirgan. Ammo u kishining ba'zi muridlari mamlakat miqyosida shunchalik nufuzga ega bo'lganlarki, hatto Faxriddin Roziy kabi faylasuf va sulton Muhammad Xorazmshoh ham ularning raqobatidan xavotirlanganlar. Masalan, «Sulton ul-ulamo» laqabiga ega bo'lgan Jaloliddin Rumiyning otasi Bahovuddin Valad Balx shahrining uch yuzga yaqin faylasuf olimlari bilan bahs yurgizgan va ularni yunon falsafasi bilan ortiqcha shug'ullanishda ayblagan. Najmiddin Kubroning boshqa bir shogirdi, o'z navbatida shayx Farididdin Attorning murshidi bo'lgan xorazmlik Majiddin Bag'dodiy hokimiyatdagi ishlarni tanqid qilgani uchun qatl qilingan. Lekin uning minglab shogirdlari bo'lgan. Ba'zida sulton Muhammad Xorazmshohning o'zi ham shayxlarning huzuriga kelib, ularni ziyorat qilib turgan.

Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jangga kirib, shahid bo'lgan. Jangdan keyin, u kishining

¹³⁷ Ali Akbar Dehxudo. Lug'atnoma. 104-jild. –Tehron universiteti nashri. 1965, – B.365 (fors tilida).

jasadini darhol topisha olmagan. Chunki ul zot qiyma-qiyma qilib tashlangan edilar. Shahid bo‘lganliklari haqidagi ma’lumotni hijriy 710 (1311) yilda yozilgan Rashiddin Fazlillohning «Jomeat ul-tavorix» («Tarixlar to‘plami») asarida uchratamiz.

Chingizxon shayx Najmiddin Kubroning mashhurliklarini eshitgan bo‘lganligidan Xorazmga hujum qilish oldidan, u kishiga chopar yuborib, «men Xorazmni qatliom qilmoqchiman, shuning uchun Sizdek ulug‘vor shaxsni u yerdan ketib, bizga qo‘shilishingizni so‘rayman», degan. Ammo shayx unga javoban: «Men yetmish yil umrim davomida xorazmliklar bilan turmushning achchiq-chuchugini birga tortganman. Endi ular boshiga balo-qazolar yog‘ilayotgan paytda gochsam, muruvvatdan bo‘lmaydi»¹³⁸, degan. Hijriy 733 (1334) yilda Xorazmga safar qilgan mashhur arab sayyohi Ibn Battuta Urganch shahridan chiqqan berishdagi zoviyada Najmiddin Kubroning maqbarasi va boshqa ulug‘larning mozorini ko‘rganligini yozadi¹³⁹.

Najmiddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozganki, ular juda ko‘p tazkiralarda uchraydi. U o‘z qarashlarini arab tilida yozgan bir qator risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiylari «Favo‘ix al-Jamol va favoix al-jalol», «Al-Usul al-ashara», «Risolat al-xo‘if al-xa‘im min laumon al-la‘im» va boshqalardir.

Ma’lumki, Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida o‘z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning aqidasi ko‘ra, inson o‘z mohiyati e’tibori bilan mikrokosm, ya’ni kichik olamni tashkil etadiki, u makrokosm, ya’ni katta dunyo bo‘lgan koinotdagi barcha narsalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ammo ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o‘ziga xos maqomlarda joylashganligidan, haqiqat yo‘lini qidiruvchilar bunday yuksakliklarga ko‘tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo‘lishi uchun, ya’ni kamolotga erishishi uchun, ma’lum riyozatli yo‘llarni o‘tishlari zarur. Buning uchun esa, har bir kishi o‘n asosga tayanmog‘i kerak (3-ilova):

Najmiddin Kubro shahid bo‘lgandan so‘ng, uning ta’limotini shogirdlari davom ettirib, Markaziy Osiyo Kubraviya maktabini vujudga keltirdilar. Bu birodarlik firqasi a’zolarini birlashtirgan narsa rasmiy tashkilot emas, balki ta’limotning ruhi va maqsadi edi.

Kubraviya maktabi bir qator mustaqil shahobchalar vujudga kelishiga sabab bo‘ldiki, ular musulmon dunyosi Sharqida keng tarmoq otdi. Bu tarmoq kelib chiqish manbaini Kubroning boshqa bir shogirdi bo‘lgan Majiddin Bag‘dodiy

¹³⁸ Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviye ma’naviy: Muqaddima. Qobul. 1982. – B.8. (fors tilida).

¹³⁹ Qarang: Ibragimov N. Ibn Battuta i yego puteshestviya po Sredney Azii. – M.: Nauka. 1988. –S.74.

(Bag‘dodak Xorazmdagi qishloq bo‘lib, undan chiqqan Majdiddin 1219 yilda qatl etilgan) asos solgan tariqatdan, deb hisoblar edilar. Bular quyidagilar:

Firdavsiya – Sayfiddin Bahorziy shogirdining xalifasi bo‘lgan, 1300 yillarda vafot etgan Najibiddin Muhammad tomonidan tashkil topgan va Hindistonda (Dehli, Bihar) tarqalgan;

Nuriya – 1317 yilda vafot etgan Abdurahmon al-Isfaroiniy tomonidan asos solingan bo‘lib, Kubraviyaning Bag‘dod shahobchasi hisoblanadi;

Rukniya – o‘z kelib chiqishini 1261-1336 yillarda yashagan Rukniddin Alo‘addavla as-Simnoniydan olgan birodarlik tariqati;

Hamadoniya oliya – Kashmirda islomni yoyishda faol ish ko‘rsatgan Sayyid Ali binni Shahobiddin Hamadoniy (1314-1385) asos solgan, rukniyadan ajrab chiqqan birodarlik tariqati bo‘lib, Kubraviya tariqati silsilasining boshqa shahobchalariga qaraganda eng mashhurdir;

Ig‘tishoshiya – hamadoniya oliyaning Xuroson shahobchasi bo‘lib, Ishoq al-Xuttaloni (1423 yilda o‘ldirilgan) tomonidan asos solingan. Uning ikki shogirdi esa, ikki mustaqil shia tariqatiga asos solishgan;

Zahabiya – asoschisi XV asr o‘rtalarida vafot etgan Abdulloh Barzishobodiy Mashhadiy;

Nurbaxshiya – asoschisi Nurbaxsh (1392-1464) laqabli Sayyid Muhammad binni Muhammad.

Yuqorida aytilganlar shundan guvohlik beradiki, Najmiddin Kubro ta‘limoti butun musulmon Sharqi mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lib, hozirda ham uning ko‘rinishlarini uchratish mumkin.

Kubroviyada quyidagi o‘ziga xos jihatlar ko‘zga tashlanadi:

Najmiddin Kubro «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» hadisi sharifiga amal qilgan. U diniy, ilohiy, laduniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlarni ham o‘rganishga erishdi. Diniylikni dunyoviylik bilan bog‘lashga harakat qilish ushbu tariqatning asosiy xususiyatidir.

Xojagon tariqati va Bahouddin Naqshband

Mu‘tazila ta‘limoti Markaziy Osiyoda diniy-falsafiy ta‘limotlarni vujudga kelishi uchun g‘oyaviy zamin tayyorladi. Bularga ismoiliylar, qarmatlar va tasavvufni misol keltirish mumkin. Umuman olganda, mashhur sharqshunos YE.E. Bertels fikricha, mu‘taziliylar ta‘limoti tasavvufga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi¹⁴⁰.

Tasavvuf nazariyotchilari Abu Homid G‘azzoliy (1058-1111), Shahobiddin Yahyo as-Suxravardiy (1115-1191), Ibn Arabiy (1165-1240) va boshqalar o‘z davrining bilimlarini puxta egallagan, turli bilim sohalaridan xabardor mutafakkirlar edilar.

Al-G‘azzoliy ta‘limoti tufayli, tasavvuf musulmon ruhoniylari tomonidan tan olindi. G‘azzoliy tavhid mohiyatini anglab yetmoq uchun aql va

¹⁴⁰ Qarang: Bertels YE.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. T. 3. –M.: Nauka, 1965. –S.28.

mantiqning o‘zi kifoya qilmasligini tan olib, tasavvuf irfoni qadriyatlarini himoyasiga o‘tadi¹⁴¹.

X asrdayoq Markaziy Osiyoda tasavvuf bo‘yicha ayrim risolalar yozilgan va ular tasavvufning mintaqada ommalashuviga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatgan. Bular Hakim Termiziyning (vaf. 908) «Kitob xatm al-vilaya»¹⁴² va Muhammad ibn Ibrohim Buxoriy Kalobodiyning (vaf. 995) «Kitob at-tarruf li mazhab ul-tasavvuf» nomli asarlari bo‘lib, ular tasavvufning so‘nggi rivojiga g‘oyaviy manba bo‘ldi. Markaziy Osiyoda tasavvufning tarqalishini ikki so‘fiy: Abdul Hasan Ali al-Xaraqoniy (vaf. 1034) va Abu Ali al-Farmoziy (vaf. 1084) nomlari bilan bog‘lash o‘rinli.

Abu Ali al-Farmoziyning ikki shogirdi Abu Ahmad al-G‘azzoliy (vaf. 1126) va Yusuf Hamadoniy irfoniy izchillikni davom ettirdilar. Yusuf Hamadoniy ta‘limotidan ikki tasavvuf maktabi – Yassaviy va Xojagon tariqatlari kelib chiqdi. Yassaviya tariqati Ahmad Yassaviy, Xojagon tariqati esa, Abduxoliq G‘ijduvoniy nomlari bilan bog‘liq¹⁴³.

Xojagon tariqati XII-XIV asrlar davomida faoliyat ko‘rsatdi.

Xojagon tariqatining asoschisi Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy (1103- 1179) bo‘lib, u Buxoro yaqinidagi G‘ijduvon tumanida tavallud topgan.

«So‘ngra shayxush-shuyux olim va orifi rabboniy Xoja va imom Abu YA‘qub Yusuf Hamadoniy Buxoroga kelib turlar va Xoja Abdulxoliq alar suhbatig‘a yetib turlar va ma‘lum qilib turlarki, alarda ham ko‘ngil zikri bor. Alar suhbatida bo‘lur ermishlar va ma‘lum qilib turlarki, to alar Buxoroda ermishlar, deb turlarki, Xoja alarning saboqi va zikri piridurlar va Xoja Yusuf suhbat va xirqalari piri Xoja Yusufdin»¹⁴⁴, - deb yozadi Xazrat Navoiy.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy Hamadoniy ta‘limotini yangi amaliyotlar bilan boyitdi va mustaqil bir sulukka asos soldi.

Xojagon tariqatining yirik namoyandalaridan biri, Hazrat Azizon nomi bilan mashhur bo‘lgan Xoja Ali Romitoniidir. Turkiy tildagi manbalarning guvohlik berishicha, Romitoni 1195 yilda Romiton qishlog‘ida tug‘ilib, shu yerda 1321 yili vafot etgan.

Xojagon tariqatining mashhur vakillaridan biri, Sayid Amir Kalon as-Suxoriy edi. Manbalarda uning tug‘ilgan yili ko‘rsatilmagan. Sayid Amir Kalon Suxor qishlog‘ida tug‘ilib, kulolchilik kasbi bilan hayot

¹⁴¹ Qarang: Imomnazarov M. Milliy ma‘naviyatimiz takomil bosqichlari. – T.: Sharq, 1996. –B.63.

¹⁴² Trimingem D. S. Sufiyskiye ordena v islame. –M.: Nauka, 1989. –S.51.

¹⁴³ Qarang: Muminov I.M. Filosofskiy vzglyadi Mirzi Bedilya (Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari). –T.: Fan, 1957. –S.14.

¹⁴⁴ Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. To‘la asarlar to‘plami. 10-jild. –T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011. –B.301.

kechirgan. Shuning uchun xalq orasida Amir Kulol¹⁴⁵ nomi bilan mashhur bo'ldi. Uning haqida ma'lumot «Maqomoti Miri Kulol» da saqlangan.

Amir Kulol, Muhammad Boboyi Samosiy o'gitiga asosan bor bilimlarini Bahouddin Naqshbandga berganidan so'ng ijozat berib, unga boshqalardan ta'lim olishini aytadi. Shundan so'ng, Naqshband yetti yil davomida orif Degaroniydan ta'lim olgan. Hazrat Amir Kulol hijriy 772, milodiy 1370 yili vafot etdi.

Xojagon tariqatidagilar Tangrini haq deb, unga yetishish, uni bilish va tanishni haqiqatga erishish, deb bilganlar.

Xojagon tasavvufiy ta'limotining falsafiy asosi «vahdati-vujud» bo'lib, borliq – yagona asl zotning tajalliysi, nuri deb qaraladi. Ular ta'limoti bo'yicha, butun borliq Haqning jamol va jalolining tajalliysi va ko'rinishlaridir. «Qalb to'la soflikni topganidan so'ng, - deb yozadi Xoja Ali Romitoni, - unda vahdoniyatning nuri porlar, u tajalliy ahli bo'lur»¹⁴⁶. Turk olimi Usmon Turorning fikricha, «vahdati vujud» aqliy dalil bilan emas, qalbiy mushohada, zavq va hol bilan erishiladigan bir «irfon» bo'lib, aqliy nazariy emas»¹⁴⁷.

Abdulxoliq G'ijduvoniylar ilmni har tomonlama va chuqur o'rganishga, har qanday amalni ixlos bilan ado etishga da'vat qiladi. «Islom asosi uchun etgaysiz sidqi ixlos bilan eting»¹⁴⁸ – deydi o'gitlarida G'ijduvoniylar.

Yusuf Hamadoni, Abdulxoliq G'ijduvoniylar va Bahouddin Naqshband so'fiylar amal qilishi lozim bo'lgan 11 ta xulq-odob qoidalarini ishlab chiqqanlar. Bular «rashha» deb atalib, shulardan uchtasi Hamadoniya, to'rttasi G'ijduvoniya, yana to'rttasi Naqshbandga tegishlidir.

Naqshbandiya tariqatining asosiy diniy-falsafiy g'oyalari quyidagi uch manbaga tayanadi:

a) tariqatning o'n bir rashhasi (qoida). Ulardan to'rt mashhur kalima (chahor kalima): «Hush dar dam», «Hilvat dar anjuman», «Nazar bar qadam», «Safar dar vatan» asosiy qoidalardir;

b) tariqatning asosiy shiori bo'lgan «Dil ba Yoru, dast ba kor»;

v) naqshbandiyona hikmatlar, ya'ni yuksak insonparvarlikni, halolu poklikni yoritishga qaratilgan Naqshband «virdlari», ya'ni iltijo, nido va o'gitlari tashkil etadi (4-ilova).

G'ijduvoniylar va Bahouddin Naqshband hazratlari o'n bir rashhada lo'nda ifodalangan ta'limotni yaratganlar.

¹⁴⁵ Qarang: Shahobiddin ibn bintu Amir Hamza. Maqomoti Miri Kulol. 1436 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 1158. –B.2.

¹⁴⁶ Romitoni Xoja Ali. Risolai Hazrat Azizon. 1327 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 12548/II. –B.25.

¹⁴⁷ Usmon Turor. Tasavvuf tarixi. –T.: Istiqlol, 1999. –B.155.

¹⁴⁸ G'ijduvoniylar Xoja Abdulxoliq. Vasiyatnoma. Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasi, inv. –№ 3844. V. –B.147.

12. «*Xush dar dam*». Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, olam ikkiga: foniy va boqiy dunyoga bo'linadi. Bu olam foniy – o'tkinchi dunyodir. Inson uchun cheklangan miqdordagi bu dunyoni g'animat bilib, uning har bir lahzalarini xursandchilik va shukronalik bilan o'tkazmoqlik lozim bo'ladi.

13. «*Nazar bar qadam*» qoidasi kishining hayotida qo'yadigan har bir qadami nazorat ostiga olinmoqligini ta'kidlaydi. Bu qoida o'zlikni tanishga, idora etishga qaratilgandir. Bunda inson har bir qo'yilgan qadamini, har bir so'zini va fe'li-xayolini nazorat qilib turmog'i lozim. Har bir insonning o'z-o'zini nazorat qilishi esa, uni komillikka, Haqqa tomon yetaklaydi.

14. «*Safar dar vatan*». Inson borki, u sayyohdir. Uning xayoli ham, jismi ham sayr etadi. Islomda safarning eng oliysi – bu Haq yo'liga safardir. Tiriklikda esa, kishining eng oliy safari Haj safaridir. Tasavvufda darvesh-qalandarlarning asosiy xususiyati safar qilib, hayot kechirish bo'lgan. Bu tartib naqshbandiyada ham o'z ifodasini topgan.

15. «*Xilvat dar anjuman*». Uning oddiy ifodasi jamoa ichida yakkalik, yolg'izlik, ya'ni faqat xudo haqida o'ylab o'tirishlikdir. Hazratdan «tariqatingizning asosi nimadan iborat?», deb so'rganlarida, «xilvat dar anjuman, ba zohir bo xalq va ba botin bo Haq» («Halq orasidagi o'tirishlarda tashqi tomondan go'yo ular bilan, ammo ichki tomondan faqat Xudoni o'ylab o'tirish»), - deb javob berganlar.

16. «*Yodkard*» – bu qoida «Rashaxot»¹⁴⁹da bayon etilishicha, lisoniy yoki qalbiy zikrdir. Yodkard (Xudoni doimo eslash) qoidasidan keyingi uch maqom avvalgi maqom-qoidalarni mazmunan to'ldirib boradi. Yodkardning ma'nosi tariqatdagi so'fiylar foniy dunyoda hamisha haq yodi bilan yashamog'i lozimligini anglatadi.

17. «*Bozgasht*» – buning ma'nosi inson umrining foniyliigi, ushbu yorug' dunyodan albatta narigi, ya'ni boqiy dunyoqa qaytib borishi ta'kidlanadi.

18. «*Nigohdosht*» – buning ma'nosi kishi o'zini har qanday shaytoniy nafs qutqusidan pok saqlashi kerakligini uqtiradi.

19. «*Yoddosht*» – haq subhanahu va taoloni doimo zavqu-shavq bilan yodda (xotirada) tutib, ogoh bo'lishdir.

Ma'lumki, naqshbandiya tariqatida Bahouddin Naqshbandning o'zlari asos solgan rashhalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular uchta bo'lib, tariqatning 9, 10, 11-rashhalarini tashkil etadi:

20.«*Vuqufi zamoniy*» – buning ma'nosi so'fiy o'z umridagi har bir lahzani, soniyani Allohga shukr aytish bilan va uning bandalariga faqat yaxshilik qilish bilan o'tkazmoqlikni bildiradi.

21. «*Vuqufi adadiy*» – buning ma'nosi zikr jarayonida tartib, son alohida o'rin tutishligini qayd etishdan iborat. «... ul zikrda adadni rioya

¹⁴⁹ Faxruddin Ali Safiy. Rashahot (obi hayot tomchilari). –T.:Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. –B.36.

etmakdin iboratdur»¹⁵⁰. Muqaddas duolarni, kalimalarni zikr qilinishini sanash, ularni bilish va ularga rioya qilish kerakligini uqtiradi.

22. «*Vuqufi qalbiy*» – buning ma’nosi so’fiyning zikri qalban bo’lmog’i zarurligini ifodalaydi.

Naqshbandiya tariqatiga binoan, yuqoridagi o’n bir muqaddas qoidalarni mukammal bajargan kishi komil inson darajasiga yetishadi.

Naqshbandiyaning asosiy rashhalari bilan birga «Dil ba Yoru, dast ba kor» shiori ushbu tariqat negizini tashkil etadi:

10) Inson Alloh yaratgan mavjudotlarning eng sharaflisi va a’lo- sidir. Uning Zotining tajalliysidir. Demak, uning borligi ilohiy borliq bilan uzviy birlikda bo’ladi, degan fikrni uqtiradi;

11) Alloh insonga aql, besh sezgi, shuur, iroda bergan; say-harakat, baxt-saodatga eltuvchi yurak berib, uni ezgulikka da’vat etadi, ya’ni bunda dil Alloh makoni ekanligi ta’kidlanadi.

12) Insonning Allohga, hayotga va boshqa tirik jonzotlarga, kishilarga bo’lgan murakkab munosabatlarining yana bir muhim qirrasini – til va dil zikridagi farqlarni yoki mutanosiblikni kashf qiladi. Dil bilan qilinadigan munosabatlar jamiki hayotiy munosabatlarning eng ahamiyatlisidir;

13) Inson o’z hayotida eng og’ir musibatlar chog’ida ham o’zini yo’qotmay, insonlik sha’nini yuksak tutib yashashi, hur va go’zal inson bo’lishi zarurligini anglatadi;

14) Insonning hayotdan, o’zini buyuk zot – inson ekanligidan, Alloh bergan ne’matlardan roziligini chuqur va lo’nda ifoda etadi;

15) Bu shior bizni Alloh haqi, adl-insof, ezgulik yo’liga da’vat qilishini, inson hayotidan maqsad adl-insofni ro’yobga chiqarish, saodatga erishish ekanligini anglatadi;

16) Kishi qalbida Alloh bo’lishi, yaratgan ojiz bandasini har qanday salbiy o’y-xayol, fikr, xatti-harakatlar va faoliyatdan qaytarib turishini ta’kidlaydi;

17) Alloh hayotdagi haqiqatsevar, adolatli, ezgulik yo’lida yurgan har bir bandasini o’z karami bilan mukofotlashini ifodalaydi;

18) «Dil ba Yoru, dast ba kor»da asosiy g’oya – inson qalbi muttasil Alloh yodi bilan, inson qo’li, amaliyoti esa, ijtimoiy foydali mehnat, kasb- hunar bilan band bo’lmog’i ta’kidlanadi.

Bahouddin Naqshband dunyoqarashini ifoda etuvchi yana bir omil, bu uning purma’no irfoniy hikmatlari, o’git, iboralaridir. Ulardan: «Agar do’st aybiga boqsak, do’stsiz qolamiz, hech kim dunyoda beayb emas»; «Sabr va chidamda nog’ora kabi bo’lmoq lozimki, u qanchalik shapaloq yemasin, biroq o’z odatiga xilof ovoz chiqarmaydi»; «Shamga o’xshagin, toki hammaga ravshanlik bag’ishla, o’zing esa, qorong’uda bo’l» kabi bir qator o’gitlarini ko’rsatish mumkin.

¹⁵⁰ O’sha asar. –B.39.

Naqshbandiya tariqat amaliyoti o'z tarixiy taraqqiyotida quyidagi juda murakkab va shiddatli davrlarni bosib o'tgan:

I davr. Naqshbandiya tariqati jamoasining shakllanishi va asosiy amaliy talablarining ishlab chiqilishi 1342-1347 yillardan to 1358 yili Amir Qazag'onning o'ldirilishi bilan bog'liq siyosiy beqarorlik, Amir Temurning siyosat maydoniga kirib kelishi (1360-1361) davrini o'z ichiga oladi.

II davr. 1361 yildan boshlab, to Amir Temur vafotigacha, undan keyingi davrda (1420 yillargacha) xojagon-naqshbandiya tariqati siyosiy ta'qib ostida bo'lsa-da, tashkiliy jihatdan mustahkamlanib o'zining jo'g'rofiy, etnik-siyosiy ta'sir doirasini kengaytira borgan.

III davr. 1420 yildan keyingi davr. Bu davrdan boshlab naqshbandiya Xoja Ubaydulloh Ahror, Muhammad Qozi, Maxdumi A'zam, Ofoq Xoja va boshqa naqshbandiya murshidlari faoliyati davrlari, ya'ni XV asrdan to XX asrgacha jamiyat, davlat taraqqiyotining barcha jabhalarida milliy ozodlik harakatlari kurashining mafkurasi bo'lib qoldi. Xuddi mana shu 3-davrning boshida naqshbandiya kambag'allar najoti uchun kuchli ijtimoiy himoya tizimini vujudga keltirdi. Xonaqohlarda yo'lovchi darveshlarga, musofirlarga, yetim-yesirlarga boshpana va yegulik berilar edi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. To'la asarlar to'plami. 10-jild. – T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011.
3. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. – T.: Sharq, 1996.
4. Islom tasavvufi manbalari.(Tasavvuf nazariyasi va tarixi). Tuzuvchi prof. H.Boltaboyev. – T.: O'qituvchi. –2005.
5. Usmonov O. Ahmad Yassaviy.//Ma'naviyat yulduzlari. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
6. Usmon Turor. Tasavvuf tarixi. –T.: Istiqlol, 1999.
7. Faxruddin Ali Safiy. Rashahot (Obi hayot tomchilari). –T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.
8. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akademik Xayrullayev M.M. tahriri ostida. –T.: O'zbekiston, 1995.
9. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). – T.: TDSHI nashriyoti. 2010.
10. G'ijduvoniyo Xoja Abdulxoliq. Vasiyatnoma. Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasi, inv. –№ 3844. V.
11. Bertels YE.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. T. 3. –M.: Nauka, 1965.
12. Knish A.D. Musulmanskiy mistitsizm. –M.–S.Peterburg: Dilya, 2004.
13. Ibragimov N. Ibn Battuta i yego puteshestviya po Sredney Azii. –M.: Nauka. 1988.
14. Muminov I.M. Filosofskiye vzglyadi Mirzi Bedilya (Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari). –T.: Fan, 1957.
15. Xismatulin A.A. Sufizm. –S.Peterburg: Peterburgskoye vosto-kovedeniye, 2008.
16. Trimingem D.S. Sufiyskiye ordena v islame. –M.: Nauka, 1989.
17. Ali Akbar Dehxudo. Lug'atnoma. 104-jild. –Tehron universiteti nashri. 1965 (fors tilida).
18. Komil Mustafo al-Shaybiy. Al-Halloj devonining sharhi. –Bayrut- Bag'dod. 1394/1974 (arab tilida).
19. Mavlono Jaloliddin Rumiyo. Masnaviye ma'naviy: Muqaddima. Qobul. 1982 (fors tilida).
20. Romitoniyo Xoja Ali. Risolai Hazrat Azizon. 1327 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 12548/II.
21. Faxruddin Ali as-Safiy. Rashahot ayn-ul-hayot. O'zFA Abu Rayhon Beruniyo nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma asarlar xazinasi. Inv. –№ 3593. Litografiya. Laknau. 1890 (fors tilida).
22. Shahobiddin ibn bintu Amir Hamza. Maqomoti Miri Kulol. 1436 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 1158.

3–amaliy mashg‘ulot:

MAVZU: Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko‘plab buyuk faylasuflar, shoir va ma’rifatparvarlarning ijodiy merosida aks etgan ijtimoiy-falsafiy fikrlar, ularning gumanistik xarakteri.

Maqsad: g‘azal mulkinging sultoni, deya ta’riflanuvchi, turkiy tilda ijod qilishga keng yo‘l ochgan va shu tilda ko‘plab asarlar yaratgan shoir Alisher Navoiy hamda uning zamondoshi Abdurahmon Jomiylarning irfo- niy qarashlari hamda tasavvufga bo‘lgan munosabatlari haqida tushuncha hosil qilish; shuningdek, talabalarda ushbu ikki zabardast mu- tafakkirlarning ma’naviy merosini falsafiy mushohada qilish va nazariy hamda amaliy xulosalar chiqarish malakalarini rivojlantirish.

Asosiy savollar

1. Abdurahmon Jomiy hayoti va faoliyati.
2. Abdurahmon Jomiyning tasavvufga munosabati.
3. Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari.

Nazariy ma’lumot

Abdurahmon Jomiy Hirotda tasavvuf yo‘liga kirishni, o‘z bilim va faoliyatini shu yo‘lga, qolaversa ijodga, ilm-fanga bag‘ishlashni afzal ko‘radi.

Yosh Jomiy Shayx Sa’diddin Qoshg‘ariy bilan yaqinlashib, unga qo‘l beradi va tez orada uning hurmatini qozonadi. Jomiy pirining qiziga uylanadi. Sa’diddin Qoshg‘ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulukiga mansub edi.

Jomiy kundalik hayotida oddiy, darvishona yashasa ham, biroq shoh va unga aloqador kishilarning, hatto uni asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat podshohlarining unga muruvvati katta edi. Shuning uchun u o‘ziga tushgan daromadlar hisobiga bir qancha binoyi xayriyalar, shu jumladan Xirotda ikki madrasa va xonaqoh, tug‘ilgan shahri – Jomda bir masjid qurish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy va adabiy hayotda yuz bergan ibratli hodisalardan biri Navoiy-Jomiy munosabatlaridir. Bu ikki buyuk zot ijod sohasida xalqparvarlik va insonparvarlik mavqesida turish bilan birga xalq, davlat ishlarida insof va adolatni yoqlar edilar. Jomiyning «Nafahot ul-uns», «Lujjat ul- asror», «Ashirat ul-lamaot», «Risolai musiqiy», «Risolai muammo» kabi bir qancha asarlari Navoiyning maslahati va iltimosi bilan yozilgan¹⁵¹.

¹⁵¹ Qarang: Hayitmetov A. Abdurahmon Jomiy.// Ma’naviyat yulduzlari. –B. 202.

Jomiyning shaxsiy maktublaridan ma'lum bo'lishicha, u yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mazoratlarni ziyorat qilgan.

Taniqli sharqshunos YE.E. Bertels «Jomiy» monografiyasida shoir asarlarining Toshkent kulliyoti (O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozma inv. № 2122) asosida 52 asarining nomini keltiradi.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir Islom dini va Sharq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin qiladi, tasavvufning XV asrdagi eng yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning «Naqshi fusus» («Ma'nolar naqshi»), «Shavohidi nubuvva» («Payg'ambarlikka dalillar»),

«Sharhi qasidayi «Toiya» (radifda «to» harfidan foydalanib yozilgan qasida sharhi), «Naqdi nusus» («Matnni tanqid»), «Sharhi qasidayi «Xamriya» («Xamriya» qasidasi sharhi), «Naqshbandiy ta'limoti haqida risola», «Vohid» atamasi haqida risola», «Zikr» shartlari haqida risola», «Haj qilish yo'llari haqida risola», «Ashiot ul-lamaot» kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin (1-ilova).

Abdurahmon Jomiyning tasavvufga munosabati

Jomiy o'zining mutasavvuflik faoliyatida Bahovuddin Naqshband g'oyalarini shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasi – Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan holda yanada rivojlantirdi. Rasman u o'zini kundalik hayotda «Malomatiya» tariqatiga mansub, deb hisoblasa-da, asarlarida Naqshbandga ixlosi baland edi. U o'zining «Lujjat ul-asror» qasidasida so'fiy xulq-axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning oliyjanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanliklarini madh etib, quyidagi satrlarni bitgan edi:

*Tome'on az bahri tu'ma peshi har xas sar nihad,
Qone'onro xanda bar shohu vaziri kishvar ast.*

Mazmuni:

Ta'magirlar bir luqma uchun boshini xasga qo'yishga tayyor,
Qanoatlilar esa, mamlakat shohi va vaziri ustidan ham kula oladi.

Shoir fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa, u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rishi zarur:

*Mardi kosib k-az mashaqqat mekunad kafro durusht, Bahri
nohamvoriyi nafsi dag'al suxongar ast.*

Mazmuni:

Kosib odam mehnat tufayli qo'lini qavartiradi,
Bu qo'ldagi dag'al esa, nafs g'adir-budurini tekislovchi randadir.

Jomiyning tasavvufga bo'lgan e'tiqodi sof va mukammal bo'lib, u Xudoni yorug' nur ko'rinishida tasavvur etar edi.

Jomiy «Nafahot ul-uns» asarini yaratish bilan tasavvuf tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Unda 616 mutasavvuf hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 tasi ayollardir. Jomiy vafotidan keyin bu asarni Navoiy ma'lum to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilishi bejiz emas edi.¹⁵²

Jomiy she'riy merosining yirik tadqiqotchisi A. Afsaxzod u to'g'risida yozgan edi: «Jomiydagi so'fiyona kayfiyat, uning ijodiy yo'lining eng ibtidosidan boshlangan edi»¹⁵³.

Jomiy lirik she'riyatida real hayot bilan tasavvufiy xayolot shoirning ijodiy fantaziyasi orqali birlashib ketgan.

¹⁵² Qarang: O'sha joyda. –B.203-204

¹⁵³ A'loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami. –M., 1988, –S.184.

Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari (1441-1501)

Alisher Navoiy XV asrning oxirgi o'n yilligida o'zining «Majolis un-nafois» va islom ma'naviyatining buyuk siymolari, xususan, turk, fors, hind mashoyixlari tarixiga oid «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabbodasi») risolalarini yozadi. Bu asarlar nihoyatda muhim manba bo'lib, o'sha davr ma'naviyatining jonli siymolaridan mingga yaqin kishi haqida qimmatli ma'lumotlarni o'zida jam' etgan. Bundan tashqari nafaqat tasavvuf irfoni va adabiyoti, balki islom davri ma'naviyatining boshqa muhim jihatlari haqida ham ko'plab nazariy mulohazalar ushbu asarlar qatidan joy olgan bo'lib, ularni mufassal tadqiq etish milliy ma'naviyatimizni xolis anglab yetishda bugungi avlodlar uchun benazir manba va asos bo'lib xizmat etadi¹⁵⁴.

Navoiy 1498 yilda «Lison ut-tayr» («Qush tili»), 1499 yilda «Muhokamat ul-lug'atayn», 1500 yili «Mahbub ul-qulub» asarlarini yozdi. Bu uch asar buyuk shoir va mutafakkir ijodining avj nuqtalari edi. Adib «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi»)da o'zining butun ijodiy yo'lini sarhisob qilib, turkiy tildagi she'riyatning qudratini ta'kidlagan. Unda, jumladan, quyidagi ma'lumot bor: «Chun «Lison ut-tayr» ilhomi bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorini majoz suratida ko'rguzupmen».

Alisher Navoiy go'daklik chog'laridan tasavvuf she'riyatining ustози Farididdin Attor yaratgan «Mantiq ut-tayr» asariga mehr qo'ygan edi. Umrining oxirida ushbu asarga tatabbu – javob yozar ekan, o'zining shungacha yozgan barcha asarlariga falsafiy yakun yasaydi. Attor asari Borliqning yagona mohiyati haqida, Haq asrori va inson uchun uni anglab yetish imkoni darajasi haqida edi. «Lison ut-tayr» mazmuni «Mantiq ut-tayr»ga zid yoki undagi fikrlarning takrori ham emas, balki yangi tarixiy-ma'naviy bosqichdagi sharhi, talqinidir.

Attorning qushlar tilidan yozilgan dostonida irfoniy ehtiros nihoyatda jo'shqindir. Navoiy esa, bosiq voqeaband tasvirga urg'u beradi, qushlar sarguzashtida va ichki hikoyalarda hayotiylikni kuchaytiradi. Bu bejiz emas. Oxirgi xulosada Navoiy salafiga qaraganda olg'a ketadi, masala

¹⁵⁴ Qarang: Imomnazarov M. Alisher Navoiy. //Ma'naviyat yulduzlari. –B.208.

mohiyatini teranroq his qiladi va badiiy tasvirni ham shunga munosib yaratadi.

Nihoyat Navoiy oxirgi asari «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») risolasida barcha savollarga yana o'zi javob bergan. Bu asar tom ma'noda ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalarga to'liq bo'lib, XV asrda mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy toifalar mohiyati mufassal ochib berilgan, ijtimoiy hodisalarning o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi ishonarli ta'kidlangan.

Alisher Navoiy o'zi va salaflari – Nizomiy, Dehlaviy, Hofiz, Iroqiy va boshqalar yaratgan mustaqil badiiy tafakkur tarzini «majoz tariqi», deb nomladi va unda Haq asrori «majoz suvratinda» aks etishini ta'kidlagan. Bu Borliqni o'ziga xos idrok etish tarzi Naqshbandiyaning: «Dil ba Yoru, dast ba kor», qoidasiga muvofiq bo'lib, unda ibrat, ilm, irfon va amal bir nuqtada birlashar va yangi dunyoga ko'z ochardi. Tavhid ta'limoti va e'tiqodini idrok etishning eng yuqori bosqichi bo'lgan bu diniy dunyoqarash tizimi «Xamsa» va «Lison ut-tayr» asarlarida, shoir lirikasida badiiy in'ikosini topgan.

Topshiriq: “ABDURAHMON JOMIY, ALISHER NAVOIY, BOBUR va boshqa ko'plab buyuk faylasuflar, shoir va ma'rifatparvarlarning ijodiy merosida aks etgan ijtimoiy-falsafiy fikrlar, ularning gumanistik xarakteri” mavzusini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma'ruza, seminar mashg'ulot jarayonlarni loyihalashtiring

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Navoiy A. «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub». To'la asarlar to'plami. 9-jild. – T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011.
3. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. To'la asarlar to'plami. 10-jild. – T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011.
4. Imomnazarov M. Alisher Navoiy. // Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

5. Islom tasavvufi manbalari.(Tasavvuf nazariyasi va tarixi). Tuzuvchi prof. H.Boltaboyev. – T.:O‘qituvchi. –2005.
6. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akademik Xayrullayev M.M. tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston, 1995.
7. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). –T.: TDSHI nashriyoti. 2010.
8. Hayitmetov A. Abdurahmon Jomiy.//Ma’naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
9. A’loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami. –M.: 1988.

4–amaliy mashg‘ulot:

Mavzu: XVI-XVIII asrlarda Movaraunnahrda falsafiy, ma’naviy- ma’rifiy va tasavvufiy g‘oyalarning rivoji

Reja

1. XVI-XVIII asrlar ijtimoiy-falsafiy fikrining umumiy xususiyatlari va ijtimoiy-siyosiy ahvol.
2. Yusuf Qorabog‘iy va Muhammad Sharif Buxoriy dunyoqarashi.
3. Boborahim Mashrab ijodiy merosida diniy va tasavvufiy g‘oyalar.

Tayanch tushunchalar:

Markaziy Osiyo, Yusuf Qorabog‘iy, Muhammad Sharif Buxoriy, imkoniy narsa, zaruriy narsa, yuqori turuvchi, quyida joylashgan, cheksiz ko‘payuvchi, Mashrab, tasavvuf, sababiy bog‘lanish.

Topshiriq: “XVI-XVIII asrlarda Movaraunnahrda falsafiy, ma’naviy- ma’rifiy va tasavvufiy g‘oyalarning rivoji” mavzusini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma’ruza, seminar mashg‘ulot jarayonlarni loyihalashtiring

Nazariy ma’lumot

XVI-XVIII asrlar markaziy Osiyo hayotida burilish davri bo'ldi. temuriylar hokimiyati Shayboniyxon tomonidan ag'darib tashlandi. Shayboniylar hukmronligi davrida markaziy davlat barpo qilishga urinish ko'rildi. So'ngra hokimiyat Ashtarxoniylar sulolasi qo'lga o'tdi. O'zaro feodal nizolari o'z cho'qqisiga chiqdi. Uch davlat tashkiloti paydo bo'ladi – oldin Buxoro amirligi va Xiva xonligi, XVIII asrning oxirida esa – Qo'qon xonligi. Umuman XVI-XVIII asrlardagi Movarounnahrda vaziyatni quyidagicha ta'riflash mumkin:

- Qachonlardir iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan mintaqaga bo'lgan Markaziy Osiyo – yangi, kapitalistik ishlab chiqarish vositasiga asoslangan rivojlanish yo'lidan borayotgan Evropa mamlakatlaridan orqada qola boshladi;

- ayni bir vaqtning o'zida, bir tomondan, markazlashishga bo'lgan tamoyil bilan bog'liq bo'lgan, ikkinchi tomondan esa, o'zaro urushlar ta'sirida shakllangan davlatlarning bo'linishlarining kuchayishiga sabab bo'lgan qarama-qarshi jarayonlar o'zaro mavjud edilar;

- markaziy davlat barpo qilish uchun olib borilgan kurash milliy davlatlarning irqiy tarixiy asosda shakllanish jarayonining, jumladan, Buxoro amirligining mohiyatli tamoyillaridan birini ifoda qilar Ediki, bunday intilish keyinchalik Rossiya tomonidan Markaziy Osiyoni bosib olinishi bilan barham topdi.

Mavoraunnahrda adabiyot va tasviriy san'at, tarix va falsafa, me'morchilik va binokorlik san'ati rivojlanishda davom etdi. Samarqand, Toshkent va ayniqsa, Buxoro madaniy faoliyat markazi sifatida o'z mavkellarida qolgan edilar. XVI – XVII asrlar adabiyoti Turdi, Mashrab, Mavlono, Vafoiy, Nodir, Mullo Mastiy, Ravnaq, Roqim, Andalib, Nishotiy, Umar Boqiy, akmal kabi siymolar ijodida o'z aksini topgan edi. markaziy Osiyodan chiqqan XVII asrning ko'plab shoirlari o'z tug'ilgan joylaridan yiroqda yashadilar va ijod kildilar. Shavkat Buxoriy (vaf. 1695) Hindiston. Afg'oniston, Eronda yashadi; Mullo Mulham – Hindistonda, Muhammad Solih Samarqandiy – Buxoro, Balx. Hindiston, Lahorda. Boburiylar davrining Hindiston tarixchisi Abdulqodir Badayuniyning guvohlik erishicha, hind adiblari bo'lgan guluyi, Kashmiriy, Kamoliy, mahsumiy, ramziy, Lohuriy, Jomiy, Kobuliy va fayzi Dukkoniylar Mavoraunnahr shaharlarida bo'lgan edilar. Arab va fors yillarida yozilgan bir qator tarixiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. XVI asrda ilm-fan alohida murakkab vaziyatga tushib qoldi. Bu davrda biz endi Ulug'bek va Ali Qushchi kabi yirik olimlarni ko'rmaymiz.

XVI asrdan boshlab Movarounnahr falsafiy fikr ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanadi.

Birinchi yo‘nalish – Mirzajon Sheroziy, Yusuf Qorabog‘iy, Muxammad Sharif Buxoriy kabi mutafakkirlar va boshqalar ijodida o‘z ifodasini topgan Mavoraunnahrning o‘zidagi ijtimoiy-falsafiy fikr rivoji.

Ikkinchi yo‘nalish - Markaziy osiyodan chiqib, Hindistonda ijod qilgan mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan falsafa. Boburiylar imperiyasining uch yuz yil davomidagi mavjudligi markaziy Osiyo va unga qo‘shni bo‘lgan boshqa mamlakatlar tarixida chuqur iz qoldirdi. Bobur davlatining jug‘rofiy jihatdan alohida uzoq o‘lkada joylashganligiga qaramasdan, uning ma‘naviy hayoti hamisha Markaziy Osiyo madaniyatining bir qismi bo‘lib qolaverdi. Negaki, u va uning vorislari bu madaniyatga taalluqli bo‘lib, o‘z faoliyatlarida ushbu madaniyat an‘analarini rivojlantirishda davom etdilar.

XVI asrning boshida Eronda shialikning rasmiy mazhab sifatida e‘lon qilinishi munosabati bilan madaniyat vakillaridan ko‘pchilik qismi ta‘kiblarga uchraganli tufayli sababidan Mavoraunnahr va Hindistonning bir-birlariga yaqinlashishlariga muhim omil bo‘ldi. Ulardan kupchiligi mavoraunnahr va Hindistondan boshpana topdilar. Hukmron g‘oyaviy oqim islom mafkurasi bo‘lgan kalom edi. faylasuflarning dunyoqarashi u yoki bu jihatdan ham o‘z kelib chiqishi tayanchida diniy mafkuraga ega edi. ularning ko‘p yutuqlari diniy jihatdan shakllangan edi. Ammo bu voqeylikni mutlaqlashtirish kerak emas, negaki, u bilan bir qatorda muayyan falsafiy g‘oyalar islom mafkurasiing turli jihatlaridan farq qilar edilar. Bu davr ijtimoiy-falsafiy fikri rivojida o‘z ma‘naviy-tarixiy manbalarini idrok qilishga bo‘lgan intilish, dindan kuchli ma‘naviy birlashtiruvchilik va boshqaruvchilik omili sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan edi.

Ibn Muxammadjon Yusuf al-Qorabog‘iy Muhammad Shahiy (1563-1647) kelib chiqishi jihatidan Ozarbayjonlik edi. 1579 yili u o‘n olti yoshida Shirvonga keladi, so‘ngra Sherozga borib Habibullo Mirzajon Sheroziy al- Bonaviyga shogird tushadi. O‘z ustozining ta‘siri ostida Yusuf falsafa va ilohiyot ixtisosligi bo‘yicha shugullana boshlaydi va bu sohadagi kiziqishlarini Markaziy Osiyoga olib keladi. Qorabog‘iy avval Samarqandda, keyin Buxoroda dars beradi. Umrining so‘nggi yillarida Qorabog‘iy Buxorodan ikki kilometr narida joylashgan «Sepulon» degan joyda yashaydi va o‘sha erda vafot etadi.

Muhammad Sharif ibn Muhmamad al-Husayniy al-Alaviy al-Buxoriy (vaf. 1697) Buxoroda tavaalud topgan. Al-Mavloniy laqabi bilan mashhur.

Bizgacha olimning o‘n beshdan ko‘proq asarlarining nomi, jumladan quyidagilar etib kelgan:

1. «Xoqon uchun foydali maslahatlar kitobi» («kitab favoidi xoqoniyya»). Ushbu risola 1643 silda yozilgan bo‘lib, XVIII asrgacha ko‘chirilib kelingan. Uning nusxalaridan biri «Tashakkurnoma risolasi» deb atalgan. Qo‘lyozma muallif yashagan davrning ijtimoiy hayoti, hamda ilohiyot bo‘yicha huquqshunoslikka doir qimmatli ma‘lumotlarga ega.

2. «Davriylik haqida risola». Uning XIX asrning boshlariga taalluqli bir necha nusxalari saqlangan bo‘lib, ulardan biri «Muttasillikdan davriylikning taalluqligining zaruriyati haqida risola» deb ataladi. Ushbu risola muttasillik va munfasillik masalalariga bag‘ishlangan.

Yusuf Qorabog‘iy va Muhammad Sharif Buxoriylarning ijodi falsafaning ko‘pgina muammolarini qamrab olgan. Barcha Sharq peripatetiklari kabi Qorabog‘iy ham barcha mavjud narsalarni ikki turga bo‘ladi: vojbul vujud va mumkin ul vujud yoki oddiygina zaruriy va imkoniy narsaga. Zaruriy narsa tushunchasi shundan bioratki, uning mohiyatiga nisbatan tashqida yotgan narsa hech qanday holatda ham yo‘q bo‘lishi mumkin emas. Imokniy narsa – bu shundayki, uning mohiyati uchun tashqarida bo‘lgan narsa har tomonlama borliq va yuqlik ham bo‘lishi mumkin.

Muhammad Sharif Buxoriy bu xususda o‘zidan oldin o‘tgan mutafakkir ta’rifidan unchalik farq qilmaydigan ta’rifni beradi. Uning qayd etishicha, zaruriy narsa – bu shundayki, u mavjud bo‘lmaslik tabiatidan mahrum bo‘lib, ishning uchun yuqlikning tarkibiy qismlaridan hech birini ta’riflab bo‘lmaydi. Imkoniy narsa bu shundayki, yuqorida aytilgan ikki tabiatdan mahrumdir. Agar u ikkidan biridan mahrum bo‘lsa ham, uning imkoniyati rad etilmaydi. Zaruriy narsaning borlig‘ini Buxoriy barcha ibtidolardan yuqoriko‘yadi. Uning fikricha, vojbul vujud zamon va makonga bog‘liq bo‘lmasdan, barcha ibtidolarning boshlanishidir. Barcha etuklikning sababini Buxoriy xudoda ko‘radi.

Keyingi feodal davrining boshqa mutafakkirlari kabi Qorabog‘iy o‘zining dunyoni tushunishi asosiga sababiyat qoidasini ko‘yadi. Qorabog‘iy aqidasi ko‘ra, sabab-oqibat aloqasi cheksiz bo‘lib, «bugungi kun bilangina o‘z intihosiga etmaydi...»

Bu bilan barcha borliqning sbaabiy shart asosida chnksizligi qayd etiladi. Qorabog‘iy sabab-oqibat aloqasini bir-biriga oddiy ravishda bog‘langan hodisalarning bir qator bog‘langanligi sifatida tasavvur qilmaydi. Bu aloqa qandaydir yuqori turgan narsaning oqibati asosida maydonga chiqadi. Bu oqibat, o‘z navbatida yanada yuqoriroq turgan narsaning

sababi sifatida namoyon buladi va hokazo. Bu erda aloqa o'sib boruvchi burama shaklga egaligi haqidagi tarqoq fikr yashiringan. Bunda shu narsa ham muhimki, yuqori bosqichlar shakllanishi, quyi bosqichlarni yo'qqa chiqaradi. Sababiy bog'lanishni tushunish borgan sari ko'proq murakkab va umumiy aloqalarni idrok etish bilan o'sib boradi.

Bu masala o'z rivojini Buxoriyning asarlarida, jumladan, uning davriylik haqidagi risolasida topadi. Buxoriyning fikricha, «yuqorida turuvchi» va «quyida joylashgan» bosqichlarning shakllanishi davrida maydonga davriylik chiqadi, uning mavjudligining zamini esa muttasillikdir. «Bilki, - deb yozadi u, -kishilar davriylikning muttasillikdan zaruriy ravishda bog'liqligini ko'rsatganlar». Yuqori tomon uzluksiz ravishda borayotgan bosqichlarning qaytarilishi cheksizlikdir.

Qorabog'iy va Buxoriylarning e'tiborini jalb etgan boshqa muhim muammo jismlar bo'linishining chekli va cheksizligini aniqlash edi. Bu masala ularning qarashlarida makon va zamon haqidagi ta'limot bilan mustahkam ravishda aralashib ketgan. Cheksiz ravishda ko'payib yoki kamayib boradigan har qanday qatorning miqdori uning a'zolari hajmiga ko'ra cheksiz miqdor bo'lganligidan, shunday cheksiz yo'lni chegaralangan zamon bo'lagida bosib o'tish mumkin emas. Bu davr mutafakkirlarining falsafiy kiziqish va izlanishlari o'z ichiga muhim tarkibiy qism sifatida borliqning asosiy muammolarini, avvalo, peripatetik va sharqiy- peripatetik yo'nalishdagi jihatlarni tasavvufning borliq haqidagi muayyan qarashlari bilan boyitgan holda ishlab chiqishni qamrab olgan edi.

Boborahim Mashrab (1657-1711) yirik o'zbek shoiri va mutafakkiri edi. U Namanganda tavallud topdi. U Qashg'ar, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qarshi va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida, Hindiston va Yaqin Sharqda bo'ldi.

Shoir qaerda bo'lmasin, dinning va tasavvufning asosiy qoidalariga to'g'ri kelmaydigan hatti - harakatlarini keskin tanqid ostiga olib, o'z she'rlarida ular ustidan kulganligi uchun ruhoniylar tomonidan qarshilikka uchradi.

Mashrab hayotining so'nggi yillarida Balx shahriga (hozirgi Afg'onistonda) keladi. O'zining hur fikrligi va hukmron doiralarni tanqid qilganligi uchun 1711 yilda Balx hukmdori Mahmudxon farmoniga binoan qatl etiladi. Uning qabri Xonobod shahrining janubidagi Ishkoshim qishlog'idadir (Afg'oniston). Boborahim Mashrab katta ijodiy meros qoldirdi. Unga taalluqli «Mabdai nur» («Nur asosi») dostoni,

«Devoni Mashrab» to‘plami, ko‘plab ruboiylar, g‘azallar, muxammaslar, musaddaslar xalq orasida keng tarqalgan.

Bobrahim Mashrab mumtoz adabiyotimiz buyuk namoyandalarining ilg‘or an‘analarini o‘rganib yirik shoir bo‘lib shakllandi, kamolga etdi. U qoldirgan merosda, birinchi navbatda, ishqiy mavzudagi g‘azal- muxammaslardan ana shu an‘analarning barakali ta‘sirini aniq kuzatish mumkin. Mashrabning ijodiy kamolotida, ayniqsa, Navoiy merosining ijobiy ta‘siri katta bo‘ldi.

Bobrahim Mashrab qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy g‘oyalar ham, o‘sha zamonda keng tarqalgan qalandarlik tariqatining ayrim ohanglari ham sezilarli o‘rin egallaydi. Mutafakkir islomning asosiy nazariy qoidalarini shubhasiz qabul etadi. Ammo, ayni zamonda, islom ta‘limotining bir qator zohiriy belgilarini, birlamchi deb hisoblagan qonun-qoidalarini, shariatning ayrim ko‘rsatma-talablarini, farz- sunnatlarini tan olmaslik va past nazar bilan qarash ham ko‘zga tashlanadi, ayrim diniy rukn-tushuncha va muqaddas deb bilingan marosim va odatlarga, talqin va aqidalarga shubha bilan qarash, hatto, ochiqdan-ochiq mensimaslik va masxaraomuz munosabat ancha-muncha uchraydi.

V. KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Ko‘chma mashg‘ulotlar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan oliy ta‘lim muassasalarda o‘zaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi. TDSHU “Sharq falsafasi va madaniyati” kafedrasida Sharq falsafasi va madaniyati tarixiga doir o‘quv dasturlar va darslik, qo‘llanmalar bilan tanishish va ko‘rish.

“Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko‘plab buyuk faylasuflar, shoir va ma‘rifatparvarlarning ijodiy merosida aks etgan ijtimoiy-falsafiy fikrlar, ularning gumanistik xarakteri” modulga tegishli darslarni ilg‘or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish va boshqarish masalalari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Ko‘chma mashg‘ulotlar zamonaviy ta‘lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

V. GLOSSARIY

Atamaning ingliz tilidan nomlanishi	Atamaning rus tilidan nomlanishi	Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Averroism	Averroizm	Averroizm	Ibn Rushd falsafiy merosi ta'sirida G'arbda vujudga kelgan falsafiy yo'nalish.
Practical philosophy	Prakticheskaya filosofiya	Amaliy falsafa	Ibn Sinoning fanlar tasnifiga ko'ra, falsafaning ikkinchi qismi bo'lib, u siyosat, huquq, uy ishlarini o'rganish – iqtisod va axloqshunoslik, ya'ni etikadan iboratdir.
Authocracy	Avtokratiya	Avtokratiya	(yunon. – autos – o'z va cratos – hokimiyat so'zlari birikmasidan tashkil topgan) – alohida sub'ekt tomonidan hokimiyatni cheklanmagan, nazorat qilinmaydigan va uni to'liq egallab olgan holda boshqarish
Aggression	Agressiya	Agressiya	(lot. aggres – hujum qilmoq). Hozirgi kunda A. so'zi inson faoliyatining juda ko'p qirralarini ifodalaydi: tahdid qilish unsurlaridan tortib, to jismoniy ta'sirgacha bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi
Acacia	Akasha	Akasha	Svami Vivekananda ta'limotida olamdagi barcha narsalar kelib chiqadigan dastlabki materiY.
Anarchy	Anarxiya	Anarxiya	(yunon. anarchia – bosh-boshdoqlik, hokimiyatsizlik) – ijtimoiy-siyosiy ta'limot bo'lib, shaxsni har qanday nufuzlar va turli-xil iqtisodiy, siyosat va ma'naviy ta'sirlardan ozod qilishni maqsad qilib qo'yadi. Davlat A. uchun salbiy manba bo'lib, uni zo'ravonlik, inqilobiy yo'llar bilan yo'q qilishi kerak.
An-nakhda	An-naxda	An-naxda	XIX asrning o'rtalarida arab dunyosida boshlangan g'oyaviy va adabiy uyg'onishning nomlanishi. Misrda Rifoa at-Taxtoviy (1801-1873), Ali Muborak (1824-1893), Abdulloh Fikriy (1834-1890), Suriyada Nosif al-Ezijiy (1800-1871), Butrus al-Bo'stoniy (1819-1888), Fransis Marrosh (1836-

			1873) kabi mutafakkir-olimlar ushbu oqimning vakillari hisoblanadi.
Anthropocentrism	Antropotsentrizm	Antropotsentrizm	(yunon. anthropos – inson, kentron – markaz). Bu tasavvurga ko‘ra, inson–koinot markazi bo‘lib, olamdagi barcha voqea–hodisalar o‘zgarishning tub maqsadidir.
Aparigrakha	Aparigraxa	Aparigraxa	Jaynizm da barcha ko‘ngil istaklaridan o‘zini tiya bilish. Bu kishida lazzat uyg‘otadigan ob‘ektlardan o‘zini tiyishga da‘vat etadi.
Mixed nation	Smeshannaya natsiya	Aralash millat	Abul Kalom Ozod (1888–1958)ning Hindiston xalqlari dinlar va tillarning turli tumanligidan va boshqa farqlardan qat’i nazar, yakdil bo‘lishlarini maqsad qilgan konsepsiyasi.
Athman	Atman	Atman	Upanishadlarda ruh kategoriyasi bo‘lib, hamma narsa ichiga kira oluvchi sub’ektiv voqelik sifatida o‘zini namoyon etadi: u – “katta ham emas, kichik ham emas, tanasiz va qonsiz, soyasiz va qorong‘iliksiz, shamolsiz va efirsiz..., issiz va ta’msiz, ko‘zsiz va quloqsiz, ovozsiz va aqlsiz ... uning ”oldida ham, ketida ham yoki ichida ham hech narsa yo‘q...
Atheism	Ateizm	Ateizm	(yunon. theos – xudo) har qanday ilohiy ta’limotni, ilo–hiy kuchni rad etuvchi falsafiy oqim, dahriylik.
Akhimsa	Aximsa	Aximsa	Gandiy va jaynizm ta’limotida tirik jonga ozor yetkazishdan o‘zini tiyish asosiy tamoyili
Ethical degradation	Eticheskaya degradatsiya	Axloqiy degradatsiya	hinduizm da axloqiy normalarning buzilishi.
Ethical and enlightened government	Eticheskoye i prosveshennoye pravitelstvo	Axloqli va ma’rifiy hukumat	Eron ma’rifatpar–vari Shams ul-Urafo tomonidan ishlab chiqilgan, diniy va milliy axloqiy qadriyatlar asosida jamiyat boshqaruvini ta’minlaydigan hukumat shakli.
Ashram	Ashram	Ashram	hinduiylik da diniy jamoa
Animism	Animizm	Animizm	ibtidoiy tasavvurlardan biri bo‘lib, tabiat da ruhlarning ta’siri mavjudligiga ishonish.

Arabic sciences	Arabskiye nauki	Arab ilmlari	kalom, fiqhshunoslik va hadisshunoslik kabi diniy ilmlar.
Asceticism	Asketizm	Asketizm	moddiy dunyo noz-ne'matlaridan voz kechib, ruhiy kamolot yo'lida uzlatga chekinishdir.
Mythological thought	Mishleniya (mifologicheskaya misl)	Asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash)	insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir.
Atomism	Atomizm	Atomizm	materiyaning uzluksiz, diskret (dona-dona) tuzilishi haqidagi ta'limot.
Ethics	Etika	Axloq	(arab. xulq so'zining ko'pligi) kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos tartib, qoidalar yig'indisi.
Teaching about eternal return	Ucheniye o vechnom vozvrashenii	Abadiy qaytish ta'limoti	Bu g'oyaning mohiyati shundan iboratki, ilohiy xususiyatga ega bo'lgan abadiy barhayot inson ruhi yerga tushib inson tanasi orqali namoyon bo'ladi, aynan zaminda ruh bilan tana qo'shiladi. Shu holda tana tabiiy holda o'z ruhiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi zarur.
Agnositism	Agnostitsizm	Agnostitsizm	Bilishni inkor qiluvchi ta'limot.
Antinomy	Antinomiya	Antinomiya	Isbotlash ham inkor etish ham mumkin bo'lgan haqiqatlar yoki qoidalar.
Apologetics	Apologetika	Apologetika	So'zning lug'aviy ma'nosi himoya qilmoq demakdir, ya'ni xristian dini aqidalarini turli hujumlardan himoya qilishdir.
A priori	Aprior	Aprior	Tajribagacha bo'lgan bilim.
A posteriory	Aposterior	Aposterior	Tajribadan keyingi bilim.
Association	Assotsiatsiya	Assotsiatsiya	Bilishdagi munosabat-asoslari.
Ethical rationalism	Ratsionalnaya etika	Axloqiy ratsionalizm	Bilimlar inson axloqiy faoliyatini yaxshilikka qaratish orqali namoyon bo'ladi.
Brakhma	Braxma	Braxma	braxmanizm diniy ta'limotiga ko'ra, yagona real dunyoviy ruh, ilohiy substansiya, hayot manbai, borliqning asosi.
Brakhmans	Braxmani	Braxmanlar	– Qadimgi Hindistonda davlat rahbarlari, ziyolilar va donishmandlardan tashkil topgan ijtimoiy qatlam.
Brakhmachary	Braxmachariya	Braxmachariya	Gandiy va jaynizm ta'limotida ojiz-zaif xatti-harakatlarga yo'l

			qo'yishdan o'zini tiyish hamda insonda o'z fikru hayollari, so'zlari va harakatlarini qat'iyon idora etishi tamoyili.
Buddha	Budda	Budda	(qad. sanskritcha – “nurlangan”) buddaviylik ta'limoti asoschisi, tarixiy shaxs Sidxarta Gautama.
Argument	Dovod	Burhon	isbotlash, uning mohiyati, vazifasi, turlari, qoidalari va boshqa masalalar.
Busury	Busuri	Busuri	Nisi Amanening falsafiy qarashlarida tabiat qo'nunlari tushunchasi
Bkhakthy	Bxakti	Bxakti	<p>“Bxakti” so'zi sanskrit tilidan olingan bo'lib “mehr”, “sadoqat” degan ma'nolarni anglatadi. Bxakti diniy harakat sifatida avval X–XII asrlarda Hindistonning janubida, u yerdan quvg'inlikka uchraganidan so'ng esa XIV asrlardan boshlab Hindistonning shimolida keng yoyila bordi va XV–XVI asrlarda esa Hindistonning shimoli bxakti harakatining eng yirik markaziga aylandi. Ramanand va Ramanuja, Vallabxacharya, Chaytannya, Nimbarkacharya, Xit Xarivansh kabi faylasuflar bxaktining asoschilaridir. Faylasuflarning bxaktini targ'ib qilishdan bosh maqsadlari umidsizlikka tushib qolgan hind xalqini hayotga qaytarish, ularning ongida so'ngan ishonchni yana qayta uyg'otish, kelajakka, ertangi kunga ishonib yashash tuyg'ularini mustahkamlash edi. Bxakti diniy-islohotchilik harakati hinduizm diniy fanatizmiga qarshi kurashda xuddi tasavvufdek bunyodga kelgan bo'lsa-da, o'sha davrda hind jamiyati hayotida bir vaqtning o'zida hukmdor bo'lgan bir qancha dinlarning fanatizmiga ham qarshi juda muvafaqqiyatli ravishda kurashdi va bu yo'lda o'z maqsadiga erisha oldi.</p>
Biological	Biologicheskaya	Biologik antropologiya	Insonni biologik mavjudot

anthropology	antropologiya		sifatidagi jihatlarini bo'rttirib o'rganuvchi ta'limot.
Primary quality	Pervichniye kachestva	Birlamchi sifatlar	Narsalarning mohiyatiy belgilari.
Primary	Pervonachalo	Boshlang'ich ibtido	Substansiya, birinchi ibtido, asos, negiz degan ma'nolarni anglatadi.
Vaysheshics	Vaysheyshiki	Vayshiylar	Hinduiylikda dehqonlar va hunarmandlar varnasi, tabaqasi.
Vakhdat al-vujud	Vaxdat al-vujud	Vahdat ul-vujud	tasavvuf ta'limotining yetakchi g'oyasi, xudo va olam birligi.
The Vedas	Vedi	Vedalar	Qadimgi hind jamiyatining hayot tarzi haqida ta'lim beruvchi birinchi manbalar.
Vedkhanta	Vedanta	Vedanta	vedalar oxiri degan ma'noni anglatuvchi qadimgi hind falsafiy maktablaridan biridir.
Wajib al-wujud Primary cause	Vajib al-vujud	Vojib ul-vujud	arab-musulmon falsafasida borliqning birinchi sababi, ya'ni bor bo'lishi shart bo'lgan borliq – xudodir.
Voluntarism	Volyuntarizm	Volyuntarizm	(lot. Voluntas – iroda) – iroda borliqning eng oliy ko'rinishi deb qarovchi falsafiy oqim. Iroda V.da tarixiy jarayonlarning ob'ektiv qonuniyatlariga rioya qilmasdan, jamoatchilik bilan hisoblashmasdan o'zboshimchalik bilan o'z hohish–irodasini yuqori qo'yuvchi faoliyatdir.
The doctrine of Gandhism	Ucheniye gandiizma	Gandiychilik ta'limoti	M. Gandiy (1869–1948) tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy ta'limot. Gandiychilik hinduiylik, jaynizm, insonparvarlik va kuch ishlatmaslik g'oyalariga asoslangan.
Hedonism	Gedonizm	Gedonizm –	Lazzatlanish, huzurlanish.
The hylozoism	Gilozozizm	Gilozozizm	Hamma mavjud narsalarni ruhga, jonga ega deb hisoblash.
Geocentric teaching	Geotsentrizm	Geotsentrizm	Er - Olamning markazi, degan ta'limot.
Humanism	Gumanizm	Gumanizm	Insonning dunyodagi o'rni, mohiyati va vazifasi, borlig'ining mazmuni va maqsadi haqidagi tushuncha.
Taosism	Daosizm	Daosizm	qadimgi Xitoydagi falsafiy ta'limot. D. Chjango davrida ("Urushayotgan davlatlar", mil.av. 6-5 asrlar) vujudga kelgan. D.ning asoschisi Lao-szi

			(mil.ol. 579–499 yillar) hisoblanadi. Lao szining asosiy g‘oyalari "Dao-de-szin" asarida bayon qilingan. Uning fikricha, barcha narsalar faqatgina, "dao"ga mos holda vujudga keladi va o‘zgaradi, shuningdek u kishilarni tabiat bilan uyg‘unlikda, tabiiy hayot kechirishga chaqiradi.
Deism	Deizm	Deizm	(lot. deus – xudo) xudoning, olamning shaksiz birinchi sababchisi sifatida mavjudligini e’tirof etuvchi ta’limot. D. atamasi birinchi marotaba 1564 yilda paydo bo‘ldi.
Determinism	Determinizm	Determinizm	Zaruriy shartlanganlik tamoyili.
Drakhms	Draxmi	Draxmalar	buddaviylikka ko‘ra, “o‘zining belgilariga ega bo‘lgan zarrachalar” yoki “unsurlar” .
Deduction	Deduksiya	Deduksiya	Umumiydan xususiyyga borish.
Deductive method	Deduktivniy metod	Deduktiv metod	Umumiy bilimdan xususiyy bilimga borish usuli. Dekart inson aqliga yuqori baho beradi, natijada ratsionalizumni rivojlantiradi. U Bekonga qarama-qarshi deduktiv metodni ilgari suradi.
Dialectics	Dialektika	Dialektika	Raqib bilan bahs-munozara yurita olish san’ati.
Wisdom	Mudrost	Donolik	Yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amal birligi.
Dualism	Dualizm	Dualizm	Nomoddiy va moddiy substansiya birlamchi asos sifatida mavjud.
Jaynism	Djaynizm	Jaynizm	miloddan avvalgi bir minginchi yilning o‘rta–larida vujudga kelgan ta’limot. Mazkur ta’limotning asoschisi Vardxamana bo‘lib, qalandarona hayot kechirgan. Bu ta’limotning asosida materiya va jon yotadi. Jaynistlarning ko‘rsatilishicha, insonning asosiy maqsadi tashqi olamning hukmronligidan qutilish va o‘z kamoliga erishishdir. Inson tabiati ham moddiy, ham ruhiydir. Jon bir vaqtning o‘zida nafis jon (Jiva) va dag‘al materiya (ajiva)ning birligidan iborat.
Jnana	Djnana	Jnana	Ramakrishna ta’limotida bilish

			yo'li.
Necessity	Neobxodimost	Zarurat	Olamdagi hamma narsa belgili asosda paydo bo'ladi, obektiv zaruratdan paydo bo'ladi.
Social treaty	Obshestvenniy dogovor	Ijtimoiy kelishuv	Jamiyatni shartnoma asosida paydo bo'lganligi haqidagi ta'limot.
I	I	I	xitoy falsafasiga ko'ra, halol ijrochilik tushunchasi.
Dual wisdom	Dvoynaya mudrost	Ikki donishmandlik	Nosir Xisrav fikricha, bu qadimgi yunon falsafasi (yunon donishmandligi) va qarmatilylik ilohiyotidir.
Induction	Induksiya	Induksiya	bo'lakdan butunga tomon hukm yuritish.
In and yan	In i yan	In va yan	xitoy falsafasiga ko'ra, borliqdagi o'zgarish va rivojlanishlarning sababi bo'lgan azaliy qarama-qarshi ibtidolar.
Social justice	Sotsialnoye spravedlivost	Ijtimoiy adolat	Jamiyatdagi adolat shakli.
Dual truth	Dvoynaya istina	Ikki haqiqat	Dunyoviy va diniy bilimlar bir xil darajaga ega.
Secondary quality	Vtorichniye kachestva	Ikkilamchi sifatlar	Narsalarning tashqi sifatiy belgilari.
Early Christianity	Rannaya xristianstva	Ilk xristianlik	Xristianlikning shakllanishi va rivojining dastlabki davrlari.
Inductive method	Induktivniy metod	Induktiv metod	Tajriba orqali olingan materiallarni miyada qayta ishlash usulidir.
Human existence	Chelovecheskoye bitiye	Inson borlig'i	Inson borlig'ini "ekzistensiya" deb atadilar.
Human gear, Man-mechanism	Chelovek-mexanizm	Inson-mexanizm	Inson mexanika qoidalariga bo'ysinuvchi mavjudot.
Human philosophy	Filosofiya cheloveka	Inson falsafasi	Inson ma'naviy hayotining ichki qonuniyatlarini, hayot mazmuni, inson va uning mohiyati, yashashning ma'nosi, inson ruhiyatining tahlili, falsafiy tafakkurning o'ziga xosligi, falsafada yangi uslub, inson faoliyatini ijobiy tomonga yo'naltiruvchi ta'limot.
Irrationalism	Irratsionalizm	Irratsionallik	Obektiv dunyoning umumiy qonunlaridan «dalillarni», «hayotni», subekt ongining hodisalarini tahlil qilishga o'tdilar.
Jewel	Dragotsennost	Javhar	arabcha so'z bo'lib, Sharq falsafasida olamning birlamchi sababi, moddiy yoki ruhiy asosi, degan ma'noda keng

			qo'llanilgan.
Dialectic	Dialekticheskiy	Jadal	dialektik hukmlar nomini olgan murakkab hukmlar, shartli bo'linuvchi savol-javob hukmlari kabilar.
Jen	Jen	Jen	Qadimgi Xitoy falsafasidagi insoniylik tushunchasi.
Kali	Kali	Kali	hinduiylikda hudoning yaratuvchilik, saqlovchilik yoki yemiruvchilik faol holatidagi nomi.
Caste	Kastantsvo	Kastachilik	Hinduiylikda insonlarning qat'iy tabaqalarga, kastalarga bo'linishi.
Ki	Ki	Ki	Chxve Xan Gining falsafiy ontologiyasida tabiat va inson paydo bo'lishining moddiyuncha ibtidosi
Kalam teaching	Ucheniye kalama	Kalom ilmi	o'rta asrlarda falsafiy-diniy fikrlarni, dinning nazariy asoslarini o'rganish, islom aqidalariga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida vujudga kelgan maxsus bilimlar tizimi.
kwankhakpha	Kvanxakpha	Kvanxakpha	o'rta asrlarda Koreyadagi neokonfusiychilik yo'nalishlaridan birining nomi.
Kirin	Kirin	Kirin	("ki" - erkak, "rin" – "ayol") qadimgi koreys mifologiyasiga ko'ra, o'zida dunyo paydo bo'lishining dastlabki besh elementlarini mujassamlashtirgan afsonaviy hayvon.
Kodo	Kodo	Kodo	"Yaponizm" mafkurasida "Imperator yo'li" tamoyilining nomlanishi.
Cosmic mind	Kosmicheskiy razum	Koinotiy idrok	Pravas Chaudxuri falsafiy ta'limotidaijodiy yaratuvchilik vazifasiga ega ibtido.
Kun-tsi	Konfusiy i Konfusianstvo	Konfusiy va konfusiychilik	milodgacha bo'lgan VI–V asrlarda qadimgi Xitoyda yuzaga kelgan falsafiy oqim. Konfusiy (Kun szi, melodgacha 551 – 479 y.lar) – mazkur ta'limotning asoschisi bo'lib, u hozirgi Shandun viloyati hududida Lu xonligi davrida tug'ildi. Konfusiylar bu vaqtlarda deyarli kambag'allashgan eski

			<p>zodagonlar oilasiga mansub edi. K. asoschisining qarashlari uning izdoshlari tomonidan yozilgan "Lun yuy" ("Suhbatlar va mulohazalar") nomli falsafiy kitobda bayon etilgan. K.lar ta'limotida "chjun" (podshohga sadoqat), "i" (burchga sadoqat), "syao" (o'g'illarcha ehtirom) va b. g'oyalarni ifoda etuvchi, "jen" (insonparvarlik) qarashlari sistemasi markaziy o'rinni egallaydi. Uning asosida ushbu hislatlarni o'ziga singdirgan "szyun–szi (olijanob kishilar) haqidagi g'oya turadi. Kishilarni "szyun – szi" (olijanoblar) va "syao – jen" (past tabaqalar)ga ajratish shundan kelib chiqqan. Unga ko'ra, boshqaruv birinchilar tomonidan amalga oshirilishi, keyingilar esa faqat itoat etishlari zarur bo'lgan.</p>
Cosmopolitanism	Kosmopolitizm	Kosmopolitizm	vatansizlik g'oyasini ilgari suruvchi falsafiy ta'limot. Ushbu ta'limot butun yer sayyorasinigina vatan sifatida tan oladi.
Kshatry	Kshatri	Kshatriylar	Hinduiylik kastachiligida harbiylar var–nasi, tabaqasi.
Kojiky	Kodziki	Kodziki	Yaponiyadagi qadimgi kishilarning qilmishlari haqidagi bitiklar.
Li	Li	Li	xitoy falsafasiga ko'ra, ruhiy olam, ruhiy substansiY.
Legists	Legisti	Legistlar	miloddan oldingi IV asrda siyosiy arbob Shen Buxay(er.ol.400-337 yy.) tomonidan ishlab chiqilgan legizm falsafiy oqimining tarafdorlaridir.
Matter	Materiya	Materiya	Moddiy asos.
Mayya	Mayya	Mayya	Vedantizmda real va noreal, moddiy dunyo.
Materialism	Materializm	Moddiyunchilik	(lot. Materialis – moddiy, moddiylashgan) olam moddiy, ongimizga bog'liq bo'lmagan holda, ob'ektiv tarzda mavjud, materiya birlamchi, hech kim tomonidan yaratilmagan, abadiy mavjud, tafakkur esa materiyaning xususiyatidir, olam

			va uning qonuniyatlarini bilish mumkin, deb qarovchi falsafiy oqim.
Ideology	Ideologiya	Mafkura	(arab. «mafkura» – nuqtai nazarlar va e’tiqodlar sistemasi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g’oyalar majmui.
Administrative philosophy	Administrativniy filofosiya	Ma’muriyat falsafasi	Svami Ranganatxananda falsafiy qarashlarida jamiyat rivojiga turli darajadagi ma’muriyat hodimlari o’z his-salarini qo’shishi zarurligini o’zida ifoda etadigan ta’limot.
Moral synthetic unity	Nravstvennoye sinteticheskoye yedinstvo	Ma’naviy sintetik mushtaraklik	Svami Rangatxanandaning Hindistonda hinduizm va islom orasida tinch-totuvlik va hamkorlik munosabatlari mumkinligi va zarurligini mantiqan isbotlagan ta’limoti.
Enlightenment	Prosvesheniye	Ma’rifatparvarlik	kapitalistik munosabatlar shakllanishi davrida, madaniy–mafkuraviy va falsafiy oqim–larning vujudga kelishi bilan bog’liq, yuzaga kelgan, qonuniy bosqich. M. milliy xususiyatlardan qat’iy nazar quyidagi umumiylikka ega: demokratizm, ya’ni keng ommani madaniyat va bilim manbalaridan foydalanish uchun sharoit yaratib berish, inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlariga ishonish. M. tushunchasi birinchi bor, Fransiyada shakllanib, XVIII asrning boshlarida rivoj topa boshladi. Fransuz jamiyatida M. Volter, Sh.L.Monteske, J.Mile bilan bog’liqdir.
Mythology	Mifologiya	Mifologiya	Afsonalar va asotirlar haqidagi ta’limot. Qadimda falsafani manbasi, materiali vazifasini o’tagan.
Nationalism	Natsionalizm	Millatchilik	milliy mahdudlik va maqtanchoqlikni targ’ib va tashviq qilishga asoslangan, o’z millati kuch-qudrati va salohiyatiga chuqur ishonch va o’zga millatlarga ishonchsizlik ruhi bilan yo’g’rilgan nazariya

			va amaliyot
Monotheism	Monoteizm	Monoteizm	(yunon. Monos – yakka, yagona, theos – xudo) – yakkahudolikka asoslangan diniy e’tiqod.
Islamic theologians Mutakallimin	Mutakallimiti	Mutakallimlar	kalom ilmi vakillari, ularning eng mashhurlari, Abul Hasan al-Ash’ariy va Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiydir.
Islamic theologians	Mutaziliti	Mu’taziliylar	(arabcha – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar) Islomda ilk ilohiyot oqimlaridan biri bo‘lib, diniy hukm va aqidalarni aql doirasida qabul qiluvchilar.
Metaphysics	Metafizika	Metafizika	Tabiatdan oldin, birinchi falsafa ma’nosida ham qo‘llaniladi.
Method	Metod	Usul	Usul haqidagi ta’limot.
Modus	Modusi	Moduslar	Narsalarning sifatleri.
Monads	Monada	Monada	Birlamchi asoslar, ruhiy substansiyalar.
World of substances	Mir veshey	Narsalar dunyosi	O’tkinchi, yo’q bo’luvchi, o’zgaruvchan dunyo.
Philosophy of theory	Teoreticheskiy filosiya	Nazariy falsafa	Ibn Sinoning fanlar tasnifiga ko‘ra, metafizika (oliy fan), matematika (o‘rta fan) hamda tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik (pastki fan)dan iborat ilmlar majmui.
Nirwana	Nirvana	Nirvana	buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, azaliy karma iplaridan xalos bo‘lish va abadiy ruhiy xotirjamlik.
Norito	Norito	Norito	Qadimgi Yaponiyadagi sintoistik e’tiqod bo‘lib, u duo ifodalarini o‘qish, qurbonliklar (guruch, sabzavot, baliq) keltirish bilan bog‘liqdir.
Prophecy	Prorochestvo	Nubuvvat	payg‘ambarlik, ilohiy xabar – vahiy orqali Alloh yer yuziga o‘z elchisini yuborib, insonlarni zalolatdan qutqarishi.
Relativity	Otnositelnost	Nisbiylik	Hamma narsa o’zgaruvchan, oquvchan xususiyatga ega, sukunat esa vaqtinchalik, nisbiydir.
Neoplatonism	Neoplatonizm	Neoplatonizm	Yangi aflatunchilik, ellin davrida rivojlangan oqim.
Acsidensy	Aksidensiya	Oraz	aksidensiya, narsa va hodisalarning muhim bo‘lmagan, tasodifiy, o’zgaruvchan, ahamiyatsiz xossasini bildiradi.
Consciousness	Soznatelnost	Onglilik	Onglilik bu hodisalarning yuzaki

			qismidir. Bizning butun tashqi, ichki taassurotlarimiz, hissiyotlarimiz ongimiz tomonidan anglanadi. Ular ichki ruhiy holatlar bilan bog'liqdir.
Progress	Progress	Progress	Taraqqiyot haqidagi ta'limot.
Pantheism	Panteizm	Panteizm	(yunon. pan – hamma, theos – xudo) – tarixan shakllangan falsafiy ta'limot bo'lib, u xudo bilan tabiat bir-biriga, tamoman, mos bo'lib tushadi, ular aynan birdir, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish falsafiy tafakkur rivojiga putur yetkazadi, deb da'vo qiladi.
Pacifism	Patsifizm	Pasifizm	hech narsaga ozor bermaslik tamoyili.
Purans	Purani	Puranlar	Hinduizmni o'rganishning eng dastlabki manbalaridan biri bo'lib, ular turli rasm-rusumlar va mifologik syujetlar kiritilgan asardir.
Rationalism	Ratsionalizm	Ratsionalizm	Bilishda aqlni rolini oshirib ko'rsatuvchi ta'limot.
Rationality	Ratsionalnost	Ratsionallik	Kantdan Gegelgacha bo'lgan yo'l - bu insonning tanqidiy baholovchilik qobiliyati sifatida tushunilgan oliy aqlning gegelcha «ilohiy» aql aqidasi o'rin bo'shatib berishi yo'lidir.
Regress	Regress	Regress	Orqaga ketish.
Renaissance	Renessans	Renessans	Uyg'onish davri.
Revolution	Revolyusiya	Inqilob	(lotin. "revolutio" – to'ntarish, burilish) – tabiat, jamiyat yoki bilish jarayonida biron-bir narsa, hodisada sodir bo'ladigan chuqur sifat o'zgarishi va rivojlanishni ifodalaydigan tushuncha.
Sallimkhakpha	Sallimxakp-xa	Sallimxakp-xa	o'rta asrlarda Koreyadagi neokonfusiychilik yo'nalishlaridan birining nomi.
Sati	Sati	Sati	Hindistonda beva qolgan ayolni erining jasadi yon-dirilayotgan gulxanda birga yondirilishi marosimi.
Satory	Satori	Satori	yaponcha so'z bo'lib, ichki tuyg'u bilan tushunish, yoritilish lahzasini anglatadi.
TwaddleVerbiage	Pustosloviye	Safsata	noto'g'ri hukmlar, boshqalarni aldash, yolg'onni isbotlashga qaratilgan sofizm, paralozimlar.

Swadeshy	Svadeshi	Svadeshi	Hindiston Milliy Kongress partiyasining ingliz mahsulotlariga boykot e'lon qilish g'oyasi.
Swaraj	Svaraj	Svaraj	Hindiston Milliy Kongress partiyasi ilgari surgan "O'z-o'zini boshqarish" g'oyasi.
Sensualism	Sensualizm	Sensualizm	Bilishda sezgilarni rolini, ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatuvchi ta'limot.
Scepticism	Skeptitsizm	Skeptitsizm	yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ko'rib chiqayapman, tadqiq qilyapman, mulohaza yurityapman, shubhalanyapman degan ma'nolarni bildiradi. Bu oqimning ko'zga ko'ringan vakillari – Pirron, Agripp, Ensidem, Sekst Empirik.
Chaos,Element	Stixiya	Stixiya	Tabiatning ongsiz harakati.
Subjectivism	Subyektivizm	Subektivizm	Bilishda inson ongini, xislarini o'rnini ko'tarib ko'rsatuvchi ta'limot.
Natural right	Yestestvenniye pravo	Tabiiy huquq	Insonni tug'ilgandan yashashga bo'lgan huquqlari.
Natural equality	Yestestvennoye ravenstvo	Tabiiy tenglik	Insonni tug'ilgandan hamma insonlar teng degan ta'limot.
Focusingattention, treatment	Sosredotocheniye vnimaniya, obrasheniye	Tavajjuh	butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir.
Tanasukh	Tanosux	Tanosux	inson vafot etgandan so'ng, ruhning bir tanadan boshqa tanaga ko'chib o'tishi haqidagi nazariY.
Tapasya	Tapasya	Tapasya	Gandiy va jaynizm ta'limotida azob chekish va o'g'–rilikdan o'zini tiyish tamoyili.
Theism	Teizm	Teizm	(yunon. theos – xudo) – diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, olamni, xudo tomonidan yaratilganini tan oladi.
The Tendai Sect	Sekta Tenday	Tenday mazhabi	o'rta asrlarda Xitoyda gullab-yashnagan budda-viylikning "Bir lahzada uch ming dunyo", ya'ni kosmologik nazariya qoidasiga amal qiluvchi mazhabi.
Tolerance	Tolerantnost	Tolerantlik	(lot. tolerantia – chidam, sabr-toqat) – o'zгалar–ning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik,

			bag'rikenglik.
Totemism	Totemizm	Totemizm	ibtidoiy tasavvur shakllaridan biri bo'lib, borliqdagi o'zgarishlarni va rivojlanishlarni tushunishda hayvonlarning g'ayritabiiy ta'siriga ishonish.
It	"Ono"	"U"	Tushunchasiga esa onglilikni tashkil etuvchi ongsizlik kiradi.
The Upanishads	Upanishadi	Upanishadlar	(haqiqatni bilish maqsadida o'qituvchi oldida o'tirish) Vedalarning to'rttasidan biriga an'anaviy tarzda qo'shiladigan Qadimgi Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi.
The Renaissance	Epoxa vozrojdeniya	Uyg'onish davri	Yangi davr arafasida o'ziga xos qadriyatlarga ega bo'lgan g'oyaviy va madaniy rivojlanishni o'z ichiga olgan tarixiy jarayondir.
Universal	Universalii	Universaliylar	Umumiy tushunchalar haqidagi ta'limot.
Fatalistic determinism	Fatalisticheskiy determinizm	Fatalistik determinizm	Taqdiri-azaldan hamma narsa zarurat asosida sodir bo'ladi, degan ta'limot.
Fazza	Fatszya	Faszya	siyosiy arbob Shen Buxay(er.ol.400-337 yy.) tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy oqim. Legizm falsafiy oqimi jamiyatni boshqarish siyosatida zo'rvonlikka (totalitar) asoslangan umumiy koidani joriy qilishni, byurokratiya ustidan nazorat o'rnatishni, jamiyatda xalqqa nisbatan tub va keskin choralar kurishni tavsiya kildilar Legizm ma'rifatli bo'lgandan ko'ra, xalqni jaholatda tutishni afzal ko'radi. Legizm asoslarini Xan Fey-szin, Shan Yan kabi arboblardan ishlab chiqishgan
The science of the laws of Sharia	Nauka o zakonax shariata	Fiqh	islom huquqshunosligi bo'lib, bu soha rivojida Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Jaloliddin Ahmad al-Kosoniy kabilarning ulushi katta bo'lgan.
The city of virtues	Gorod dobrodeteley	Fozil shahar	Forobiy ijtimoiy-siyosiy qarashlaridagi ideal jamiyat.
The phenomenon	Fenomen	Fenomen	Tushunchasi aynan shu hodisaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan mohiyatni ochib beradi va "mohiyat"

			tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi.
Charisma	Xarizma	Xarizma	insonning o'ta qobiliyatli va o'ziga xosligi. Sotsiologiya faniga E.Trelch tomonidan kiritilgan bo'lib, u M.Veber tomonidan uning xukmronlikning ideal tiplari konsepsiyasida tahlil qilingan
Memory	Vospominaniye	Xotirlash	Haqiqiy dunyodagi hayotini eslash.
Rhetoric	Ritorika	Xitoba	ritorika, notiqlik san'ati qoidalari, uning tarkibiy qismlari kabi masalalar.
Khodjagon	Xodjagon	Xojagon	yassaviya va naqshbandiya oqimlaridan iborat bo'lgan, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri.
Hastasoft	Xuastuanift	Xuastuanift	moniylikning tavba namozi.
Qi	Si	Si	xitoy falsafasiga ko'ra moddiy ashyolar.
Civilization	Sivilizatsiya	Tamaddun	(lot. civilis-fuqaroviy, ijtimoiy) serqirra va murakkab mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. S. tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma'rifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat degan ma'noda ishlatgan edilar.
Cyclic movement	Siklicheskoye dvijeniye	Siklik harakat	Olamda turli davrlar, bosqichlarning navbatma-navbat o'rin almashishi, aylanma harakati.
Scandalli	Chandalli	Chandallar	hind kastachiligida to'rtta kastaga kirmaydigan eng quyi tabaqa vakillari.
Chistia	Chishtiya	Chishtiya	o'rta asrlarda Hindistonda keng tarqalgan tasavvuf tariqati oqimi.
Charvaka	Chorvaki	Chorvaklar	bu ta'limotga ko'ra, olamning asosida to'rt unsur – suv, olov, havo va tuproq yotadi.
Shahid who died for the faith	Shaxid, pogibshiy za veru	Shahid	Islom e'tiqodida insonning din uchun kurashda halok bo'lishi, jon berishi.
Form	Forma	Shakl	Borliq ma'nosi, shamoyili, u faoldir. Materiya esa passivdir.

Verse	Stix	She'r	she'riy hukmlar. She'r yozish san'ati, uning vazifalari.
Chauvinism	Shovinizm	Shovinizm	boshqa millatlarni mensi-maslikni va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar sistemasi va amaliyoti. Shovinizm - millatchilikning eng xunuk ko'rinishi. Shovinizm atamasi fransuz yozuvchilari aka-uka I. va T.Konyarning «Uch rangli kokarda» nomli komediyasining qahramonlaridan biri, o'zining tajovuzkor millatchiligi bilan ajralib turadigan Nikola Shoven nomi bilan bog'liq holda XIX a.ning birinchi yarmida paydo bo'lgan.
Sudras	Shudri	Shudralar	Hinduiylikda kastalarning eng quyi varnasi, tabaqasi, ulardan hazar qilingan.
Evolution	Evolyusiya	Evolyusiya	(lot. yevolutio – ochilish, yozilish, takomillashish)–tadrijiy rivojlanish. Umumilmiy va falsafiy ta'limot hisoblanadi. Tabiat, jamiyat va ruhiy–ma'naviy, rivojlanish konsepsiyalarini umumlashtirib ifoda etishga xizmat qiladi. E. tushunchasi keng ma'noda, rivojlanish tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi.
Emanation	Emanatsiya	Emanatsiya	tajalliy etish jarayoni, ya'ni o'zidan nur taratish oqibatida yangi hodisani vujudga keltirish.
Ethnic culture	Etnokultura	Etnomadaniyat	millatga tegishli bo'lib, uning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan urf, odat, an'ana, qadriyatlari, udum, marosimlari, kiyimlar, moddiy va ma'naviy merosi, tafakkuri, ongi, g'oyaviy hamda axloqiy jihatdan o'ziga xosligini ifodalovchi ma'naviy boyligidir.
Ethnicity	Etnos	Etnos	(yunon. ethos – guruh, qabila, xalq) etnik birlik, ijtimoiy tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan odamlar ijtimoiy guruhining bir turi. E. urug', qabila, elat va millat shakllarida namoyon bo'ldi. Etnos tushunchasi 1921-

			1923 y.da S.M.Shirokogorov tomonidan chuqur tahlil qilingan. U e.ni insoniyat lokal guruhi mavjudligining asosiy shakli deb hisoblagan. Uning asosiy belgilari deb esa, - «kelib chiqish, urf-odatlar, til va turmush tarzi birligi» deb bilgan.
Ethnocentrism	Etnotsentrizm	Etnotsentrizm	(grek. –guruh, xalq va lot. centrum - markaz)- o‘z xalqi xulqi, madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini boshqa xalqlarga xos bo‘lgan shunday xususiyatlarni baholash uchun asos qilib olinishini ifodalovchi tushuncha.
Giron	Yugiron	Yugiron	XV-XVI asrlarda Koreyada moddiy asos – “ki”ning birlamchiligini tan olgan materialistik maktab.
Neoplatonism	Neoplatonizm	Yangi aflatunchilik	eramizning boshlarida vujudga kelgan, Plotin, Prokl, Porfiriy kabi faylasuflar tomonidan Aflatun g‘oyalarini jonlantirish va rivojlantirishga asoslangan ta’limot.
The inevitability of fate	Neizbejnost iz sudbi	Qazo va qadar	islom diniga ko‘ra, taqdiri azalga so‘zsiz ishonish.
Sect Kariatidy	Karmatidi	Qarmatiylar	Ismoiliylar falsafiy oqimining bir shahobchasi.
Comparison	Sravneniye	Qiyos	deduktiv, sillogistik xulosa chiqarish, uning shakllari, qoidalari kabi masalalar.
Judgment day	Sudniy den	Qoim	ismoiliylar falsafasiga ko‘ra, Qiyomat kuni Muhammad ibn Ismoilni Imom Mahdiy suratida qaytishi.
substance	substansiya	Hayulo	birlamchi sabab, moddiy asos, substansiya.
Ideological vacuum	Ideyniy vakuum	G‘oyaviy bo‘shliq	jamiyat hayotida mafkurasizlik, maq–sadsizlik va boshboshdoqlikning namoyon bo‘lishi.
The world of ideas	Mir idey	G‘oyalar dunyosi	Haqiqiy, abadiy, o‘zgarmas dunyo.
Harijana	Xaridjani	Harijanlar	hind kastachilik tizimidagi “qo‘l tekizib bo‘lmas”lar tabaqasi, ular eng iflos mehnat – ko‘chalarni supurish, axlatni tozalash kabi ishlarni qilishlari kerak.

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ- 2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm- fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni.

// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 2002. № 4-5. - 68-modda.

20. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-son, 688- modda.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-sentabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni.

SH. Maxsus adabiyotlar

1. Henry Corbin. History of Islamic philosophy. – New York. 2010.
2. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
3. Peter Adamson. Philosophy in the Islamic World. –New York: Oxford Press, 2015.
4. Po‘latova D.A Qodirov M.Q., Sulaymonov J.B. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. O‘quv qo‘llanma. 1-qism. –T.: Fan va texnologiya, 2018.
5. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
6. Ajdodlarimiz ma’naviy merosidan. – T.: Fan, 2014.
7. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
8. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
9. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
10. Istoriya Vostoka. V 6-tomax. –M.: Vostochnaya literatura RAN. –2002- 2008.

11. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
12. Karimov I.A. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati.– T.: O‘zbekiston, 2014.
13. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
14. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqining falsafiy tafakkuri (O‘rta asrlar). O‘quv qo‘llanma. – T.: TDSHI, 2010.
15. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
16. Nuritdinov M.N., Po‘latova D.A., Fayzixodjayev D.E.va boshq. Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari (VIII-XVIII asrlar) O‘quv qo‘llanma. – T. : TDSHI, 2014.
17. Po‘latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDSHI, 2013.
18. Tompson M. Vostochnaya filosofiY. – M.: Grand, 2001.
19. O‘zbekiston falsafasi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: NOSHIR, 2013.

IV. Internet saytlar

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy- metodik markazi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyonET
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
6. www.press-service.uz
7. www.nimfogo.uz
8. www.gov.uz
9. <http://press.natlib.uz>